- Fokus** *m* =,- *mat., fiz.* fokus (nur-  
ning markaziy kesishgan nuq-  
tasi); nayrang, ko‘z bog‘lash  
ko‘zbo‘yamachilik, lo‘ttibozlik
- Folge** *f* =,-n natija, yakun; qator;  
qism, tom
- folgen** *vi (s)* kuzatmoq, iziga tush-  
moq, ketiga tushmoq, ta‘qib qil-  
moq, yo‘lidan bormoq
- folgend** *a* quyidagi, keltirilgan, be-  
rilgan
- folgerichtig** *a* ma‘noli, mantiqiy
- folgern** *vt* xulosa chiqarmoq, xu-  
losa qilmoq
- Folgerung** *f* =,-en xulosa, yakun
- folgewardig** *a* izchil bo‘lmagan,  
asossiz
- Folgezeit** *f* =,-en kelgusida, kela-  
jakda
- folglic** *a* demak, shunday qilib
- foltern** *vt* azob bermoq, qiynamoq
- Fön** *m* –(e)s,-e quritgich (sochni  
quritish uchun ishlatiladigan el-  
ektr uskuna)
- Fontäne** *f* =,-n fontan, favvora
- Förderanlage** *f* =,-n ko‘tarish qu-  
rilmasi; kran
- förderlich** *a* foydali; moslashti-  
rilgan
- fordern** *vt* talab qilmoq, chaqir-  
moq
- fördern** *vt* ilgari surmoq (fan); yor-  
dam bermoq; ko‘tarmoq, rag‘-  
batlantirmoq
- Form** *f* =,-en shakl, forma, ko‘-

- rinish; turq
- formal** *a* shaklan, formal, rasmiy
- Formalismus** *m* = formalism, rasmiyatchilik
- Formation** *f* =, *-en* formatsiya, tuzum; shakllanish; harbiy qism
- Formel** *f* =, *-n* formula
- formelhaft** *a* formula ko'rinishida
- formell** *a* rasmiy, yuzaki
- Formelzeichen** *n* -*s*, = (formula) ifoda belgisi
- formen** *vt* shakl bermoq, shakllantirmoq
- formieren** *vt* yasamaq, tuzmoq, shaklga keltirmoq
- förmlich** *a* formal, yuzaki
- Förmlichkeit** *f* =, *-en* rasmiyatchilik
- formlos** *a* shaklsiz, formasiz
- formulieren** *vt* aniqlamoq, ifoda qilmoq
- forschen** *vt* tekshirmoq, kuzatmoq
- Forscher** *m* -*s*, = tadqiqotchi, tekshiruvchi; izlanuvchi
- Forschungsinstitut** *n* = ilmiy tekshirish instituti
- fort** *a* olg'a, oldinga; nariroq, uzoqroq; Yoqol! Ket!
- ich muss fort** men jo'nashim kerak
- sie sind fort** ular jo'nadilar
- fortarbeiten** *vi* ishni davom ettirmoq
- fortbestehen** *vt* mavjudlikni davom ettirmoq
- fortbewegen** *vt* joyidan siljitmoq, o'rnidan qo'zg'atmoq
- fortbilden** (sich) o'z bilimini (malakasini) oshirmoq
- Fortbildung** *f* = malaka oshirish
- Fortbildungskurse** *pl* malaka oshirish kurslari
- fortdauern** *vi* davom etmoq, cho'zilmoq
- fortfahren** *vi* (*s*) jo'nab ketmoq; davom ettirmoq, oldinga siljimoq, ketib qolmoq
- Fortführung** *f* =, *-en* davomi
- fortgehen** *vi* (*s*) yurishda davom etmoq, jo'nab ketmoq
- fortgeschritten** *a* ilgarilagan, surilgan; oldinga qarab ketgan
- Fortgeschrittene** *m, f* yaxshi o'zlashtiruvchi
- fortgesetzt** *a* uzluksiz, doimiy
- fortjagen** *vt* haydamoq
- fortkommen** *vi* yo'qolmoq
- fortleben** *vi* yashashni davom ettirmoq
- fortpflanzen** (sich) *fiz.* yoyilmoq, tarqamoq; *biol.* ko'paymoq
- Fortpflanzung** *f* =, *-en* yoyilish, to'lqin tarqalishi (yoyilishi); *biol.* ko'payish; o'tish (irsiyat, irs)
- Fortpflanzungsfähigkeit** *f* -(*e*)*s*, *-en* ko'payish qobiliyati
- fortreden** *vi* nutqni davom ettirmoq
- fortschaffen** *vt* olib taschlamoq, olib ketmoq; yo'q qilmoq
- fortschliessen** *vt* bekitmoq, qulflab qoymoq
- fortschreiben** *vt* yozuvni davom ettirmoq
- fortschreiten** *vi* (*s*) oldinga qarab ketmoq; ulgurmoq
- Fortschritt** *m* -(*e*)*s*, *-e* yutuq,

- muvafaqiyat; progress; yutuq
- fortschrittlich** *a* taraqqiyparvar
- fortsetzen** *vt* davom ettirmoq
- forttragen** *vt* olib ketmoq
- fortwährend** *a* davomli, to‘x-tovsiz; uzluksiz
- fortwirken** *vi* harakatni davom qilmoq; o‘z faoliyatini davom ettirmoq
- Forum** *n -s, -ra* anjuman, forum, yig‘ilish
- fossil** *a* qazilma
- fötal** *a biol.* pushtli, homilali; boshlang‘ich, kurtak
- Foto (Photo)** foto, rasm, surat
- Fötus** *m -ses, -se biol.* pusht, homila; urug‘; embrion
- Foyer** *n -s, -s* foye, dahliz
- Frage** *f =, -n* savol, muhokama predmeti, muammo
- Fragebogen** *m -s* anketa, so‘rovnoma
- internationale Frage** *n* xalqaro masalalar
- fragen** *vt* so‘ramoq, savol bermoq
- j-n um Rat fragen** biror odamdan maslahat so‘ramoq
- frageweise** *adv* so‘rov yo‘li bilan
- Fragezeichen** *n -s, =* so‘roq belgisi
- fraglich** *a* shubhali, muammoli
- fragwürdig** *a* aniq bo‘lmagan, noaniq, noma‘lum; shubhali
- Fraktur** *f =, -en* sinish
- Frank** *m -en, -en* frank (Frantsiya pul birligi)
- französisch** *a* frantsuzcha
- frappant** *a* hayratda qoldiradigan; ajab, qiziq, lol qilib qo‘yadigan
- Frass** *m -es, -e* yem, ozuqa (mol)
- Frau** *f =, -en* xotin, ayol; xonim
- sich eine Frau nehmen** uylanmoq
- er hat keine Frau** u uylanmagan
- Frauenarbeit** *f =* ayollar mehnati
- frauenhaft** *a* ayollarcha
- Frauenheilkunde** *f =, -n* ginekologiya
- Frauenkrankheit** *f =, -en* ayollar kasali
- Frauenstimmrecht** *n -s, -e* ayollarning saylanish huquqi
- Fräulein** *n -s, =* qiz bola; Xonim!
- fraulich** *a* ayolli, ayolga xos
- frei** *a* erkin, ozod, hur; mustaqil; bo‘sh; tekis
- Freibad** *n -(e)s, -bäder* havza, yozgi basseyn
- freibleibend** *a* majburiyatsiz
- Freidenker** *m -s, =* erkin fikrlovchi, xudosiz, ateist
- freikommen** *vi* otpuska olmoq
- Freier** *m -s, =* kuyov
- Freiexemplar** *n -s, -e* avtor nusxasi
- freigeben** *vt* ozod qilmoq; yo‘lni bo‘shatmoq
- freigebig** *a* saxiy, qo‘li ochiq, hotamtoy; bag‘ri keng
- freihaben** *vt* bo‘sh bo‘lmoq, bo‘shkun
- Freihandel** *m -s* erkin savdo
- freihändig** *a* qo‘l bilan
- freihändig Zeichnen** qo‘lda chizilgan (solingan) rasm
- Freiheit** *f =, -en* ozodlik, erkinlik, hurriyat



- Freiheitsberaubung** *f* =, -*en* qonunsiz qamash
- Freiheitskampf** *m* -(*e*)*s*, -*kämpfe* ozodlik uchun kurash
- freiheitsliebend** *a* erksevar, hurriyatparvar
- freikommen** *vi* ozod qilmoq
- freilassen** *vt* ozodlikka chiqarmoq, ozod qilmoq, qo'yib yubormoq
- freilegen** *vt* ochmoq, qazib chiqarmoq
- freilich** *a* albatta, ma'lumki
- Freimarke** *f* =, -*n* pochta markasi
- Freimut** *m*-(*e*)*s* samimiylik, samimiyat, sadoqat
- freimutig** *a* samimiy, ochiq ko'ngilli
- freisinnig** *a* erkin fikrli
- freisprechen** *vt* oqlamoq
- Freisprechung** *f* =, -*en* o'zini oqlash
- freistellen** *vt* javob bermoq, ozod qilmoq
- Freiringen** *n* -*s* erkin kurash
- Freistoss** *m* -*es*, -*stösse* *sport*.erkin tepish (to'pni)
- Freitag** *m* -(*e*)*s*, -*e* juma
- freitags** *adv* juma kunlari
- freiwillig** *a* ixtiyoriy, ko'ngilli
- Freiwurf** *m* -*en* jarima to'pini tashlash, (tepush)
- Freizeit** *f* =, -*en* bo'sh vaqt
- fremd** *a* yot, chet, begona  
**ich bin hier fremd** men bu yerlik emasman
- fremdartig** *a* g'alati
- Fremde** *m, f* ajnabiy, chet ellik, begona; notanish
- Fremdenverkehr** *m* -(*e*)*s* turizm
- Fremdenverkehrsbüro** *n* -*s*, -*s* turistlarga (mehmonlarga) xizmat ko'rsatish byurosi
- Fremdling** *m* -*s*, -*e* kelgindi, begona (odam); notanish
- Fremdsprache** *f* =, -*n* chet tili
- fremdsprachig** *a* chet tilida so'zlashuvchi (gapiruvchi)
- fremdsprachlich** *a* chet tiliga xos
- Fremdwort** *n* -(*e*)*s* chet so'z(lar), boshqa tillardan kirgan so'zlar
- Frequenz** *f* =, -*en* *fiz.* chastota (tebranish chastotasi) tezligi
- Fresko** *n* -*s*, -*ken* freska (devorga solingan rasm yoki surat)
- fressen** *vt* emoq (hayvonlar uchun)
- Fresser** *m* -*s*, = ochko'z, yeb to'y-mas, ochofat, nafsi yomon, mechkay
- Freude** *f* =, -*n* quvonch, shodlik, xursandchilik
- Freudenbotschaft** *f* =, -*en* quvonchli xabar
- Freudenmädchen** *n* -*s*, = fohisha, buzuq, g'ar
- Freudentränen** *pl* quvonch ko'z yoshlari
- freudestrahlend** *a* quvongan, sevingan
- freudig** *a* quvonchli
- freudlos** *a* quvonchsiz, g'amgin
- freuen, sich** *vi* quvonmoq, xursand bo'lmoq, shodlanmoq
- Freund** *m* -(*e*)*s*, -*e* do'st, o'rtoq, oshna, birodar
- freundlich** *a* do'stona, marhamatli, iltifotli, nazokatli, yoqimli
- Freundlichkeit** *f* =, -*en* mehribonli-

- lik, ochiq yuzlilik
- Freundschaft** *f* =, -*en* do'stlik
- Freundschaftskampf** *m* -*es* sport.  
o'rtoqlik uchrashuvi
- freundschaftlich** *a* do'stona, inoq,  
samimiy
- Freundschaftsbesuch** *m* -(*e*)*s*, -*e*  
do'stona visit; uchrashuv
- Freundschaftsbewegung** *f* = xalq-  
lar o'rtasidagi do'stlik harakat-  
larini mustahkamlash
- Freundschaftsspiel** -(*e*)*s*, -*e* o'r-  
toqlik o'yini, uchrashuvi (fut-  
bol)
- Freundschaftsbeziehungen** *pl*  
do'stona munosabatlar
- Freundschaftsvertrag** *m* -(*e*)*s*, -  
träge do'stlik shartnomasi
- freveln** *vi* jinoyat qilmoq
- Frevler** *m* -*s*, = jinoyatchi
- Frieden** *m* -*s*, = tinchlik, osayish-  
talik; do'stlik, inoqlik, yakdil-  
lik; sokin
- Friedensabkommen** *n* -*s*, = tinch-  
lik shartnomasi
- Friedenanhänger** *m* -*s*, = tinchlik  
tarafdori
- Friedensarbeit** *f* = tinchlik uchun  
kurashdagi faoliyat
- Friedensbedingung** *f* =, -*en* tinch-  
chlik shartnomasi
- Friedensbewegung** *f* = tinchlik  
harakati
- Friedensbrecher** *m* -*s* tinchlikni  
buzuvchi; tinchlikka qarshi  
(dushman); rahna soluvchi
- Friedensbruch** *m* -(*e*)*s*, -*brüche*  
tinchlikni buzish
- Friedensfahne** *f* =, -*n* oq bayroq,  
parlament bayrog'i
- Friedenskampf** *m* -(*e*)*s*, -*kämpfe*  
tinchlik uchun kurash
- Friedhof** *m* -(*e*)*s*, -*höfe* mozor,  
qabriston
- friedlich** *a* tinch, osoyishta
- friedliebend** *a* tinchliksevar
- frieren** *vi* muzlamoq, sovuq  
yemoq, sovuq qotmoq
- frisch** *a* yangi, salqin; yumshoq  
(non)
- Frische** *f* = tetiklik, bardamlik
- Friseur** *m* -*s*, -*e* sartaroshxona
- frisieren** *vt* soch taramoq
- Frist** *f* =, -*en* muddat, vaqt; mux-  
lat; uzaytirish; kechiktirish
- fristlos** *a* muddatsiz; tezda, darrov
- frivol** *a* yengiltabiat, yengiltak
- froh** *a* quvnoq, xursand; mamnun,  
rozi; shod
- fröhlich** *a* xushchaqchaq, ochiq,  
xushtabiatlilik
- Frohsinn** *m* -(*e*)*s* quvnoq tabiatli,  
kayfiyati yaxshi
- frohlocken** *vi* tantana qilmoq, se-  
vinmoq
- frommen** *vi* foyda keltirmoq, foy-  
dali bo'lmoq
- Frommelei** *f* =, -*en* munofiqlik, ik-  
kiyuzlamalik, riyokorlik
- Front** *f* =, -*en* front
- frontal** *a* frontga qaratilgan, to'ppa  
to'g'ri yonaltirigan, yoppasiga,  
umumiy
- Frosch** *m* -*es*, -*Frösche* qurbaqa
- Frost** *m* -*es* sovuq; ayoz  
**im Froste stehen** sovuqda tur-  
moq
- frösteln** *vi* sovuq qotmoq (yemoq)

- frostempfindlich** *a* sovuqqa chidamsiz
- frostresistent** *a* sovuqqa chidamli
- Frostgrenze** *f* =, -*n* muzlash chuqurligi (tuproq, yer)
- Frostwetter** *n* -*s* sovuq havo
- Frucht** *f* = meva, ho‘l meva; homila; samara, natija
- fruchtbar** *a* serhosil, unumdor, hosildor, mevali
- Fruchtbarkeit** *f* = hosildorlik, serunumlik, hosilli
- fruchten** *vi* foyda keltirmoq
- Fruchtgarten** *m* -*s*, -*gärten* mevali bog‘
- Fruchtkern** *m* -(*e*)*s*, -*e* meva donagi
- fruchtlos** *a* mevasiz, hosilsiz
- Fruchtmark** *n* -(*e*)*s* meva nag‘izi
- Fruchtpresse** *f* =, -*n* mevaning sharbatini siqib chiqarish
- fruchtreich** *a* mevali, sermeva
- Fruchtsaft** *m* -(*e*)*s*, -*säfte* meva sharbati
- Fruchtzucker** *m* -*s* *xim.* fruktoza (mevalarda, asalda, ayirim o‘simliklarning bargida bo‘ladigan uglerod)
- früh** *a* erta, barvaqt, ertalab
- Frühaufsteher** *m* -*s*, = erta turishga odatlangan odam
- früher** *a* ertaroq; ilgari, avvalgi
- frühest** *a* eng oldin
- Frühgeburt** *f* =, -*en* chala tug‘ish
- Frühgemüse** *n* -*s*, = ertagi sabzavot
- Frühjahr** *n* -(*e*)*s*, -*e* bahor, navbahor, erta ko‘klam
- Frühling** *m* -*s*, -*e* bahor; erta ko‘klam
- Frühlingsblume** *f* =, -*n* bahor guli
- Frühmorgens** *a* ertalab, vaqtli barvaqt
- Frühobst** *n* -*es* ertagi meva, chil-laki
- Frühregen** *m* -*s* ertalabki yomg‘ir
- frühreif** *a* ertapishar, tezpushar
- Frühstück** *n* -(*e*)*s*, -*e* nonushta
- frühstücken** *vi* nonushta qilmoq
- Fuchs** *m* -*es* tulki; tulki mo‘ynasi; sariq odam; ayyor
- fuchsartig** *a* tulkiga o‘xshagan
- fuchsig** *a* sariq (tulkiday)
- fuchteln** *vi* silkitmoq, qoqmoq; ishora qilmoq (qo‘l bilan)
- fügen** *vt* bog‘lanmoq, birlashmoq
- fügen, sich** *vi* bo‘ysinmoq, taslim bo‘lmoq
- fugenlos** *a* choksiz, choki yo‘q
- fühlbar** *a* sezilarli
- fühlen** *vt* sezmoq, his qilmoq (o‘zini)
- er fühlt sich nicht ganz wohl** u o‘zini yaxshi sezmayapti
- Fühillehre** *f* =, -*n* turli narsalarning qalinligini o‘lchaydigan asbob
- Fühlung** *f* =, -*en* sezish, his qilish; bir-biriga tegib turish; aloqa
- führen** *vt* olib bormoq, yetaklab bormoq; rahbarlik qilmoq; boshqarmoq
- Führer** *m* -*s*, = dohiy; rahbar; haydovchi; boshliq; yo‘l ko‘rsatuvchi; sayohatnoma
- Fuhrlohn** *m* -*en* olib borish haqi, yo‘l kira
- Fuhrmann** *m* -*s*, -*er* aravakash, foytunchi

- Führung** *f* =, -*en* rahbarlik, rahbarlik (boshchilik) qilish; rahbarlar, boshliqlar
- Führerschein** *m* -(*e*)*s*, -*e* haydovchilik guvohnomasi
- Fülle** *f* = mo'lj-kolchilik; boyluk
- füllen** *vt* to'ldirmoq, to'ldirib yubormoq
- Füllen** *n* -*s*, = toycha, qulun
- Füll(feder)halter** *m* -*s*, = avtoruchka
- Fülltrichter** *m* -*s*, = voronka
- fundamental** *a* asosli, puxta
- Fundamentalgleichung** *f* =, -*en* *mat.* asosiy tenglama
- Fundamentalgröße** *f* =, -*n* asosiy kattalik
- Fundbüro** *n* -*s*, -*e* topilmalar byurosi
- fünf** *num* besh
- fünfeck** *n* -(*e*)*s*, -*e* besh burchak besh qirrali
- fünfeckig** *a* besh burchakli
- fünffach, fünffältig** *a* besh karra; beshala, besh marta
- fünfflächig** *a* besh yoqli, besh qirrali; besh tomonli
- fünffährig** *a* besh yillik
- Fünfjahrplan** *m* -(*e*)*s*, -*pläne* besh yillik plan (reja)
- fünfmalig** *a* besh marta takrorlangan, besh karra, besh hissa oshiq (ortiq)
- fünfstöckig** *a* besh qavatli
- fünftägig** *a* besh kunlik
- fünfte** *num* beshinchi
- Fünftel** *n* -*s*, = beshdan bir qismi
- fünftens** *a* beshinchidan
- funkeln** *vi* yaltiramoq, yarqirab ketmoq, chaqnab (porlab) turmoq
- funken** *vt* radio orqali bermoq
- Funke** *m* -*s*, = uchqun
- Funkenmesser** *m* -*s*, = *fiz.* elektr zaryad uchqunini o'lchash asbobi
- Funkmeldung** *f* =, -*en* radio orqali beriladigan xabar
- Funktion** *f* =, -*en* vazifa, ish, xizmat; *mat.* (biror miqdorning o'zgarishi natijasida o'zgaruvchi boshqa miqdor); funktsiya; o'zgarish; miqdor
- Funktionalbegriff** *m* -(*e*)*s*, -*efunktsiya* tushunchasi
- funktionieren** *vi* ishlamoq
- Funktionalgleichung** *f* =, -*en* funktsional tenglama
- für** *prp* uchun; ...ga, ...lik
- für ein Jahr** bir yilga
- Tag für Tag** kundankunga
- was für ein Mensch** qanday odam (kishi)
- Fürbitte** *f* =, -*n* iltimos
- auf seine Fürbitte** uning iltimosiga binoan (ko'ra)
- Furche** *f* =, -*n* jo'yak, egat; qator
- Furcht** *f* = qo'rquv, vahima; dahshat
- furchtbar** *a* qo'rqinchli, dahshatli
- fürchten** *vt* qo'rqmoq; hayiqmoq
- furchtlos** *a* qo'rqmas, jasur, botir, mard, dovyurak
- furchtsam** *a* qo'rqoq
- füreinander** *pron* bir-biri uchun
- Fürsorge** *f* = qayg'urish, g'amxo'rlik, ta'minot; sotsial ta'minot

**fürsorglich** *a* g'amxo'r, ehtiyotkor  
**Fürsprache** *f* =, -*n* iltimos, iltimos-  
noma

**Fürst** *m* -*en*, -*en* knyaz, qirol; pod-  
shoh, hukmdor, hokim

**Fürstlichkeit** *f* =, -*en* knyaz(lar)ga  
oid; podsholik; olam, dunyo

**fürwahr** *a* haqiqatda, haqiqatdan

**Fürwitz** *m* -*es* sinchikovlik, har  
narsaga qiziqish

**Fuss** *m* -*es* oyoq; *mat.* asos

**von Kopf bis Fuss** boshidan  
oyog'igacha

**auf eigenen Füssen stehen**  
mustaqil bo'lmoq, oyoqqa tur-  
moq

**Fussballanhänger** *m* =, -*n* ishqiboz

**Fussballweltmeisterschaft** *f* =, -*en*  
futbol bo'yicha jahon birinchi-  
ligi

**Fussbekleidung** *f* =, -*en* oyoq  
kiyimi

**Fussboden** *m* -*e*, -*böden* pol

**fussbreit** *a* bir futlik kenglikda

**fussen** *vi* asoslanmoq, o'r-nashmoq

**Fussgänger** *m-s*, = piyoda, yayov  
yuruvchi

**Fussgängerverkehr** *m* -(*e*)*s* piyo-  
dalar harakati

**Fusspfad** *m* -(*e*)*s*, -*e* so'qmoq

**Fussspur** *f* =, -*en* oyoq izi

**Fusswanderung** *f* =, -*en* yayov sa-  
yohat qilish

**Futter** *n-s* yem, ozuqa; vtulka;  
tiqin

**füttern** *vt* boqmoq (mol)

**füttern** *vt* (ichiga material) tikmoq

**Fütterung** *f* =, -*en* yem-hashak

berish, oziqlantirish

## Gg

**G, g** *n* =, = *nemis* *alfavitining*  
*ettinchi harfi*

**Gabe** *f* =, -*n* sovg'a, tortiq; qobi-  
liyat, iqtidor, iste'dod

**Gabel** *f* =, -*n* sanchqi (vilka)

**gabelartig** *a* sanchqisimon, sanch-  
qiga o'xshash

**Gabellinie** *f* =, -*n* *mat.* giperbala  
(konus kesimlaridan biri)

**gabeln** *vt* sanchqi bilan olmoq

**Gabelung** *f* =, -*en* ikkiga bo'linish  
bo'linib ketish

**gackeln, gackern** *vi* qaqqillamoq

**Gadolinium** *n-s* (xim. bel. Gd.)  
gadolinii

**Gage** *f* =, -*n* maosh, oylik, moyana

**Gala** *f* = parad (ohorli) kiyim

**Galanteriewaren** *pl* attorlik  
mollari

**Galaxis** *f* = *astr.* galaktika

**Galerie** *f* = galeriya

**Galgen** *m-s*, = dor

**Galle** *f* = safro, o't; achchiq, g'a-  
zab, zarda

**gallig** *a* o'tga, safroga oid; serzar-  
da, zahar; badjahl

**Gallussäure** *f* = *xim.* galiy kis-  
lotasi

**Galvanometer** *n-s*, = *fiz.* gal-  
vanometr

**Gang** *m* -(*e*)*s* yurish, o'tish, hara-  
kat, yo'lak; taom; raund (boks),  
dahliz

**in Gang bringen (setzen)** hara-  
katga keltirmoq, ishga solmoq

- das Abend bestand aus drei**  
**Gangen** kechki ovqat uch xil taomdan iborat edi
- Gangart** =,-en yurish, qadam tashlash, oyoq olish
- gangbar** *a* o'tadigan, qo'llaniladigan, ishlatiladigan
- Gangpflug** *m* -(e)s traktor omochi
- Gans** *f* = g'oz
- Gänsefüßchen** *pl* qo'sh tirnoq (tinish belgisi)
- ganz** *a* barcha, butun; *mat.* butun son; umunan, o'ta
- das ganze Jahr** yil bo'yi
- von ganzem Herzen** chin qalbdan, chin yurakdan, samimiy
- ganz** *adv* mutloqo, butunlay
- ganz gesund sein** mutloqo sog'lom bo'lmoq
- ganz allein** butunlay yolg'iz
- im ganzen** umuman
- das ist ganz gut** bu juda yaxshi
- Genzen** *pl mat.* butun son, kasrsiz son
- ganzjährig** *a* yil davomida
- gänzlich** *a* to'liq, mukammal, bekam-kust
- ganzseiden** *a* toza (tabiiy) shoyidan
- ganztäglich** *a* kecha-yu kunduz
- ganztags** *adv* kun bo'yi
- ganzwollen** *a* sof (toza) jundan
- gar** *a* tayyor, mutloqa, butunlay juda, o'ta
- gar bald** juda yaqinda
- ganz und ganz** butunlay
- Garantie** *f* =,-tien kafolat, garantiya
- garantieren** *vt* kafil bo'lmoq, garantiya bermoq, garantiyalamoq
- Garbe** *f* =,-n bog', bog'lam, tugun
- Garde** *f* =,-en gvardiya
- Garstigkeit** *f* =,-en yomonlik, ifloslik, jirkanchlik, yaramaslik, pastkashlik, razil, qabih; bema'nigarchilik, rasvogarchilik, badbasharalik
- Garten** *m* -s bog'
- Gartenanlage** *f* =,-n xiyobon, skver
- Gartenschere** *f* =,-n bog' (tok) qaychi
- Gartenbau** *m* -(e)s bog'dorchilik
- Gartenerdbeere** *f* =,-n yer tut (qlupnay)
- Gartenhaus** *n* -es shiyponcha; bog'dagi dacha
- Gärtner** *m* -s, = bog'bon
- Gerungsmilchsäure** *f* = *xim.* sut kislotasi
- Gas** *n* -es, -e gaz
- Gasabwehrmittel** *n* -s, = ximiyaviy himoyaga qarshi vosita
- Gasalarm** *m* -(e)s,-e ximiyaviy xavf signali
- Gasaubeute** *f* = gaz qazib chiqarish
- Gasbombe** *f* =,-n ximiyaviy bomba
- gasdicht** *a* gaz o'tmaydigan
- Gasdichte** *f* = *fiz.* gaz zichligi
- gasdurchlässig** *a* gaz o'tadigan
- gasen** *vi* gazni bo'lmoq (taqsimlamoq), gazlashtirmoq
- Gaserzeugner** *m* -s gaz generator
- Gasflasche** *f* =,-n gaz boloni; siqilgan gaz uchun balon
- gasförmig** *a* gazsimon, gazga



- o'xshash; gazli
- Gasheizung** *f* =, -*n* gaz bilan isitish
- Gasherd** *m* -(*e*)*s*, -*e* gaz plitasi
- Gashahn** *m* -(*e*)*s*, hähne gaz krani krani
- Gaskranke** *f*, *m* gazdan zaharlangan
- Gasometr** *m* -*s*, = gaz o'lhagich, gaz hisoblagich
- Gasquelle** *f* =, -*n* tabiiy gaz manbasi (o'chog'i)
- Gasse** *f* =, -*n* tor ko'cha
- Gassendorf** *n* -(*e*)*s* tor ko'chali uy
- Gasstrom** *m* -(*e*)*s* gaz oqimi
- Gast** *m* -*es* mehmon
- zu Gast gehen** mehmonga bormoq
- j-n zu Gast laden** birovni mehmonga chaqirmoq
- Gastdozent** *m* -*en*, -*en* vaqtincha ishga taklif qilingan dotsent
- Gastflug** *m* -(*e*)*s* yo'lovchilar bilan uchish
- gastfreundlich** *a* mehmondo'st
- das usbekische Volk ist gastfreundlich** o'zbek xalqi mehmondo'st
- Gastfreundschaft** *f* = mehmondo'stlik, ochiq chehralik; dasturxonni ochiq
- Gastgeber** *m* -*s*, = mehmonlarni qabul qiluvchi uy egasi (xo'jayin)
- Gastgebermannschaft** *f* =, -*en* sport.mehmonlarni qabul qiluvchi komanda
- Gasthof** *m* -(*e*)*s* mehmonxona, otel
- gastieren** *vi* gastrolda yurmoq
- Gastod** *m* -(*e*)*s* gazdan zaharlanib o'lish (vafot etish)
- Gaststätte** *f* =, -*n* restoran; oshxonana, kafe, bar
- Gasturbine** *f* =, -*n* gaz quvuri
- Gasuhr** *f* =, -*en* gaz hisoblagich
- Gasvergiftung** *f* =, -*en* gazdan zaharlanish
- Gaswaffe** *f* =, -*n* ximiyaviy qurol, ximiyaviy hujum vositasi
- Gaswasser** *n* -*s* xim. ammiyak suvi (suyuqlik)
- Gastzimmer** *n* -*s*, = mehmonxona
- Gatte** *m* -*n*, -*n* er *pl.* er-xotin
- gatten** *vt* qo'shilmoq; juftlashmoq
- Gattin** *f* =, -*nen* xotin, ayol, zavcha
- Gattung** *f* =, -*en* tur; zot; jins; tip; sort, nav; toifa
- Gau** *m* -(*e*)*s*, -*e* viloyat, o'lka, mamlakat, okrug
- Gaukler** *m* -*s*, = fokuschi (sehr-gar), aldanchi, ko'z bo'ylovchi
- Gaumen** *m* -*s*, = tanglay
- Gauner** *m* -*s*, = muttaham, aldanchi, tovlamachi, g'irrom, firibgar
- Gaunersprache** *f* = o'g'rilar tili
- gealtert** *a* eskirgan
- Gebäck** *n* -(*e*)*s*, -*e* pechene, bulochka, non
- gebärden**, *sich* o'zini tutmoq, o'zini ushlamoq; odob saqlamoq
- Gebärdentanz** *m* -*es* mimik raqs
- gebären** *vt* tug'moq
- Gebäude** *n* -*s*, = bino, qurulish, Imorat; inshoot
- gebaut** *a* murakkab
- Gebein** *n* -(*e*)*s*, -*e* suyaklar; sklet

- geben** *vt* bermoq; uzatmoq, taqdim etmoq, havola etmoq; choʻzmoq (qoʻlini); *fiz.* ajralmoq, nur sochmoq  
**seine Stimme geben** ovoz bermoq  
**j-m die Hand geben** biror kishiga qoʻl bermoq  
**sich Mühe geben** urinmoq, harakat qilmoq  
**einen Auftrag geben** topshiriq (misol) bermoq  
**ein Beispiel geben** misol bermoq  
**Gesetze geben** qonun chiqarmoq  
**Rat geben** maslahat bermoq  
**Unterricht geben** dars bermoq  
**Gebet** *n* -(e)s, -e ibodat qilish, namoz oʻqish, sigʻinish; yolvorib soʻrash, iltijo qilish  
**Gebettel** *n* -s gadoychilik, tilanchilik; surbetlik  
**Gebiet** *n* (e)s, -e viloyat; soha; zona, hudud, tuman; tarmoq  
**gebieten** *vt* buyuruq bermoq, hukmronlik qilmoq, boshqarmoq; talab qilmoq  
**Gebieten** *m* -s, = hokim, amir, sulton, shoh; monarx, hukmdor  
**Gebietserweiterung** *f* =, -en hududni (territoriyani) kengaytirish  
**Gebilde** *n* -s, -= asar; obraz; tuzulish  
**gebildet** *a* maʼlumotli, oʻqimishli, maʼdaniyatli  
**ein gebildeter Mann** oʻqimishli kishi  
**Gebildete** *m* =, -n oʻqigan (maʼlumotli) kishi  
**Gebirge** *n* -s, = togʻ togʻ tizmasi  
**ins Gebirge gehen** toqqa chiqmoq  
**gebirgig** *a* togʻli  
**Gebirgsbach** *m* -(e)s, -bäche sel, kuchli oqish (suv)  
**Gebirgsgegend** *f* =, -en togʻli joylar  
**Gebirgstal** *n* -(e)s, -täler togʻ vodiysi  
**geboren** *a* tugʻilgan, tugʻma  
**Gebot** *n* -(e)s, -e buyuruq, buyuruq berish; talab qilish; farmon  
**j-m zu Gebote stehen** biror kishining ixtiyorida boʻlmoq  
**Gebotszeichen** *n* -s, = yoʻl belgilari, koʻrsatma  
**gebraten** *a* qovurilgan  
**gebratener Fisch** qovurilgan baliq  
**Gebrauch** *m* -(e)s qoʻllash, ishlatish; urf-odat, rasm-rusum; foydalanish; odat, udum; taomil  
**gebrauchen** *vt* qoʻllamoq, ishlatmoq, isteʼmol qilmoq, foydalanmoq  
**gebräuchlich** *a* qoʻllaniladigan, ishlatiladigan  
**wenig gebräuchlich** kam qoʻllaniladigan  
**nicht mehr gebräuchlich** boshqa qoʻllanilmaydigan, ishlatilmaydigan  
**Gebrauchsmuster** *n* -s, = namuna, ibrat  
**gebrauchsfähig** *a* qoʻllashga yaroqli, ishlatilgan boʻladigan  
**Gebrauchswasserversorgung** *f* =

- suv bilan ta'minlash sanoati
- Gebrauchswese** *f* =, -*n* qo'llash usuli
- gebrochen** *Part II* singan, buzuq
- gebrochene Strahlen** *fiz.* singan, (qaytgan) nur
- gebrochene Linie** *mat.* singan chiziq
- eine gebrochene Zahl** kasr son
- Gebrüder** *pl* aka-uka
- gebückt** *a* bukur
- Gebühr** *f* =, -*en* mos (munosib) bo'lgan, xizmatiga yarasha
- Gebundenheit** *f* = bog'lanishlik; ezish, siqish, siquvga olish; ravonlik
- gebundene Wärme** *fiz.* yashirin issiqlik
- gebundene Energie** *fiz.* potentsial energiya
- Geburt** *f* =, -*en* tug'ilish, dunyoga kelish; yangi tug'ilgan; homila
- Geburt eines Kindes** bolaning tug'ulishi
- von Geburt** tug'ulishdan, tug'ma, tug'ilgandan beri
- Geburtshaus** *n* -*es*, -*häuser* tug'uruqxona
- Geburtshelfer** *m* -*s*, = doya
- Geburtsschein** *m* -(*e*)*s*, -*e* tug'ulish guvohnomasi
- Geburtsjahr** *n* -(*e*)*s*, -*e* tug'ilgan yili
- Geburtsland** *n* -(*e*)*s* vatan
- Geburtstag** *m* -(*e*)*s*, -*e* tug'ilgan kun
- den Geburtstag begehen (feiern)** tug'ilgan kunni nishonlamoq
- Gedächtnis** *n* -*ses*, -*se* es, xotira
- er hat gutes Gedächtnis** uning xotirasi yaxshi
- aus dem Gedächtnis verlieren** esidan chiqarmoq, yoddan ko'tarilmoq
- zum Gedächtnis** esdalik uchun
- Gedächtnisschwäche** *f* =, -*en* xotiraning pasayishi
- Gedächtnisübung** *f* =, -*en* xotira mashqi
- Gedanke** *m* -*ns*, -*n* fikr, o'y, xayol; tafakkur; ong; andisha; e'tiqod; maslak
- gedankenarm** *a* g'oyasiz; mazmunsiz; bo'sh, bo'shliq
- Gedankenaustausch** *m* -*es* fikr almashish, fikrlashish
- Gedankenfreiheit** *f* = ozodlik (erkinlik) fikri
- gedankenlos** *a* fikr qilinmagan, o'ylanmagan; xayolga kelmagan
- Gedankenpunkte** *pl* ko'p nuqta
- gedankenreich** *a* g'oyaga boy
- Gedankenstrich** *m* -(*e*)*s*, -*e* tire
- gedanklich** *a* tafakkurga, fikrlashga oid; xayoliy, mavhum
- gedankenvoll** *a* to'liq ma'noli
- Gedeihen** *n* -*s* o'sish, rivojlanish, muvaffaqiyat, ravnaq
- gedeihen** *vi* o'smoq, rivojlanmoq
- gedeihlich** *a* foydali, foyda keltiradigan, muvaffaqiyatli
- Gedenkbuch** *n* -(*e*)*s*, -*bücher* yozuv daftarchasi, albom, xotira daftari
- gedenken** *vi* niyat qilmoq, o'ylamoq; eslamoq, xotiraga olmoq
- j-s in Ehren gedenken** biror

- kishini xotiraga (yodga) olmoq  
**Gedenken** *n-s* xotira, es, yod  
**Gedenkfeier** *f=, -n* xotira marosimi  
**Gedenktag** *m-(e)s, -e* xotira kuni, yillik  
**den Gedenktag begehen** xotira bayram kunini nishonlamoq  
**Gedenkrede** *f=, -n* (auf +A) xotiraga bag'ishlangan nutq, xotira nutqi  
**Gedicht** *n-(e)s, -e* she'r, poema, doston  
**Gedicht schreiben** she'r yozmoq  
**Gedicht aussagen (vortragen)** yoddan she'r aytmoq  
**Gedichtsammlung** *f=, -en* she'rlar to'plami  
**Gediegenheit** *f=* tozalik; asl, sara, ezgulik, mustahkam, pishiq, birdamlik  
**gedörnt** *a* quritilgan, quritib qo'yilgan  
**gedrängt** *a* tor, qisqa  
**Gedrängtheit** *f=* torlik, zichlik, tanglik, siqilish  
**gedrückt** *a* bosma, ezilgan  
**Gedrungenheit** *f=* zichlik, qalinlik, mahkamlik; *fiz.* zichlik; past bo'yli  
**Gedudel** *n-s* volinkada ijro etish (chalish), (puflab chalinadigan rus cholg'u asbobi)  
**Geduld** *f=* toqat, chidam, sabr, bardosh  
**gedulden, sich** chidamoq  
**gedulden Sie sich!** Bir oz kuting turing  
**geduldig** *a* chidamli, sabrli, toqatli, bardoshli  
**geeicht** *a* tamg'alamoq, tamg'a solmoq; qoralamoq, la'natlar o'qimoq  
**geeignet** *a* mos (to'g'ri) keladigan  
**Geeignetheit** *f=* yaroqli, foydali; uyg'unlashtirish, moslashtirish, qulaylik  
**Gefahr** *f=, -en* xavf-xatar, tahlika; vahima; qo'rquv; tavakkal  
**ausser Gefahr sein** xatardan xoli bo'lmoq  
**gefährdend** *a* qo'rqinchli xavf; vahimachi, qo'rqituvchi  
**Gefährdung** *f=* do'q, po'pisa qilish; qorqitish  
**gefährlich** *a* xavfli, xatarli, qo'rqinchli, tahlikali  
**eine gefährliche Lage** xavfli holat  
**gefährlos** *a* bexavotir, qo'rqinchsiz  
**Gefährt** *n-(e)s, -e* arava, ulov  
**gefallen** *vi* yoqmoq, ma'qul bo'lmoq; halok bo'lgan, o'lgan  
**Heines Gedichte gefallen mir sehr** Geynening she'rlari menga juda yoqadi  
**Gefallen** *m-s* iltifot, marhamat, mehribonlik; hojat chiqarish; xizmat qilish  
**j-m einen Gefallen tun (erweisen)** biror kishining hojatini chiqarmoq, biror kishiga xizmat qilmoq  
**Gefallen** *n-s* rohat, huzur-halovat, kayf-safo; maza  
**an etwas Gefallen finden** biror

- narsadan huzur qilmoq  
**gefällig** *a* xushmuomalalik, xizmatga tayyor (shay)  
**gefälscht** *a* qalbaki  
**gefällt** *a xim.* tindirilgan; tagiga choʻkkan  
**Gefangene** *m, f -n, -n* asir, mahbus, bandi  
**gefangen** *Part II* ushlangan; mahbus, bandi; asir olingan  
**Gegangenenwärter** *m -s, =* turma (qamoqxona) qorovuli  
**gefangennehmen** *vt* asirga olmoq, qoʻlga olmoq, ushlamoq  
**gefangensetzen** *vt* turmaga (qamoqqa) oʻtqizmoq  
**Gefangenschaft** *f =* asirlik, asorat, tutqinlik  
**in Gefangenschaft geraten** asirga tushmoq  
**Gefängnis** *n -ses, -se* turma, qamoqxona, zindon  
**ins Gefängnis setzen** turmaga tashlamoq, qamamoq  
**im Gefängnis sitzen** qamoqxonada oʻtirmoq  
**zu dreijährigem Gefängnis verurteilen** uch yil qamoqqa hukm qilinmoq  
**gefärbt** *a* boʻyalgan, rang berilgan; sirlangan  
**Gefäß** *n -es, -e* idish, idish-tovoq  
**Gefecht** *n -(e)s, -e* jang, kurash  
**ins Gefecht kommen** janga kirmoq, jang qilmoq  
**Gefechtausbildung** *f =, -en* jangovar razvedka; janga tayyorlanish  
**Gefechtsbereich** *m -(e)s, -e* jang maydoni  
**gefechtsfähig** *a* jangovarlik  
**Gefechtsordnung** *f =, -en* jangovar tartib  
**geflissen** *a* tirishqoq, gʻayratli; serharakat  
**Gefluchte** *n -s* soʻkish, haqorat  
**Geflügel** *n -s* uy parrandasi  
**Geflügelzucht** *f =* parrandachilik  
**geflügelt** *a* qanotli  
**geflügelte Worte** hikmatli soʻzlar, qanotli soʻzlar  
**Gefolgsmann** *m -(e)s* kuzatuvchi, hamroh; izdosh  
**Gefrage** *n -s* toʻxtovsiz soʻrov (surishtirish)  
**Gefrierenanlage** *f =, -n* sovutish uskunasi  
**gefrieren** *vi* sovuqqotmoq, muzlamoq, yaxlamoq  
**das Wasser gefriert 0°** suv 0° da muzlaydi  
**etwas gefrieren lassen** biror narsani sovutmoq (muzlatmoq)  
**Gefrierpunkt** *m -(e)s fiz,* muzlash, yaxlash nuqtasi  
**Gefüge** *n -s, =* tuzilish; tizim; qurilma  
**Gefüglehre** *f =* metallografiya (metallarning ichki tuzilishi va fizik xususiyatlari haqidagi fan)  
**Gefühl** *n -(e)s, -e* sezgi, his, tuygʻu; idrok, sezish; hayojon  
**gefühllos** *a* sezgisiz, xushsiz  
**gefühlbetont** *a* his-hayojonli joʻshqinli; taʼsirchan  
**gefühlvoll** *a* samimiy, ziyrak, oʻta sezgir  
**gefühlvolles Wort** samimiy

- soʻz
- gegeben** *a* berilgan, uzatilgan  
**in gegebenen Augenblick** ayni, shu paytda
- Gegebene** *n* ushbu; berilgan dalil (isbot); *mat.* berilgan kattalik, maʼlum kattalik
- gegebenfalls** *adv* bu holda, bu (bunday) sharoitda
- gegen** *prp* (A) qarshi; yaqin; ...dan; yonalish boʻyicha; qariyib; uchun
- gegen den Krieg (kämpfen)** urushga qarshi (kurashmoq)
- gegen Osten** sharqqa tomon
- gegen 10 Uhr morgens** ertalab soat oʻnlarda
- gegen abend** kechga yaqin
- Gegenanerbieten** *n -s, =* muqobil taklif
- Gegenantwort** *f =, -en* eʼtiroz, qarshi javob, rad (inkor) etish
- gegenauswechselbar** *a* oʻzaro almashishlik
- Gegend** *f =, -en* joy, oʻlka, mamlakat; maydon
- Gegendruck** *m -(e)s* qarshi harakat; toʻsiq
- gegeneinander** *pron* bir-biriga qarshi; qarama-qarshi; zid
- Gegenfall** *m -(e)s* qarama-qarshi qoʻyilgan holat
- Gegenfarbe** *f =, -n* fiz. qoʻshimcha rang
- Gegengift** *n -(e)s, -e* zaharga qarshi
- Gegenkathete** *f =, -en* qarama-qarshi yotuvchi katet; qoʻshimcha katet
- Gegenliebe** *f =* oʻzaro muhabbatlik; oʻaro doʻstlik; bir-biriga muhabbat
- Gegenpol** *m-s, -e* fiz. teskari, qarama-qarshi qutb
- Gegenrede** *f =, -n* javob nutqi
- Gegensatz** *m -es* -oʻxshash emaslik, farq, ayirma, qarama-qarshilik; ziddiyat
- gegensätzlich** *a* oʻxshash emaslik; antagonistik
- ich bin gegensätzlicher Meinung** men boshqa fikrdaman, mening fikrim boshqacha
- Gegenschein** *m -(e)s, -e* astr. roʻbaroʻ, yuzma-yuz tushish; ustma-ust; (sayyoralarning bir-biriga qarshi turishi)
- Gegenseitenwind** *m -(e)s, -e* qarshi shamol
- gegenseitig** *a* ozaro, ikki kishi oʻrtasidagi, ikki tomonlama
- das gegenseitige Abkommen unterzeichnen** ikki tomonlama shartnomaga imzo chekmoq
- gegenseitige Hilfe** ikki tomonlama yordam
- gegenseitiges Einverständnis** oʻzaro bir-birini tushunish
- Gegenseitigkeit** *f =* oʻzaro doʻstlik (munosabat)
- gegenseits** *adv* bir-biriga nisbatan
- Gegensinn** *m -(e)s, -e* qarshi qoʻyilgan fikr
- Gegenstand** *m -(e)s* narsa, predmet; obyekt; tema
- gegenstandslos** *a* asoslanmagan boʻsh, asossiz
- Gegenstimme** *f =, -n* qarshi ovoz



- berish
- Gegenstoss** *m -es, -stösse* qarshi zarba, kontr ataka
- Gegenströmung** *f =, -en* qarshi oqim
- Gegenteil** *n -(e)s, -e* qarama-qarshilik  
**im Gegenteil** aksincha
- gegenteilig** *a* qarama-qarshi  
**gegenteilige Meinung** qarama-qarshi fikr
- gegenüber** *prp (D)* qarshisida; nisbatan; ro'parasida  
**wir wohnen dem Theater gegenüber** biz teatr qarshisida turamiz (yashaymiz)
- gegenüberstehen** *vi (D)* qarshisida turmoq
- gegenüberstellen** *vt* qarshi qo'y-moq; qiyos qilmoq; yuzlash-tirmoq
- Gegenwart** *f =* hozir bo'lish, ishtirok etish, ishtirok; hozirgi; zamonaviy; *gramm.* hozirgi zamon  
**die Zeitformen der Gegenwart** hozirgi zamon fe'l formalari
- gegenwärtig** *a* hozirgi, zamonaviy; hozir, hozirgi vaqtda, endi  
**die gegenwärtige internationale Lage** hozirgi xalqaro ahvol
- Gegenwartsliteratur** *f =* hozirgi zamon adabiyoti
- Gegenwert** *m -(e)s, -e* ekvivalent; muqobil, teng bo'lish
- Gegenwinkel** *m -s, = mat.* qarama-qarsh yotgan burchak
- Gegenwirkung** *f =, -en* reaksiya; qarshi harakat, ta'sir
- Gegenwohner** *m -s, = geogr.* Yer sharining qarama-qarshi tomonlarida yashovchi odamlar
- Gegenzug** *m -(e)s,* qarama-qarshi harakat; poezdlar uchrashuvi
- Gegner** *m -s, =* raqib  
**den Gegner besiegen** dushmani yengib chiqmoq
- Gegnerschaft** *f =, -en* qarshi tomon, dushman taraf, tomon
- gehaben (sich)** o'zini tutmoq, o'zini his qilmoq
- Gehalt** *n -(e)s* ish haqi; mazmun; shikoyat; oylik, moyana  
**gutes (hohes) Gehalt** yaxshi (ko'p) oylik  
**Gehalt erhalten** maosh olmoq  
**Gehalt auszahlen** maosh to'lamoq
- gehaltlos** *a* mazmunsiz, bo'sh
- gehaltreich** *a* mazmunli; yuqori sifatli (metall haqida)  
**sein schriftliche Aufsatz ist gehaltreich** uning inshosi mazmunli
- Gehaltserhöhung** *f =, -en* ish haqini oshirish
- Gehaltskürzung** *f =, -en* ish haqini kamaytirish (qisqartirish)
- Gehaltstag** *m -(e)s, -e* maosh beradigan kun
- gehartet** *a* toblangan (po'lat haqida)
- gehässig** *a* nafrat qo'zg'aydigan, jirkanch; nodo'stona; dushmanlik; badjahl, yomon niyatli; zaharli, kinoyali
- gehbar** *a* o'tsa bo'ladigan (yo'l-dan)

- geheim** *a* yashirincha, maxfiy, sirli  
**geheimhalten** *vt* yashirmoq, sirtutmoq, yashirin saqlamoq  
**geheimnisvoll** *a* sirli  
**Geheimpolizei** *f* =, -*en* yashirin politsiya  
**Geheimschrift** *f* =, -*en* yashirin xat  
**geheimtun** *vi* yashirmoq, bekitmoq  
**Geheimvertrag** *m* -(*e*)*s* maxfiy kelishuv (shartnoma)  
**Geheiss** *n* -*es* farmon, buyruq  
**auf j-es Geheiss** biror kishining farmoniga ko'ra  
**gehen** *vi* (*s*) bormoq (piyoda), yurmoq, ketmoq, harakat qilmoq  
**zu Fuss gehen** yayov piyoda yurmoq  
**das Auto geht bis zum Bahnhof** avtobus vokzalgacha boradi  
**meine Uhr geht richtig** soatim to'g'ri yuradi  
**mein Bruder geht zur (in die) Schule** mening ukam maktabga boradi (maktabda o'qiydi)  
**die Zeit geht schnell** vaqt tez o'tadi  
**zu Bett gehen** uxlashga yotmoq  
**Geheul** *n* -(*e*)*s* bo'kirish, qichqirish; ayqirish  
**Gehilfe** *m* -*n*, -*n* yordamchi  
**Gehirn** *n* -(*e*)*s*, -*e* bosh, miya  
**Gehölz** *n* -*es*, -*e* chakalakzor, kichik o'rmon  
**gehenlassen** *vt* tinch qo'yimoq  
**gehören** *vi* (D) quloq solmoq  
**das Gehör verlieren** eshitish qobiliyatini yoqotmoq  
**gehören** *vi* tegishli bo'lmoq, qarashli bo'lmoq, dahldor; mansub (aloqador) bolmoq; tarkibiga kirmoq  
**das Haus gehört meinem Vater** uy otamga qarashli  
**gehörig** *a* qarashli, tegishli  
**Gehörlehre** *f* = *fiz.* akustika (fizikaning tovush haqidagi bo'limi)  
**gehörlos** *a* kar, garang; eshitishdan mahrum bo'lgan  
**Gehörlosenschule** *f* =, - karlar maktabi  
**Gehörn** *n* -(*e*)*s*, -*e* shox, (hayvonlarga oid)  
**gehorsam** *a* gapga kiradigan, qobil, mo'min, yuvosh  
**gehorsam sein** intizomli bo'lmoq, quloq solmoq  
**Gehörsinn** *m* -(*e*)*s* eshitish, sezish  
**Gehpelz** *m* -*es*, -*e* mo'ynali erkaklar paltosi, shuba  
**Gehren** *m* -*s*, = uch burchak, ponna; burchak  
**Geige** *f* =, -*n* skripka, g'ijjak  
**geigen** *vt*, *vi* skripka chalmoq  
**Geisel** *m* -*s*, = bandi, garovda turgan (ushlab turilgan) odam  
**Geissel** *f* =, -*n* qamchi, darra; ofat, balo, musibat, baxtsizlik  
**geisseln** *vt* qamchilamoq, savalamoq, jazolamoq  
**Geist** *m* -*es*, -*er* ruh, ruhiy holat; jon; ko'ngil, qalb, yurak, dil; ko'ks; ko'zga ko'rinish, sharpa, ko'lanka  
**Geist und Materie** ruh va materiya  
**seine Worte sind voller Geist** uning so'zlarida ko'p ma'no bor

**geisterbleich** *a* o'likday oqargan

**geisterhaft** *a* xayoliy, xayoldagi

**Geisterarbeit** *f* =, -*en* aqliy mehnat, aqliy ish

**Geisterbildung** *f* = aqliy rivojlanish

**Geistesfähigkeiten** *pl* aqliy qobiliyat

**geistesgestört, geisteskrank** *a* ruhiy kasal

**geistesschwach** *a* aqli kam, aqlsiz

**Geisteswissenschaft** *pl* gumanitar fanlar

**geistig** *a* ruhiy, aqliy

**Geistliche** *m* = ma'naviy shaxs; ibodat qiluvchi (dindor), ruhoniy

**geistreich** *a* gapga usta, topqir, dono; gapning kiftini keltiradigan

**Geiz** *m* -*es* xasis

**geizen** *vi* qizg'anmoq, ayamoq, xasislik qilmoq

**geizig** *a* xasis, ochko'z, achofat

**geklügelt** *a* qiziq, g'alati, ajib; chalkash, jumboqli; mujmal

**Gelächter** *n* -*s*, = kulgi, kulish

**j-m dem Gelächter preisgeben**

biror kishini masxara qilmoq

**geladen** *a* yuklamoq, ortmoq; zaryadlamoq, kuchlantirmoq, o'qlangan; taklif etilgan

**geladene Gäste** taklif etilgan mehmonlar

**Gelände** *n* -*s*, = joy, yer

**das schöne Gelände** chiroyli joy, xushmanzarali joy

**das dicht bevölkerte Gelände** aholisi zich joy

**gelangen** *vi* (*s*) kelib qolmoq, tushib qolmoq; erishmoq; yotmoq

**gelassen** *a* og'ir, vazmin, mo'min  
**mit gelassener Stimme** vazmin ovoz bilan

**ein gelassener Mann** mo'min kishi; yuvosh odam

**geläufig** *a* qo'llaniladigan, odatiy, ma'lum; ravon, tez, tanish

**diese Redewendung ist geläufig** bu ibora tanish

**er spricht geläufig deutsch** u nemis tilida ravon gapiradi

**gelaunt** *a* kayfiyat

**gut gelaunt sein** yaxshi kayfiyatda bo'lmoq

**was ist er heute gelaunt?** bugun uning kayfiyati qalay?

**gelb** *a* sariq, malla

**gelb werden** sarg'aymoq

**im Herbst sind die Blätter**

**gelb** kuzda barglar sarg'ayadi

**Gelbkupfer** *n* -*s* sariq mis

**gelblich** *a* sarg'ish, sariroq

**Gelbsucht** *f* = sariq kasali

**das Kind leidet an der Gelbsucht** bola sariq kasal bilan og'rigan

**Geld** *n* -(*e*)*s*, -*er* pul

**Geld verdienen** ishlab pul topmoq

**das Geld sparen** pul yig'moq

**Geld (be)zahlen** pul to'lamoq

**Geld ausgeben** pul harajat qilmoq

**Geld leihen** pul qarz bermoq (olmoq)

**das kostet viel Geld** bu qimmat turadi

**das Geld auf die Strasse werfen** pulni behuda sarf qilmoq  
**Geldanweisung** *f* =, -*en* pul o'tkazish  
**Geldaufwand** *m* -(*e*)*s* xarajat  
**Geldbestand** *m* -(*e*)*s*-stände pul fondi  
**Geldbeutel** *m* -*s*, = karmon; hamyon  
**Geldschrank** *m* -(*e*)*s*, -schränke po'lat sandiq, seyf  
**Geldstück** *n* -(*e*)*s*, -*e* tanga, miri  
**Gelegenheit** *f* =, -*en* fursat, vaqt; imkoniyat  
**j-m Gelegenheit geben** biror kishiga imkoniyat bermoq, yaratmoq  
**bei den ersten besten Gelegenheit** eng qo'lay imkoniyat bo'l-ganda  
**gelegentlich** *a* tasodifiy; munosabati bilan  
**gelegentlich gekaufte Bücher** tasodifan sotib olingan kitoblar  
**gelehrt** *a* o'qimishli, ma'lumotli  
**Gelehrte** *m, f* olim, olima  
**Geleise** *n* -*s*, = iz, temir yo'l  
**Geleit** *n* -(*e*)*s*, -*e* kuzatish, uzatish, qo'riqlab borish soqchilar bilan  
**geleiten** *vt* kuzatmoq, kuzatib qo'ymoq, uzatmoq  
**j-m zum Bahnhof geleiten** biror kishini vokzalga kuzatib qo'ymoq  
**Geleitwort** *n* -(*e*)*s*, -*e* so'z boshi  
**Gelenk** *n* -(*e*)*s*, -*e* anat. bo'g'in  
**gelenkig** *a* mohir, chaqqon; egi-luvchan  
**gelernt** *a* malakali, tajribali, o'qi-

gan, savodi bor  
**geliebt** *adv* sevimli, suyukli  
**Geliebte** *m, f* ma'shuq, ma'shuqa, yor; oshiq  
**gelingen** *vi* (*s*) muvaffaq bo'lmoq, omad kelmoq, yutuqqa erishmoq; uddasidan chiqmoq; o'ngidan kelmoq  
**Gelingen** *n* -*s* muvaffaqiyat  
**vom Gelingen dieses Problems hängt viel ab** ko'p masala bu muammoning muvaffaqiyatli hal bo'lishiga bog'liq  
**geloben** *vt* tantanali va'da bermoq; so'z bermoq  
**j-m Treue geloben** sodiqlik qasami ichmoq, qasam ichmoq  
**gelten** *vi* arzimoq; yaramoq; hisoblanmoq; ahamiyatga ega bo'lmoq; turmoq (qimmat); o'tmoq; obro'yli bo'lmoq, hurmatga sazovar bo'lmoq; tegishli bo'lmoq  
**dieser Anzug gilt 40 Mark** bu kostyum 40 so'm turadi  
**diese Karte gilt nicht** bu bilet o'tmaydi (yaramaydi)  
**sein Wort gilt etwas** uning so'zi e'tiborga sazovor  
**dieser Vorwurf gilt dir** bu ishora senga tegishli  
**er gilt für einen guten Chirurg** u yaxshi xirurg hisoblanadi  
**er gilt für gebildet** uni o'qimishli deb hisoblaydilar  
**er gilt für einen grossen Spezialisten** u katta mutaxassis hisoblanadi  
**geltend** *a* yaroqli, arziydigan,

- kuchda (amalda) bo'lgan  
**das geltene Recht** amalda (kuchda) bo'lgan huquq  
**seine Rechte geltend machen** o'z huquqidan foydalanmoq  
**einen Einfluss geltend** ta'sir etmoq  
**Geltung** *f* =, -*en* ma'no, mazmun; qimmat; *mus.* davom etishlik, uzoqlik, davomlik  
**Geltung haben** qimmatga ega bo'lmoq  
**ausser Geltung sein** kuchini yo'qotmoq  
**Gelübde** *n-s*, = va'da, ahd  
**ein Gelübde beschwören** tan-tanali va'da bermoq  
**gelungen** *a* o'ngdan kelgan, yaxshi  
**eine schnell gelungene Arbeit** tez o'ngidan kelgan ish  
**gemach** *a* tinch, osoyishta, sokin, ohista, orom  
**Gemach** *n* -(*e*)*s*, -*m*ächer xona  
**gemächlich** *a* sekin, tinch, qolay  
**ein gemächliches Leben** tinch hayot kechirmoq  
**Gemahl** *m* -(*e*)*s*, -*e* *er*, kuyov  
**Gemälde** *n-s* rasm, surat, tasvir  
**Gemäldeausstellung** *f* =, -*en* rasmlar ko'rgazmasi  
**Gemäldegalerie** *f* =, - rasmlar galereyasi  
**Gemarkung** *f* =, -*en* chegara; sarihad, viloyat, okrug  
**gemäss** *prp* (D) ... ga muvofiq, ... ga binoan, ... asosan  
**dem Befehl gemäss** buyuruqqa binoan  
**den Verdiensten gemäss** xizmatiga ko'ra  
**seinem Wunsch gemäss** uning xohishiga ko'ra  
**gemässigt** *a* o'rtacha  
**Gemäuer** *n-s*, = tosh devor  
**gemein** *a* umumiy, oddiy, odatdagi, sodda, rasmana  
**das gemeine Recht** umumiy huquq  
**der gemeine Mann** sodda odam  
**der gemeine Soldat** oddiy soldat (askar)  
**Gemeinbesitz** *m-es* ijtimoiy egalik  
**Gemeinde** *f* =, -*n* jamoa; jamiyat, tashkilot  
**Gemeindeälteste** *m* qishloq oqsoqali  
**gemeindeutsch** *a* umum nemischa  
**Gemeindeutsch** *n* =, -*s* umumiy nemis adabiy tili  
**Gemeineigentum** *n* -(*e*)*s* jamiyat mulki  
**gemeinfasslich** *a* hamma tushundigan; ommaviy  
**gemeingefährlich** *a* jamiyat uchun xavfli  
**gemeingültig** *a* umum qabul qilingan  
**Gemeingut** *n* -(*e*)*s*, ijtimoiy mulk, jamiyat boyligi  
**das Gemeingut des Volkes** xalq boyligi  
**die Sprache ist das Gemeingut der Nationen** til millat boyligidir  
**Gemeinheit** *f* =, -*en* razillik, pastkashlik

- eine Gemeinheit begehen, sich (D) eine Gemeinheit zuschulden kommen lassen** razillik qilmoq
- Gemeinkosten** *pl* umumiy xarajatlar
- gemeinnützig** *a* umumfoydali, umummanfa'atli
- Gemeinplatz** *m -es, -plätze* umumiy joy
- gemeinsam** *a* umumiy, yalpi; birga, birgalikda, qo'shma
- mit j-m gemeinsame Sache machen** biror kishi bilan birgalikda ish qilmoq (bajarmoq)
- Gemeinschaft** *f =, -en* umumiylik, birlik; bir xillik; hammaga oidlik, uyushma, hamjihatlik hamdo'stlik
- gemeinschaftliche Fürsorge** sotsial ta'minot
- gemeinschaftlich** *a* umumiy, hammaga xos; o'zaro
- Gemeinschaftsarbeit** *f =, -en* umumiy, jamoa, ijtimoiy mehnat
- Gemeinschaftserziehung** *f =* birgalikdagi tarbiya, birga olib borilgan tarbiya
- Gemeinschaftsübung** *f =, -n* guruh bo'lib mashq qilish (gimnastika)
- Gemeinsinn** *m -(e)s* birdamlik ruhi
- Gemeinwesen** *n -s, =* jamoatchilik, kommuna;
- Gemeinwirtschaft** *f =, -* umumiy xo'jalik, umumxo'jalik
- gemerkt** *a* belgi qoyilgan, tamg'a bosilgan
- Gemisch** *n -es, -e* aralashma, qotishma; yonilg'i aralashmasi
- gemischt** *a* aralashtirilgan, aralashgan; qo'shilgan
- Gemischtwaren** *pl* aralash mollar, galanteriya mollari
- Gemischtwarenhandlung** *f =, -en* oziq-ovqat magazini (do'koni)
- gemittet** *a* markazlashgan
- Gemüse** *n -s, =* sabzavot, ko'kat
- Gemüsebau** *m -(e)s* polizchilik, sabzavotchilik
- Gemüseladen** *m -s,* sabzavot do'koni
- Gemüt** *n -(e)s, -er* xulq, atvor, dil, ko'ngil, qalb
- Gemütsart** *f -es, -en* xarakter, temperament
- gemütlich** *a* shinam, fayzli, yoqimli; dilkash; qo'lay
- gemütvoll** *a* samimiy, dilkash, jondan
- Gen** *n-s, -e biol.* gen (hayvon yoki o'simlik organizmidagi irsiyat faktori, irsiyatning elementar birligi)
- genagelt** *a* mixlangan, mix qoqilgan
- genannt** *part II* atalgan, nomlangan
- genau** *a* aniq; to'g'ri, xuddi; mutloq; tekis; singari
- genau drei Kilo wiegen** rosa uch kilo tortmoq
- genaugenommen** *adv* aslida, to'g'risini aytganda
- Genauigkeit** *f =* aniqlik, to'g'rilik
- einen Antrag genehmigen** taklifni ma'qullamoq, taklifiga



- qoʻshilmoq
- Genauigkeitsgrad** *m* -(e)s, -e aniqlik darajasi
- genauso** *adv* xuddi shunday
- genehm** *a* yoqimli, yoqadigan
- genehmigen** *vt* ruxsat bermoq; maʼqullamoq; rozi boʻlmoq
- einen Antrag genehmigen** taklifni maʼqullamoq, taklifga qoʻshilmoq
- geneigt** *a* moyil; havasmand
- General** *m* -s, -e-räle general
- Generaldirektor** *m* -s, -toren bosh direktor
- Generale** *n* -s hamma uchun majburiy boʻlgan, hamma boʻysinadigan
- Generalkonsul** *m* -s, -n bosh konsul
- generalisieren** *vt* umumlashtirmoq
- Generalnenner** *m* -s, = *mat.* umumiy maxraj
- Generalprobe** *f* =, -n umumiy repetitsiya (koʻrik)
- Generalstreik** *m* -(e)s, -e umumiy (yalpi) ish tashlash
- Generalversammlung** *f* =, -en umumiy majlis (Bosh Assambleya)
- Generation** *f* =, -en avlod
- von Generation zu Generation** avloddan-avlodga
- generell** *a* *biol.* uquqqa oid; urugʻdosh; avloddan-avlodga oʻtib kelgan
- genesen** *vi* (s) sogʻaymoq, sogʻayib ketmoq, tuzalmoq
- Genie** *n* -s, -s daho, dohiy, genial, buyuk odam (shaxs)
- geniessbar** *a* yeiladigan, esa boʻladigan, yeishli
- geniessen** *vt* rohat qilmoq, huzur qilmoq, foydalanmoq
- er genießt schöne Musik** u yaxshi musiqadan rahotlanadi
- Genitalien** *pl* jinsiy organlar
- Genosse** *m* -n, -n oʻrtoq, doʻst
- der Genosse seines Lebens** uning umr yoʻldoshi
- Genossenschaft** *f* =, -en oʻrtoqlik, birodarlik; artel, kooperativ; uyushma, hamkorlik, birdamlik, shirkat
- Mitglied der Genossenschaft** uyushma aʼzosi
- genossenschaftlich** *a* sheriklik, sherikchilik
- genötigt** *a* majburiy, noilojlik orqasidan
- Genre** *n* -(e)s, -er janrli rasm; sanʼat asarining turi; turmush manzaralarini aks ettirgan badiiy asar, rasm
- Genrekunst** *f* = manzarali rasm (janr)
- genug** *adv* yetarli; ancha, xiyla; bas, bas endi; yetar, boʻldi
- genügen** *vi* qanoatlanarli, qoniqarli, yetarli; qanoatlantirmoq
- das genügt mir nicht** menga bu kam, yetarli emas
- das genügt für meine Zwecke** mening maqsadim uchun bu yetarli
- genügend** *a* yetarli, qanoatlantirarli
- genügend Zeit (Geld) haben** yetarli vaqtga (pulga) ega boʻl-

- moq  
**eine genügende Note** qanoat-  
 lanarli baho, (qoniqarli)  
**genügsam** *a* kamtar, kamsuqum;  
 hokisor  
**genügtun** *vi* (D) qoniqtirmoq, qa-  
 noatlantirmoq; qoniqtirmoq;  
 ta'minlamoq  
**Genus** *n* =, -nera *biol.* nasl, avlod;  
 qabila, urug', qavm  
**Genuss** *m* -*sses*, -*nüsse* rohatlanish,  
 huzur qilish; maza qilish; ta'-  
 minlash; iste'mol qilish  
**der übermässige Genuss von  
 Zucker ist schädlich** qandni  
 ko'p iste'mol qilish zararli  
**Geoid** *n* -(*e*)*s* geoid (Yerning asl  
 shakli)  
**Gepäck** *n* -(*e*)*s*, -*e* bagaj; yuk  
**Gepäckaufbewahrungsraum** *m*  
 -(*e*)*s*, -*räume* yuk saqlanadigan  
 joy, (bino)  
**Gepäckausgabe** *f* =, -*n* yukni be-  
 rish joyi  
**Gepfeife** *n* -*s* xushtak  
**gepfeffert** *a* o'tkir, achchiq; garm-  
 dori  
**gepfefferte Suppe** achchiq  
 sho'rva  
**Gepolter** *n* -*s* guldirash  
**das Gepolter Donners** moma-  
 qaldiroqning guldirashi  
**gerade** *a* to'g'ri; *mat.* juft son,  
 nisbat; tekis  
**eine gerade Linie** to'g'ri chiziq  
**eine gerade Antwort** to'g'ri ja-  
 vob  
**etw. gerade heraussagen** biror  
 narsani to'g'ri aytib bermoq  
**gerade heute** xuddi shu bugun  
**Gerade** *f* = *mat.* to'g'ri chiziq  
**geradeaus** *adv* to'ppa-to'g'ri  
**gerade gehen** to'g'ri bormoq  
**geradesehen** to'g'riga qaramoq  
**die Wahrheit geradesagen**  
 haqiqatga tik bormoq, haqiqatni  
 ochiq qilib aytmoq  
**gerademachen** *vt* to'g'rilamoq,  
 roslamoq  
**geradesitzen** *vi* to'g'ri o'tirmoq  
**geradeso** *adv* xuddi, aynan; xuddi  
 o'zi; ya'ni; shuningdek  
**geradesogut** *adv* shunday muvaf-  
 faqiyat bilan  
**geradewegs** *adv* to'g'ri, to'g'ri  
 yo'l bilan  
**Geradheit** *f* = to'g'rilik; rostgoy'-  
 lik; to'g'ri so'zlik, ochiq ko'ngil-  
 lilik, sofdillik, samimiyylik; *mat.*  
 juftlik, sonlarning juftligi  
**geradelinig** *a* to'g'ri chiziqli  
**geradsinnig** *a* ochiq ko'ngilli,  
 sofdillik  
**geradwinklig** *a* to'g'ri burchakli  
**geradzahlig** *a* *mat.* juftlik, juft  
 sonli  
**Gerät** *n* -(*e*)*s*, -*e* asbob, uskuna;  
 apparat; jihoz, asbob-anjom  
**geraten** *vi* (*s*) ... da bo'lmoq, tu-  
 shib qolmoq  
**Geratewohl** *n*: **aufs Geratewohl**  
 tavakkal, tavakkaliga  
**geräuchert** *a* dudlangan  
**geraucherte Wurst** dudlangan  
 kolbasa, qazi  
- halblaut** *adv* yarim ovoz
- halblebendig** *a* chala jon; na tirik, na o'lik
- Halbleiter** *m -s, =* yarim o'tkazgich
- Halbmesser** *m -s, = mat.* radius; yarim o'tkazgich
- halbmonatig** *a* yarim oylik, ikki haftalik
- Halbmond** *m -(e)s, -e* yarim oy
- halbnackt** *a* yarim yalog'och
- Halbring** *m -(e)s, -e* yarim aylana
- Halbschuhe** *pl* qo'njsiz botinka
- halbstündig** *a* yarim soatli
- halbstündlich** *a* har yarim soatda takrorlanib turadigan
- halbtags** *adv* kunning ikkinchi yarimida
- Halbweise** *f =, -n* yarim (chala) yetim (otasiz yoki onasiz)
- halbwegs** *adv* yarim yo'lda

- Halbweltergewicht** *n* –(e)s, -e yen-gil oʻrta yarim vazn (boks)
- Hälfte** *f* =, -n yarim, yarimta
- Halle** *f* =, -n katta zal; pasaj; yopiq bozor, qatorlar
- hallen** *vt* tovush chiqarmoq
- Halm** *m* =, -en poya, tana
- Halmfrüchte** *pl* boshqoli oʻsimliklar
- Halo** *m* =, -s *astr.* galo
- Haloid** *n* –(e)s, -e *xim.* galogen, galoid (ximiyaviy elementlar gruppasi)
- Halometer** *n* –s, = *xim.* galometr
- Hals** *m* –es boyin, tomoq; boʻgʻiz; *mus.* grif (cholgʻu pardasi)
- der Hals tut mir weh** tomogʻim ogʻriyapti
- Halsabschneider** *m* –s, = kallakesar; kazzob, gazanda
- Halsband** *n* –(e)s, -bänder boʻyimbogʻ; shoda marjon, munchoq
- Halsbräune** *f* = angina, tomoq oʻrigʻi
- halsbrecherisch** *a* juda xavfli
- Halschmerzen** *pl* tomoq ogʻrigʻi
- er hat Halschmerzen** uning tomogʻi ogʻriyapti
- Halstuch** *n* –(e)s boʻyimbogʻ, boʻy in rumoli; galstuk; uchburchak rumol; qiyiq
- halt!** Toʻxta!
- Halt** *m* –(e)s tayanch, suyanch; quvvatlash; saqlash; mustahkamlik
- halten** *vt* ushlab turmoq, tutib turmoq, saqlamoq; rioya qilmoq
- sauber halten** toza tutmoq
- kühl halten** sovuqda (salqinda) saqlamoq
- Frieden halten** tinchlikda yashamoq
- einen Eid halten** qasamga rioya qilmoq
- Halten** *n* –s toʻxtash, ushlab qolish, toʻxtatib turish
- Haltepunkt** *m* –(e)s, -e toʻxtash joyi, kichik temir yoʻl stantsiyasi
- Halter** *m* –s, = ruchka; tutqich, qisqich; tirgak, tirgovich, ayri
- Haltestelle** *f* =, -n bekat, toʻxtash joyi
- haltig, hältig** *a* boy (ruda haqida)
- haltlos** *a* toʻxtatib boʻlmaydigan; tuturiqsiz, betayin; asoslanmagan
- haltmachen** *vi* toʻxtatmoq, toʻxtalmoq
- Haltung** *f* =, -en qarash, munosabat; (siyosiy) yoʻnalish (oqim); pozitsiya, mavqe, tutgan oʻrni; rioya (amal) qilish
- Halunke** *m* –n, -n yaramas, muttahaam, razil
- Hamburg** *n* Gamburg shahri
- hämisch** *a* yovuz, yomon, serjahil, achchigʻi tez
- Hammel** *n* –s, = qoʻy
- Hammelfleisch** *n* –es qoʻy goʻshti
- Hammer** *m* –s bolgʻa
- hämmerbar** *a* toblanmoq, bolgʻalanmoq
- hammern** *vt* bolgʻalamoq, bolgʻa bilan urmoq; taqillatmoq
- wie hammert mir das Herz!** yuragim bezovta boʻlib urayo-

- tibdi
- Hand** *f* = qo‘l, (kift) yozuv, xat
- ein Kind an der Hand führen** bolaning qo‘lidan ushlab olib bormoq
- mit der Hand winken** qo‘l bilan imlab chaqirmoq
- j-m die Waffe aus der Hand schlagen** biror kishini qurolsizlantirmoq
- das ist nicht meine Hand** bu mening xatim (qo‘lim) emas
- j-s rechte Hand sein** biror kishining o‘ng qo‘li bo‘lmoq
- Handarbeit** *f* =, -*en* qo‘l ishi, qo‘l mehnati; qo‘lda bajarish
- Handatlas** *m* =, -*lant* stol ustida turadigan atlas
- Handball** *m* -(*e*)*s sport*. qo‘l to‘pi
- handbreit** *a* kaft kengligi
- Handbuch** *n* -(*e*)*s* ma‘lumotnoma, spravochnik; qo‘llanma
- Händedruck** *m*-(*e*)*s*, -*drücke* qo‘l berish, ko‘rishish
- einen Händedruck wechseln** qo‘l berishmoq
- Händeklatschen** *n* -*s* olqishlar, chapaklar, qarsaklar
- Handel** *m* -*s* savdo, oldi-sotdi; kelishuv, bitim
- sich in einen Handel einlassen** biror kishi bilan kelishmoq
- handeln** *vi* savdo qilmoq; ish qilmoq, ta‘sir qilmoq, amal qilmoq, muzokaralar olib bormoq, ahdlashmoq
- Händel** *pl* janjal, g‘ovg‘a
- händeln** *vi* harakat qilmoq; muhkama qilmoq, fikr yurgizmoq;
- savdolashmoq
- gegen ein Gesetz händeln** qonunga xilof harakat qilmoq
- wie ein Bruder an j-m händeln** biror kishiga akadek muomalada bo‘lmoq
- dieses Buch händelt von neuen technischen Erfindungen** bu kitobda yangi texnik ixtirolar haqida fikr yuritiladi
- Handelsabkommen** *n*-*s*, = savdo bitimi
- Handelsbeziehungen** *pl* savdosotiq munosabatlari (aloqalari)
- die Ausweitung der Handelsbeziehungen** savdo aloqalarini kengaytirmoq
- Handelsorganisation** *f* =, -*en* savdo tashkilot, davlat korxonasi
- Handelsvertrag** *m* -(*e*)*s*, -*träge* savdo shartnomasi
- handeltreibend** *a* savdo bilan shug‘ullanadigan
- Handelsfreiheit** *f* =, -*en* erkin savdo
- Handvertigkeit** *f* =, -*en* epchillik, ustalik
- handfest** *a* mustahkam, qattiq, kuchli
- Handfläche** *f* =, -*n* qo‘l kafti
- Handgepäck** *n* -(*e*)*s*, -*e* qol yuki
- handgerecht** *a* qulay, qo‘l keladigan
- handgreiflich** *a* ishonchli, ishonarli
- Handgriff** *m* -(*e*)*s*, -*e* qabul
- handhaben** *vt* ega bo‘lmoq, muomala qilmoq
- das Recht handhaben** qonun-

- dan foydalanmoq
- Handkarren** *m -s*, = zambilgʻal-tak
- Handkoffer** *m -s*, = jamodon
- Händler** *m -s*, = savdogar, olibso-tar, doʻkondor
- Handlung** *f =, -en* ish, harakat, muomala; taʻsir, taassurot; sav-do
- Handlungsweise** *f =, -n* xatti-hara-kat, harakat usuli
- Handschlag** *m -(e)s, -schläge* qol zarbi, qoʻl bilan urish
- Handschrift** *f =, -en* yozuv; qoʻl yozma
- Handschuh** *m -(e)s, -e* qoʻlqop
- Handtasche** *f =, -n* sumka
- Handtuch** *n -(e)s* sochiq  
**im Handtuch seine Arbeit be-enden** bir onda ishini tamom qilmoq
- Handvoll** *f =* hovuch, siqim  
**eine Handvoll Zucker** bir hovuch shakar
- Handwerk** *n =, -en* hunar, kasb
- Handwerker** *m* hunarmand, kosib
- Handwerksbursche** *m -n, -n* shogird
- Handwörterbuch** *n -(e)s, -* bücher stol lugʻati, ommabop lugʻat, ish lugʻati
- Handzeichnung** *f =, -en* dastxat, imzo, qoʻl qoʻyish
- Hang** *m -(e)s, -Hänge* nishab, qiyalik, yon bagʻir; muhabbat, mayl, havas, layoqat
- Hängebahn** *f =, -en* osma temir yoʻl
- Hängeboden** *m -s*, = soʻri, taxta
- supa
- Hangematte** *f =, -n* toʻr, belan-chak
- hängen** *vi (s, h)* osilib turmoq, ilinib turmoq; davom etmoq  
**der Prozess hängt noch** jarayon hali davom etmoqda
- hängenbleiben** *vi (s)* osilmoq, osilib qolmoq, ilinib qolmoq
- hängen** *vt* osmoq, ilmoq, osib qoʻymoq
- hängenlassen** *vt* qoldirmoq, bi-ror joyda unitib qoldirmoq
- Hanswurst** *m -es, -e* qiziqchi, masxaraboz
- Hantel** *f =, -n* gantel, qadoqtosh, tarozi toshi
- hapern** *vi* yetmaslik, yetishmaslik, qiyinchilik
- happig** *a* ochkoʻz, suq, taʻmagir  
**sei nicht so happig!** Bunday ochkoʻz boʻlma!
- Harem** *m -s, -s* haram
- Harke** *f =, -n* xaskash
- harken** *vt* xaskashlamoq, toʻp-lamoq, yigʻishtirmoq
- Harm** *m -(e)s* alam; xafalik, qaygʻu, iztirob, ozor, ranj  
**j-m Harm zufügen** biror kishi-ni ranjitmoq  
**betterer Harm** ogʻir qaygʻu
- härmen, sich** *vt* qaygʻurmoq  
**sich zu Tode härmen** qaygʻu-dan oʻlmoq
- harmlos** *a* beozor, zararsiz, yuvosh
- harmonieren** *vi* mos boʻlmoq, muvofiq boʻlmoq, munosib boʻlmoq

- die Farben (Bauarten) harmonieren miteinander** ranglar, boʻyoqlar bir-biri bilan mos tushadi
- harnsauer** *a xim.* kislotali siydik
- Harnsäure** *f = xim.* siydik kislotasi
- Harnstoff** *m -(e)s xim.* karbamid (siydik tarkibidagi kristal)
- hart** *a* qattiq, qiyin; qattiq qoʻl, qahrli; shiddatli, keskin
- hart wie Stein** toshdek qattiq
- das ist eine harte Nuss** bu qiyin masala
- Härte** *f =, -n* rahmsizlik, shafqatsizlik, zolimlik, qattiq koʻngillik, bagʻri tosh; pishiqlik
- Härtegrad** *m -(e)s, -e* qattiqlik darajasi
- Hartgeld** *n -(e)s* jarangli tanga, metal (temir) pul
- harten** *vt* toblamoq, chiniqtirmoq, mustahkamlamoq
- hartherzlich** *a* berahm, shafqatsiz
- harthörig** *a* qulogʻi ogʻir, garang
- hartnackig** *a* oʻjarʻoʻzbilarmon
- eine hartnackige Krankheit** tuzalmas kasal, ogʻir dard, bedavo
- Harz** *n -es, -e* smola, qatron, yogoʻch yelimi; Garts shahri
- harzig** *a* qatron
- Hase** *m -n, -n* quyon; qoʻrqoq
- hasenherzig** *a* qoʻrqinchli, quyon yurak
- Hass** *m -sses* nafrat, yomon koʻrish, dushmanlik
- hassen** *vt* yomon koʻrmoq, nafratlanmoq; jirkanmoq
- hässlich** *a* xunuk, yomon; badbashara
- hauen** *vi* kesmoq, yormoq; oʻrmoq (oʻtni), urmoq
- Hast** *f =* shoshilish, hovliqish
- Haufen** *m -s, =* toʻda, uyum, toʻp; alomon
- ein Haufen Steine** tosh uyumi
- ein Haufen Menschen** bir toʻda odamlar
- haufenweise** *a* toʻda-toʻda boʻlib, toʻp-toʻp bolib
- häufig** *a* tez-tez boʻladigan, ketma-ket, koʻpincha
- Häufigkeit** *f =* chastotalik, chastota, takrorlanish darajasi; *mat.* koʻp hadlik
- Haupt** *n -(e)s* bosh; boshliq
- das Haupt hoch tragen** boshni baland koʻtarib, gerdayib yurmoq
- Hauptaufgabe** *f =, -n* bosh vazifa, asosiy topshiriq (masala)
- Hauptgattung** *f =, -en* asosiy koʻrinish, nasl, asosiy tarkib; tur, uslub, janr
- Hauptnenner** *m -s, = mat.* umumiy maxraj
- Hauptsache** *f =* eng muhim, eng zarur masala
- hauptsächlich** *a* asosan, hammadan avval; eng muhim, ayniqsa, xususan
- Hauptsatz** *m -es* bosh gap; *mat.* asosiy tenglama; qonun
- Hauptstadt** *f =, -städte* poytaxt, markaz
- Hauptschuldige** *m, f* bosh aybdor
- Hauptrohlen** *pl* sanoq sonlar
- Hauptzahlen** *pl* sanoq sonlar
- Haus** *n -es* uy, bino, imorat, qu-

- rilish; palata, parlament  
**das Weisse Haus** Oq uy  
**zu Hause** uyda  
**nach Hause** uyga  
**aus dem Hause gehen** uydan chiqmoq  
**Hausangehörige** *pl* oila a'zolari  
**Hausangestellte** *f*=uy xizmatchisi  
**Hausaufgabe** *f* =, -*n* uy vazifasi  
**Hausbesitzer** *m* -*s*, = uy egasi  
**Hausbewohner** *m* -*s*, = uyda yashovchi odam  
**ein landliches Häuschen** shahardan tashqarida bo'lgan kichik uy  
**hausen** *vt* yashamoq, turmoq; xo'jalikni boshqarmoq  
**Hausflur** *m* -(*e*)*s*, -*e* dahliz  
**Hausfrau** *f* =, -*en* uy bekasi  
**Hausgerät** *n* -(*e*)*s*, -*e* uy anjomi  
**Haushalt** *m* -(*e*)*s*, -*e* uy xo'jaligi, uy ro'zg'or ishlari; byudjet  
**haushalten** *vi* xo'jalikni boshqarmoq; iqtisod qilmoq  
**haushälterisch** *a* ehtiyotkor, tejamkor, tejamli, saqlaydigan  
**Hausindustrie** *f* = hunarmandchilik sanoati  
**Haussuchung** *f* =, -*en* tintuv  
**Haut** *f* = teri, charm, ko'n  
**häuten** *vt* terisini shilmoq  
**Havarie** *f* =, -*rien* avariya; ha-lokat  
**eine schwere Havarie** katta avariya  
**Hebamme** *f* =, -*n* akusher ayol, doya  
**Hebel** *m* -*s*, =, = richag  
**heben** *vt* ko'tarmoq; oshirmoq; olmoq; tuzatmoq, ajratmoq, *mat.* qisqartirmoq, ko'paytirmoq  
**Heber** *m* -*s*, = ko'targich; *fiz.* liver (suyuqlikni so'rib olish uchun ishlatiladigan nay); *sport.* shtangachi  
**Hebevorrichtung** *f* =, -*en* ko'tarish mexanizmi, ko'tarish qurilmasi  
**Hecke** *f* =, - buta, g'ov, chakalak, ixota  
**hecken** *vt, vi* tuxum bosib bola ochmoq  
**Heckenrose** *f* =, -*n* na'matak  
**Heer** *n* -(*e*)*s*, -*e* quruqlikdagi qo'shinlar; armiya; ko'pchilik, bir talay  
**Heeresversorgung** *f* =, -*en* armiyani ta'minlash  
**Heerführer** *m* -*s*, = harbiy boshliq  
**Hefe** *f* =, -*n* xamirturish, achitqi; quyqum, durda  
**Heft** *n* -(*e*)*s*, -*e* daftar, nomer  
**das dritte Heft der Zeitschrift** jurnalning uchinchi nomeri  
**heften** *vt* biriktirmoq; ko'klam, ko'klab qo'ymoq; xujjatlarni tikib qoymoq  
**heftig** *a* kuchli, qattiq; shiddatli, rahmsiz; yomon; dag'al, qo'pol, qo'rs, serjahl  
**Hegemonie** *f* =, -*nien* gegemoniya, boshchilik  
**hegen** *vt* avaylab saqlamoq, qo'riqlamoq, asramoq  
**hehlen** *vt* yashirmoq, bekitmoq, sir saqlamoq  
**hehr** *a* ulug'vor, hashamatli; muqaddas, tabaruk, qutlug'; viqorli, salobatli



- Heide** *f* –*n*, –*n* bo‘sh yer, bekor yotgan yer, qarovsiz yer; o‘tloq, yaylov, chamanzor, qir
- Heidentum** *n* –(*e*)*s* budparast, majusiy
- heil** *a* butun; qo‘l tegmagan, yaxlit; ziyon yetmagan, zararsiz
- Heilanstalt** *f* =, –*en* shifoxona, davo maskani; kasalxona
- heilbar** *a* tuzaladigan, sog‘ayib ketadigan
- heilen** *vt* davolamoq, tuzatmoq, tuzalib ketmoq, yaxshi bo‘lib ketmoq
- der Kranke ist geheilt** kasal (bemor) tuzalib ketdi
- heilig** *a* muqaddas; aziz; hurmatli; ilohiy, diniy
- Heiligenbild** *n* –(*e*)*s*, –*er* ikona (but, sanam) rasm, obraz
- Heiligenmaler** *m* –*s*, = ikonalar chizuvchi rassom
- Heiligenmalerei** *f* =, –*en* ikonalar chizish san‘ati
- Heiligtum** *n* –(*e*)*s*, –*tü*mer muqaddas (aziz) joy
- heilkräftig** *a* shifoli, davo bo‘ladigan
- Heilkraut** *n* –(*e*)*s* dorivor o‘t, giyoh
- Heilkunde** *f* = meditsina, tibbiyot fani; terapeya
- heillos** *a* dahshatli, qo‘rqinchli
- Heilmittel** *n* –*s*, = dori, dori-darmon
- heim** *adv* uyga, vatanga
- Heim** *n* –(*e*)*s*, –*e* uy, joy, yotoqxona
- Heimabend** *m* –(*e*)*s*, –*e* kecha; ma‘daniy tadbir
- Heimat** *f* =, –*en* vatan; yurt, el, diyor; tug‘ilgan joy
- Heimatberechtigung** *f* =, –*en* fuqoralik huquqi
- Heimatboden** *m* –*s* ona zamin
- Heimfahrt** *f* =, –*en* vatanga (tug‘ilgan joyga) ketish
- die Heimfahrt antreten** o‘z vataniga jo‘namoq
- Heimatsforscher** *m* –*s*, = o‘lkashunos, o‘lkani o‘rganuvchi
- Heimatland** *n* –(*e*)*s* Ona-Vatan, el-yurt
- heimatlich** *a* vatanga oid
- Heimatkehr** *f* =, –*en* qaytish, qaytib kelish
- Heimatmuseum** *n* –*s* o‘lkashunoslik muzeyi
- Heimatschein** *m* –(*e*)*s*, –*e* guvohnoma (tug‘ulgan joyidan berilgan)
- heimatlos** *a* yetim-yesir, ota-onasi yo‘q; uy-joysiz; bevatan; g‘arib
- heimbedürftig** *a* yashash uchun joyga muhtoj kishi
- heimbegeben, sich** uyga jo‘namoq (vatanga)
- heimbegleiten** *vt* uyga kuzatib qo‘ymoq
- heimeilen** *vi*(*s*) uyga (vatanga) shoshilmoq
- heimgehen** *vi*(*s*) uyga qaytmoq, bormoq; o‘lmoq, vafot etmoq
- heimisch** *a* xonaki, uydagi; qarindosh, tug‘ishgan, o‘z
- heimkehren** *vi* uyga (vatanga) qaytmoq
- heimlich** *a* maxfiy, yashirin; sirli, pinxona

- auf heimliche Weise** yashirincha, maxfiy
- heimlichtun** *vi* sir bekitmoq, sir yashirmoq
- heimtragen** *vt* uyga (qaytarib) olib kelmoq
- heimtückisch** *a* ahdini buzuvchi, beburd, oʻz soʻzida turmaydigan; ayyor
- heimwärts** *a* uyga, vatanga
- Heimweh** *n* -(e)s vatanni sogʻinish, qumsash
- Heirat** *f* =, -en nikoh, uylanish, turmush qilish
- heiraten** *vi, vt* uylanmoq, turmushga chiqmoq (erga tegmoq)
- jung heiraten** erta uylanmoq, erta turmushga chiqmoq
- heiser** *a* xirillagan, xir-xir qilgan
- heiss** *a* issiq; qaynoq
- es läuft mir heiss und kalt über den Rücken** men goh isib, goh sovub ketyapman
- heissen** *vt* atamoq, atalmoq, aytilmoq; nomlanmoq; bildirmoq, maʼno bermoq, demak
- es heisst ...** aytishlaricha ...
- wie heisst du?** Sening isming nima?
- was heisst das auf usbekisch?** buning maʼnosi oʻzbekcha qanday boʻladi?
- Heiss hunger** *m* -s ishtahasi (ochilgan) karnay
- heiss hungrig** *a* juda och; ochkoʻz, xasis, qizgʻonchiq
- heiter** *a* xursand, shod-xurramlik
- das Himmel wird heiter** havo ochilyapti
- heizbar** *a* isitadigan, isitiladigan
- heizen** *vt* isitmoq, iliq qilmoq
- Heizkessel** *m* -s, = isitish pechi
- Heizkörper** *m* -s, = markaziy isitish batareyasi
- Heizkräfte** *f* = fiz. issiqlik (berish) chiqarish quvvati
- Heizölpumpe** *f* =, -n yonilgʻi nasosi
- Heizstoff** *m* -(e)s, -e yoqilgʻi, yonilgʻi
- hektisch** *a* holdan toyish, (tuberkulyoz, sil kasalligi tufayli)
- Hektowatt** *n* -s, = fiz. gektovat
- Held** *m* -en, -en qahramon, botir
- Heldenlied** *n* -(e)s, -er qahramonlar haqida qoʻshiq
- heldenmütig** *a* qahramona, qahramonlik; shonli, shavkatli; jasur, mard
- Heldentod** *m* -(e)s, -e qahramonona oʻlim
- Heldentod fürs Vaterland sterben** vatan uchun qahramonona halok boʻlmoq (jon bermoq)
- helfen** *vi* yordam bermoq; qarashmoq; koʻmaklashmoq
- j-m in der Not helfen** biror kishi muhtoj boʻlganida unga yordam qilmoq
- Heliograph** *m* -en, -en *astr.* gelio- graf (Quyoshni suratga oluvchi fotoapparatli teleskop)
- Helimeter** *n* -s, = *astr.* geliometr (osmon yoritqichlarining diametrini, yoritqichlar orasidagi kichik burchaklarni oʻlchaydigan asbob)
- Helium** *n* -s (xim.bel. He) geliy

- (ximyaviy element)
- hell** *a* tiniq, och rang; yorug‘, ravshan
- ein helles Grün** oq-yashil rang
- helle Augenblicke haben** qisqa vaqt ichida es-xushiga kelmoq
- helläugig** *a* ko‘zi charaqlagan; shahlo ko‘zli
- hellblau** *a* havo rang, och havorang
- hellblond** *a* oqish rang
- hellbraun** *a* och malla rang
- helledunkel** *a* yarim yoritilgan, nim qarong‘i; g‘ira-shira
- Hellene** *m -n, -n* ellin, yunon
- hellenisch** *a* ellinlarga oid, qadimgi ellin (yunon)larga oid
- hellfarbig** *a* ochiq rang, rangdor
- hellgelb** *a* och sariq, sarg‘ish
- hellhörig** *a* yaxshi eshitadigan
- hellhörig sein** yaxshi eshitish qobiliyatiga ega bo‘lmoq
- hellicht** *a* juda yorug‘
- bei hellicht am Tage** kuppakunduz kuni
- hellsehend** *a* oldindan ko‘raoladigan, o‘tkir aqlli; ziyrak; xushyor
- Hellseher** *m -s, =* oldindan ko‘ruvchi, bashorat qiluvchi, karomat qiluvchi
- hellstrahlend** *a* nurofshon, porloq, munavvar
- Hemd** *n -(e)s, -en* ko‘ylak
- Alles bis aufs Hemd verlieren** hammasini yo‘qotmoq, qupquruq bo‘lib qolmoq
- Hemdsärmel** *m -s, =* ko‘ylak yengi
- Hemisphäre** *f =, -n* yarim shar, yarim sfera
- hemmen** *vt* to‘xtatmoq; tosqinlik qilmoq, xalaqit bermoq
- Hemmkete** *f =, -en* tormoz (to‘xtatish) zanjiri
- Hemmung** *f =, -n* tormoz zanjiri; to‘xtalib turish, to‘xtash; to‘sqinlik
- hemmunglos** *a* to‘sqinsiz, qarshiliksiz
- Henkel** *m -s, =* band, dasta
- henken** *vt* osmoq, ilmoq; kimnidir osmoq
- Henker** *m -s, =* jallod, zolim
- Henkermahlzeit** *f =, -en* o‘limga hukm qilingan kishining oxirgi tushligi
- Heptagon** *n -s, -e* yetti burchak
- her** *adv* bu yoqqa; fazo; vaqt ma’nosida
- hin und her** u yoqqa, bu yoqqa
- von aussen her** tashqaridan
- von oben her** yuqoridan
- ring um uns her** bizning atrofigimizda
- Geld her!** Pul ber!
- von früher her, von alters** uzoq vaqtlardan beri
- einen Monat her** bir oy ilgari
- herab, heran** *adv* pastga
- her- fe’lning** ajraladigan old qo‘shimchasi
- herabdrücken** *vt* pasaytirmoq; pastroq tushirmoq
- herabfallen** *vi (s)* tushmoq, yuqoridan tushmoq, to‘kilmoq (barg)
- herabfliegen** *vi (s)* uchib tushmoq, uchib ketmoq
- herabgehen** *vi (s)* pastga tushmoq;

- pasaymoq; kamaymoq
- herabhängen** *vi* osilib turmoq, pastga qarab turmoq, osilib tushmoq
- die Haare hängen ihr ins Gesicht herab** uning sochlari yuziga tushib turibdi
- herabgesetzt** *a* pasaygan, narxi tushgan
- herabmindern** *vt* kichraytirmoq, qisqartirmoq, pasaytirmoq, kamaytirmoq
- herablassen** *vt* pastga tushirmoq
- herabschliessen** *vt* otmoq, o‘q otib yarador qilmoq
- herabsehen** *vi* pastga (tepadan) qaramoq
- Herabsetzung** *f* =, - pasayish, qisqarish
- herabsinken** *vi (s)* botmoq, cho‘kmoq; kirmoq
- die Nacht sank herab** kech kir-di (kech bo‘ldi), qosh qoraydi
- herabsteigen** *vt (s)* yuqoridan pastga tushmoq
- heran-** *fe’lning ajraladigan old qo‘shimchasi*
- heran** *adv* oldinga; yaqiniga; bu yoqqa; bu tomonga
- heranbilden** *vt* o‘qitmoq, o‘rgatmoq
- Heranbildung** *f* = o‘shish, ulg‘ayish, rivojlanish; tayyorlash, o‘rgatish
- heranfliegen** *vi(s)* uchib kelmoq, uchib kelib qo‘nmoq
- herangehen** *vi (s)* yaqiniga kelmoq, yaqinlashmoq
- herankommen** *vi (s)* yaqinlashmoq
- heranlassen** *vt* yaqin keltirmoq, yaqin yo‘latmoq
- heranmachen**, *sich* kirishmoq, boshlamoq; yaqinlashmoq
- heranrücken** *vt* yaqinroq surmoq, surib qo‘ymoq
- herantreten** *vi (s)(an+ A)* yaqiniga kelmoq; murojaat qilmoq
- heranwachsen** *vi (s)* ulg‘aymoq, o‘smoq; bo‘y yetmoq
- heranwagen**, *sich* tavakkal qilmoq, tavakkal qilib biror narsaga yaqinlashmoq (erishmoq)
- heranziehen** *vt* jalb qilmoq, tortmoq
- herauf** *adv* yuqoriga, balandga, tepaga
- herauf-** *harakatni pastdan yuqoriga ko‘rsatadigan fe’lning ajraladigan old qo‘shimchasi*
- heraufarbeiten**, *sich* o‘z kuchi bilan ko‘tarilmoq; surilmoq, tortilmoq, siljimoq
- heraufbeschwören** *vt* chaqirmoq
- herauffahren** *vt* tepaga olib bormoq; tepaga ko‘tarilmoq
- heraufhelfen** *vi* yuqoriga chiqqishga yordam bermoq
- heraufkommen** *vi (s)* chirmashib chiqmoq
- heraufrücken** *vt* yuqoriga itarmoq (chiqarmoq), siljitmoq
- heraus** *adv* tashqariga, sirtga, yuzaga; *mat.* pirovard natija
- das Gesetz ist heraus** qonun chiqdi
- herausarbeiten** *vt* yasamoq, ishlamoq, ishlab bermoq, tayyor-

- lamoq
- herausbekommen** *vt* tortib chiqarmoq (qiyinchilik bilan); qiynalib bir qarorga kelmoq; surishtirib bilmoq; qaytimini olmoq; *mat.* natijaga erishmoq
- Herausbildung** *f* = tuzish, tashkil etish; ma'lumot; maorif, bilim, ilm, ta'lim
- herausbitten** *vt* chaqirmoq, tashqariga chiqishni taklif qilmoq
- herausbringen** *vt* olib chiqmoq, chiqarib tashlamoq; *mat.* qavs-dan chiqarmoq; surishtirib bilmoq; chiqarmoq (maxsulot); ketkazmoq (dog'ini); talaffuz qilmoq
- herausdringen** *vi (s)* yo'l ochib olmoq, yorib o'tmoq, unib chiqmoq
- herausfahren** *vt* tashib chiqarmoq
- herausfinden** *vt* yo'lini topmoq; tushunmoq; o'ylab topmoq
- ich kann mich aus der Sache nicht herausfinden** men bu masalani tushuna olmayman
- Herausforderung** *f* =, -*en* chaqirish; da'vat; qarshi chiqish
- herausfressen** *vt* kemirmoq, g'ajib tashlamoq; kemirib yeb qo'ymoq
- herausfühlen** *vt* paypaslab topmoq
- Herausgabe** *f* =, -*n* berish; nashr qilish, bosib chiqarish; alohida nashr
- herausgeben** *vt* bermoq, qaytarib bermoq; qaytimini bermoq; nashr etmoq, chop etmoq
- Herausgeber** *m -s*, = redaktor; no-shir, muharrir
- herausgehen** *vi (s)* chiqmoq, ketmoq
- herausgreifen** *vt* tortib olmoq, yulib olmoq
- heraushaben** *vt* tushunmoq, topmoq, payqamoq
- er hatte es gleich heraus** u gap nimadaligini darrov payqadi
- heraus Helfen** *vi (D)* chiqishga yordam bermoq; qaytarmoq, yordam qilish uchun chiqmoq
- heraus holen** *vt* olib chiqmoq, ko'tarib chiqmoq, tortib chiqmoq
- herauskehren** *vt* supurib chiqmoq
- herauskommen** *vi (s)* chiqmoq, chiqib jo'namoq, ko'rinmoq
- die Aufgabe kommt nicht heraus** masala hal bo'lmayapti
- aus dem Lachen nicht herauskommen** to'xtovsiz kulmoq, kulishdan o'zini to'xtata olmaslik
- herauslassen** *vt* chiqarib yubormoq, qo'yib yubormoq, ozod qilmoq
- herauslaufen** *vi (s)* yugurib chiqmoq, chopib chiqmoq
- herauslesen** *vt* tanlab olmoq, saylab olmoq
- herausmachen** *vt* ketkizmoq, yo'q qilmoq (dog')
- sich herausmachen** tuzalmoq, tuzalib ketmoq, shifo topmoq
- herausnehmen** *vt* olmoq, chiqarib olmoq
- herausplatzen** *vi (s)* o'rinsiz gapirib yubormoq, og'ziga kelganini aytmoq

- herausrufen** *vt* chaqirmoq, chaqirib keltirmoq
- heraussagen** *vt* aytmoq, gapirmoq; bayon qilmoq
- herausschaffen** *vt* olib chiqmoq, chiqarib tashlamoq; oldinga surib qoʻymoq, koʻrsatib qoʻymoq
- heraussehen** *vi* koʻrinmoq, oʻzini koʻrsatmoq
- herausspringen** *vi (s)* sakrab tushmoq, sakrab chiqmoq, otilib chiqmoq
- herausstellen**, *sich (h)* maʼlum boʻlib qolmoq, aniqlamoq
- herausschreiben** *vi (s)* yozib olmoq
- herausstreichen** *vt* oʻchirib tashlamoq, chizib tashlamoq
- herausströmen** *vi (s)* sharillab oqmoq, yogʻmoq
- herauswachsen** *vi (s)* oʻsmoq, boʻyi chozilmoq; ulgʻaymoq, voyaga yetmoq
- herauswerfen** *vt* tashlamoq, tashlab yubormoq, otib yubormoq
- herausziehen** *vt* sudrab (tortib) chiqarmoq
- herbei** *adv* bu yoqqa; bu erda *feʼlining ajraladigan old qoʻshimchasi*
- herbeieilen** *vi (s)* yugurib kelmoq chopib kelmoq; shoshib kelmoq
- herausführen** *vt* erishmoq; olib kelmoqʻ keltirmoq
- herbeiholen** *vt* chaqirmoq, daʼvat etmoq, keltirmoq
- herbeikommen** *vi (s)* yaqinlashmoq, yaqin kelmoq, yaqiniga kelmoq
- herbeilassen**, *sich* koʻnmoq, rozi boʻlmoq, kelishmoq
- herbeilaufen** *vi (s)* yugurib yetib kelmoq
- herbeilocken** *vt* aldab keltirmoq
- herbeischaffen** *vt* yetkazib bermoq, eltib bermoq
- herbeiströmen** *vi (s)* oqib keimoq
- herbeiwünschen** *vt* istamoq, biror narsaning kelishini xohlamoq
- herbeiziehen** *vi* jalb qilmoq, tortmoq (oʻziga)
- herbergen** *vt* uy-joy bermoq; qabul qilmoq
- Herberge** *f =, -n* turistlar (sayyohlar) bazasi
- Herbegsvater** *m -s* karvonsaroy egasi (ogʻasi), sayyohlar bazasi mudiri
- herbestellen** *vt* taklif qilmoq, chaqirmoq; uchrashuv tayinlamoq
- herbringen** *vt* keltirmoq, yaqiniga keltirmoq
- Herbst** *m -es, -e* kuz
- herbsten** *vi, vt* kuzgi hosilni yigʻmoq (termoq)
- Herbstfurche** *f =, -* kuzgi shudgor; kuzgi yer haydash
- herbstlich** *a* kuzgi, kuzga oid
- Herd** *m -(e)s, -e* plitka; oʻchoq; markaz
- Herde** *f =, -n* poda; otar; tabun
- eine Herde Kühe** sigirlar podasi, toʻdasi
- eine Herde von Pferden** yilqilar podasi
- hereditär** *a biol.* irsiy, suyak surgan, nasldan-naslga oʻtgan
- Heredität** *f = biol.* irsiyat, suyak



- surish, nasldan-naslga o'tish
- herein-fe** *'lning ajraladigan old qo'shimchasi* (harakatning ichkari tomonga bo'lishini bildiradi)
- herein!** *adv* ichkariga kiring!
- herein immer** tezroq kiring
- herein** *adv* bu yoqqa, ichkariga
- hereinbemühen**, *sich* ichkariga ki rishga harakat qilmoq, intilmoq
- hereinbitten** *vt* ichkariga kirishni (iltimos qilmoq) so'ramoq
- hereinbrechen** *vi (s)* kelmoq, boshlanmoq, yuz bermoq, sodir bo'lmoq
- ein Sturm brach herein** bo'ron boshlandi
- hereinfallen** *vi (s)* ichkariga kiritmoq, ichkariga qo'yimoq; yiqilmoq, yiqilib tushmoq, tushib ketmoq; pand yemoq, noqulay ahvolda qolmoq, o'sal bo'lib qolmoq
- hereinkommen** *vi* ichkariga kirmoq, kirmoq
- hereinlassen** *vt* ichkariga qo'yimoq, ichkariga kirishga ruhsat etmoq, ichkariga qo'yib yubormoq
- hereinplatzen** *vi (s)* to'satdan ichkariga kirmoq, bostirib kirmoq
- herfahren** *vt* olib kelmoq; to'satdan paydo bo'lmoq
- Herfahrt** *f =, -en* safar, sayohat (shu yoqqa)
- Hergang** *m -(e)s, -yo'l* (bu yoqqa); voqea, hodisalarning borishi
- hergebracht** *a* odatiy; taomil, an'anaviy
- hergehen** *vi (s)* yaqinlashmoq, yaqin kelmoq; biror kimsaning orqasidan bormoq, biror kishining yonida bormoq
- über j-n hergehen** biror kishini koyimoq, so'kmoq
- sie gehören hier nicht her** bu yer sizga to'g'ri kelmaydi
- hergehören** *vi* taaluqli bo'lmoq, qarashli bo'lmoq
- herhalten** *vt* ostiga (tagiga) qo'yimoq; tirab qoymoq, tirgovuch qoymoq; cho'zmoq; tortmoq tovon to'lamoq, qasos olmoq
- herkommen** *vi (s)* kelmoq; bo'lib o'tmoq
- wo kommt er her?** u qayerdan paydo bo'lib qoldi?
- Herkunft** *f =* kelish, kelib yetish; kelib chiqish
- von guter Herkunft sein** yaxshi oiladan kelib chiqish, yaxshi oiladan bo'lmoq
- herlaufen** *vi (h)* yugurib kelmoq, chopib kelmoq; yugurib bormoq
- herleitend** *a* deduksiyaga asoslangan (xususiy xulosaga kelish)
- hermachen**, *sich* biror narsaga kirishmoq
- hermetisch** *a* germetik, zich yopilgan
- hernach** *a* keyin, so'ngra
- hernehmen** *vt* olmoq, yetkizmoq; biror joydan olmoq; o'zlashtirmoq
- hernieder** *a* past, pastda
- heroisch** *a* qahramonlarcha, mardlarcha

- Herr** *m* –*en, -en* janob, xo‘jayin  
**für Herren** erkaklar uchun  
**herrechnen** *vt* sanab hisoblamoq, sanab chiqmoq  
**Herrenartikel** *pl* galanteriya mol-lari va tayyor erkaklar ko‘y-lagi  
**herrenlos** *a* xo‘jayinsiz, egasiz; tashlab qo‘yilgan, xo‘jasizlik  
**Herrgot** *m* –(*e*)*s* xudo, olloh, rab  
**herrichten** *vt* to‘g‘rilab olmoq, tartibga solmoq; asbob-anjom bilan yasatmoq  
**Herrin** *f* =, –*nen* xonim, beka  
**herrisch** *a* buyuruq (farmon, amr) tarzida; amirona; qudratli, kuchli  
**herrlich** *a* chiroyli, go‘zal; hashamatli, ajoyib  
**Herrschaft** *f* =, –*en* hukmronlik; hokimiyat, hukumat, ma‘muriyat  
**zur Herrschaft gelangen** hokimiyatni qo‘lga olmoq, hokimiyat tepasiga kelmoq  
**herrschaftlich** *a* xo‘jayin, to‘ralar, dvoryan, pomeshchiklarga oid  
**herrschen** *vi* hukmronlik qilmoq; xo‘jayinlik qilmoq; boshqarmoq  
**herrschend** *a* hukmron, hukmron bo‘lib  
**Herrscher** *m* –*s*, = hukmdor, ho – kim; podshoh, shoh; qirol, sulton  
**herrsüchtig** *a* hokimiyatparast, mansabparast  
**herrufen** *vt* chaqirmoq, o‘z yoniga chaqirmoq  
**herrühen** *vi* bo‘lib o‘tmoq, oqib o‘tmoq  
**hersagen** *vt* gapirmoq, hikoya qilmoq; talaffuz qilmoq  
**herstammen** *vi* kelib chiqmoq, biror joydan bo‘lmoq  
**herstellen** *vt* yaratmoq; tayyor-lamoq; ishlab chiqarmoq; tashkil qilmoq; o‘rnatmoq; tashkil-lashtirmoq; tiklamoq; yangila-moq; davolamoq  
**er ist noch nicht ganz hergestellt** u hali tiklangani yo‘q, u hali butunlay tuzalgani yo‘q  
**Herstellung** *f* =, –*en* ishlab chiqarish; qaytadan tiklash, tay-yorlash; yaratish  
**Herstellungspreis** *m* –*es, -e* tan-narx  
**Hertz** *n* = *fiz.* gerts (tebranish tezli-gining o‘lchov birligi)  
**herüber** *adv* –dan, orqali; bu yoqqa, bu tomonga  
**herüber** – *fe‘lning ajraladigan old qo‘shimchasi, harakatning gapiruvchiga qaratilganini bildiradi*  
**herüberbringen** *vt* ko‘chirmoq, tashimoq, olib kelmoq; o‘tkaz – moq  
**herüberführen** *vt* ko‘chirmoq, boshqa joyga o‘tkazmoq  
**herüberkommen** *vi* kirmoq, yo‘l-yo‘lakay kirib o‘tmoq  
**herübernehmen** *vt* boshqalardan olib o‘zlashtirmoq  
**herüberziehen** *vt* tortib keltirmoq, sudrab bormoq, o‘ziga tortmoq; og‘dirib olmoq, boshqa joyga ko‘chirmoq  
**Herübersetzung** *f* =, – ona tiliga tarjima  
**herum** *adv* atrofida, tevaragida,

- taxminan; ... ga yaqin  
**um den Tisch herum** stol tevaragida  
**im Kreise herum** atrofida  
**um den Teich herum** hovuz atrofida  
**es kostet um 100 sum herum** bu taxminan 100 so'm turadi  
**er ist um vierzig Jahre herum** u qirq yoshlarda (qirq yoshga yaqin)  
**herumärgeren, sich** (mit+ D) janjal qilmoq, bahslashmoq  
**herumbalgen, sich** o'ynashmoq, sho'xlik qilmoq; urinmoq, avora bo'lmoq; ivirsimoq, imillamoq; urishmoq  
**herumbekommen** vt unamoq, rozi qilmoq; yoymoq, tarqatmoq  
**herumbringen** vt kiyib kengaytirmoq, tarqatmoq, ovoza qilmoq, yoymoq  
**herumdrehen** vt ag'natmoq, ag'darmoq  
**sich im Kreise herumdrehen** aylanmoq  
**herumdrücken, sich** qimirlamoq, silkinmoq, tebranmoq  
**herumfahren** vt (s)(um +A) aylanib chiqmoq; aylanib o'tmoq  
**in der ganzen Stadt herumfahren** butun shaharni aylanib chiqmoq  
**herumführen** vt aylantirmoq, boshlab bormoq, yetaklab bormoq  
**herumführwerken** vi xo'jayinlik qilmoq; xalaqit bermoq, adash-tirmoq  
**herumgeben** vt bir-biriga bermoq; tarqatib chiqmoq; uzatmoq, taqsimlamoq, ulashmoq, olib bermoq  
**herumgehen** vi (s) nari-beri yurmoq, u yoqqa-bu yoqqa yurib turmoq; yurib aylanib chiqmoq, kezib chiqmoq  
**tausend Gedanken gehen mir im Kopfe herum** mening boshimda minglab fikr aylanib yuribdi  
**herumkommen** vi (s) aylanib chiqmoq; tarqalmoq, yoyilmoq  
**nicht herumkommen** qochib qutila olmaslik  
**dieser Mensch ist weit herumgekommen** bu odam ko'p sayohat qilgan, ko'pni ko'rgan  
**herumkriegen** vt ko'ndirmoq, maqullatmoq, unatmoq  
**herumliegend** a atrofda, tevarak- atrofda  
**herumlungern** vi sandiroqlab yurmoq, sang'imoq, daydib yurmoq  
**herumreichen** vt yetkazib bermoq, tashimoq, olib kelib bermoq  
**herumreisen** vi (s) aylanib chiqmoq, aylanib yurmoq, kezmoq, sayohat qilib yurmoq  
**herumreißen** vt burmoq, uzmoq, tortmoq  
**den Kurs in der Politik herumreißen** siyosatni keskin o'zgartirmoq  
**herumschlagen, sich** jang qilmoq, urushmoq  
**herumschnüffeln** vi hidlamoq, is-

- kamoq (tatib koʻrmoq)
- um ein Geheimnis herumschnuffeln** biror sirdan (voqif) xabar-dor boʻlishga harakat qilmoq
- herumsein** *vi (s)* **j-n herumsein** biror kimsa atrofida (girdi-kapalak boʻlmoq) parvona boʻlmoq
- herumwälzen**, *sich* yurmoq, kezmoq, sayr qilmoq
- herumwerfen** *vt* har tarafga sochmoq, irgʻitmoq, yoyib tashlamoq
- herumwühlen** *vi* kavlamoq, titmoq, titib koʻrmoq
- Herumständer** *m -s*, = bekorchi, ish yoqmas, tanbal
- Herumtreiber** *m -s*, = daydi, darbadar, sangʻib yuruvchi; sarson-sargardon
- herunter** *adv* pastga
- herunter vom Baum!**  
daraxtdan pastga tush!
- herunter-harakat** *nining yuqoridan paski tomonga boʻlishini koʻrsatib, feʻlning ajraladigan old qoʻshimchasi*
- herunterbringen** *vt* olib tushmoq; pastga tushirmoq; qattiq charchatmoq, qiynamoq, holdan toydirmoq, darmonini quritmoq
- seine Krankheit hat ihn sehr heruntergebracht** kasallik uning darmonini juda quritdi
- herunterfallen** *vi (s)(von +D)* yiqilmoq, tushmoq, agʻnamoq; pasaymoq
- herunterfliegen** *vi (s)* uchib tushmoq, yiqilib tushmoq, uchib ketmoq
- herunterfließen** *vi (s)* oqib kelmoq, oqib chiqmoq
- heruntergehen** *vi (s)* pastga (yurmoq) bormoq; pastga tushmoq; pasaymoq
- heruntergekommen** *a* pastga tushadigan, pasayadigan; kamba gʻallashgan, qashshoqlashgan
- herunterkommen** *vi (s)* tushmoq, pastga tushmoq; kuchsizlantirmoq, tinkani quritmoq; ruhi tushib ketmoq
- herunterlassen** *vt* tushurmoq, pastga tushirmoq; kamaytirmoq
- heruntermachen** *vt* qattiq tanbeh bermoq, koyimoq, urishmoq, adabini bermoq
- herunternehmen** *vt* olmoq, olib qoʻymoq, tushirmoq, olib tashlamoq
- herunterreißen** *vt* uzmoq, yulmoq, uzib ilmoq; tanqid qilmoq
- herunterschlucken** *vt* yutmoq, yutib yubormoq
- herunterschütteln** *vt* qoqmoq, silkimoq, silkitmoq
- heruntersein** *vi (s)* yomon holatda (ahvolda) boʻlmoq
- heruntersetzen** *vt* pastga oʻtkazmoq; pasaytmoq, pastga urmoq; xoʻrlamoq, kamsitmoq
- heruntersteigen** *vi (s)* pastga tushmoq, tushmoq
- herunterstürzen** *vt* pastga tashlamoq, tashlab yubormoq, tushirmoq; *vi (s)* yiqilmoq, qulamoq, yiqilib tushmoq
- herunterwirtschaften** *vt* xoʻjalik-

- ni xarob qilmoq, yomon ahvolga tushirmoq
- hervor** *adv* tashqariga, sirtga, oldinga
- hervor** – *fe*’ning ajraladigan old qo’shimchasi, harakatning ichkaridan tashqari tomonga yo’nalishini bildiradi
- hervorblicken** *vi* boshini chiqarib qarab qoymoq; ... day (bo’lib) ko’rinmoq, ... ga o’xshab ko’rinmoq, ... day tuyulmoq
- hervorbrechen** *vi (s)* tortib olmoq, sug’urib olmoq; yulqib-yulqib olmoq; yirtilmoq; birdan otilib chiqmoq; yorib chiqmoq; paydo bo’lmoq, hozir bo’lmoq
- hervorbringen** *vt* ishlab chiqarmoq; aytmoq, talaffuz qilmoq; chiqmoq, so’zlammoq; qilmoq bermmoq
- keinen Laut hervorbringen** biror so’z ham gapirmaslik, lom-mim demaslik
- hervorgehen** *vi (s)* bo’lib o’tmoq; chiqmoq; oqib chiqmoq; paydo bo’lmoq
- daraus geht hervor, dass ...**  
bundan kelib chiqadiki ...
- als Sieger aus dem Kampfe hervorgehen** jangdan g’olib bo’lib chiqmoq
- hervorheben** *vt* ta’kidlamoq, bel-lamoq, oldinga surib qo’ymoq; o’qtirib o’tmoq
- hervorlocken** *vt* hiyla bilan olmoq, aldab-suldab olmoq, qo’lga kiritmoq
- hervorragend** *vt* baland ko’tarilmoq, ustun turmoq, kirgizmoq; ajralmoq, ajralib turmoq; o’zini ko’rsatmoq, ish ko’rsatmoq
- hervorragend** *a* atoqli, mashhur
- hervorrufen** *vt* chaqirmoq, chaqirib keltirmoq
- hervorstechend** *a* diqqatga sazovor, ajoyib; ko’zga tashlanadigan
- hervortreten** *vi (s)* oldinga chiqmoq; so’zga chiqmoq; ilgari bosmoq, oldinga chiqmoq olg’a qadam qo’ymoq; yurish boshlamoq, yo’lga chiqmoq
- Herz** *n –ens, -en* yurak, dil, qalb
- im Herzen tragen** biror kishini ko’ngilda saqlab yurmoq, ko’ngilida olib yurmoq
- j-n ins Herz schliessen** biror kishini yaxshi ko’rmoq
- Taschkent ist das Herz des Landes** Toshkent mamlakat yuragidir
- herzählen** *vt* hisoblab chiqmoq, sanab chiqmoq
- Herzeleid** *n-(e)s* motam, g’am-g’ussa, dard, alam, qayg’u
- Herzensangst** *f =, -ängste* qattiq qo’rqish, qo’rqinch, dahshat, vahima
- Herzensfreude** *f =, -n* katta quvonch, sevinch
- Herzenslust** *f =* rohat, huzur, halovat
- sich nach Herzenslust ausruhen** (rohat qilib) dam olmoq
- herzergreifend** *a* ta’sirli, kuchli tassurot qoldiradigan, ko’ngilni yumshatadigan

- herzerschütternd** *a* hayratda qol-diradigan, hayojonlantiradigan
- Herzfehler** *m -s,*= yurak xastaligi
- herzhaft** *a* jasur, botir, mard, mustahkam, kuchli, qoʻrqmas; qattiq; yaxshilab, qotirib
- herzig** *a* yoqimli, yoqimtoy, mu-loyim
- herzsinnig** *a* samimiy, doʻstona, chin yurakdan qilingan
- Herzklopfen** *n -s* yurakning urishi
- herzlich** *a* samimiy, doʻstona; juda; *adv* nozik qarash
- herzlich lachen** chin dildan kulmoq, samimiy kulmoq
- herzlich gern** juda koʻngilli
- es war herzlich langweilig** juda zerikarli boʻldi
- herzlos** *a* shafqatsiz, bagʻri tosh, toshyurak, berahm
- Herzschlag** *m -(e)s,-schläge* yurakning urishi
- an einem Herzschlag sterben, einem Herzschlag erliegen** yurak yorilishidan oʻlmoq
- herzstärkend** yurak faoliyatini mustahkamlash
- herzu** *adv* bu yoqqa, bu tomonga, bu yerga
- herzzerreissend** *a* yurakni ezadigan, yurakni achitadigan
- hetrogen** *a* getrogenli, bir xil boʻlmagan; bir jinsli boʻlmagan, har xil, turli
- Hetze** *f =,-n* quvish, quvib ovlash; behuda ovoragarchilik, behuda taraddud
- Hetzflugblatt** *n -(e)s* igʻvogarlik
- (gʻalamislik) varagʻi
- Heu** *n -(e)s* pichan, xas, hashak
- Heuboden** *m -s,-böden* pichan bosiladigan joy, somonxona
- Heuchelei** *f =,-en* ikki yuzlamalik, munofiqlik
- heucheln** *vt* munofiqlik qilmoq, ikki yuzlamalik qilmoq; *vt* mugʻombirlik qilmoq, hiyla qilmoq
- unschuld heucheln** aybsizman deb hiyla qilmoq
- Heuchler** *m -s,*= munofiq, ikki yuzlamachi
- heuchlerisch** *a* munofiqona, ikki yuzlamachilik bilan
- heuen** *vi* pichan oʻrmoq, oʻrmoq
- heuer** *adv* bu yil
- heuer ist die Ernte sehr gut** bu yil hosil juda yaxshi
- Heuer** *f =,-n* maosh, ish haqi, Moyana; ijara
- Heuerjahr** *n -(e)s,-e* ijara yili
- Heuernte** *f =,-n* pichan oʻrinish
- Heugabel** *f =,-n* panshaxa, ayri
- heulen** *vi* uvillamoq, uv tortmoq, dodlab yigʻlamoq, ingrayvermoq
- Heuschrecke** *f =,-n* chigirtka
- heute** *adv* bugun
- heute früh, heute morgen** bugun ertalab
- heute mittag** bugun tushda
- von heute an; ab heute; seit heute** bugundan boshlab
- bis heute** bugungacha
- heute vor acht Tagen** bir hafta ilgari
- für heute genug** bugunga yetadi
- weder heute noch morgen**



- bugun ham emas, ertaga ham emas
- heutig** *a* bugungi; zamonaviy, endigi, hozirgi
- die heutige Jugend** hozirgi yoshlar, bugungi yoshlar
- heutzutage** *adv* bizning zamona-mizda, bizning davrimizda
- Hexaeder** *n -s, = mat.* geksaeder, olti yoqlik (olti tomoni bor narsa)
- Hexe** *f =, -n* jodugar, yolmog'iz kampir, alvasti
- hexen** *vi* jodu qilmoq, sehrlamoq
- Hexenschuss** *m -sses* bel sanchig'i, bel og'rig'i
- ich habe einen Hexenschuss** bel og'rig'im bor
- Hexerei** *f =, -en* jodugarlik, sehgari
- Hexose** *f =, -xim.* geksozlar (uglevodlar)
- Hieb** *m -(e)s, -e* zarba, urish, urish, tepki; ishora
- Hiebwaaffe** *f =, -n* qirqadigan qurol
- hier** *adv* bu yerda, shu yerda
- hier und dort** bu yerda va u yerda
- hieran** *adv* bunga, shunga; keyin
- hierauf** *adv* bunga, shunga; keyin
- hieraus** *adv* bu yerdan, bundan
- hierbehalten** *vt* o'zida qoldirmoq
- hierbei** *adv* shu bilan
- hierbleiben** *vi (s)* shu yerda qolmoq
- hierher** *adv* bu yoqqa
- bis hierher** shu yergacha
- komm hier her!** bu yoqqa kel!
- hiergegen** *adv* bunga (shunga)
- qarshi
- hierländisch** *a* tub joyga oid; yerli, mahalliy; vatanga oid
- hierortig** *a* mahalliy, shu yerlik
- hierüber** *adv* bu haqda
- hierum** *adv* shu (bu) joy atrofida
- hiesig** *a* shu yerlik, shu yerga oid
- hierzulande** *adv* bu yerda, bizda
- Hilfe** *f =, -n* yordam, ko'mak
- j-n um Hilfe bitten** biror kishidan yordam so'ramoq
- um Hilfe rufen** yordamga chaqirmoq
- auf Hilfe hoffen** yordamga ishonmoq
- Hilfe in der Not** muhtojlikda yordam bermoq
- Hilfeleistung** *f =, -en* yordam ko'rsatish
- Hilfeleistungsvertrag** *m -(e)s* o'zaro yordam haqidagi shartnoma
- hilfesuchend** *a* yordam izlovchi, yordamga muftoj
- hilflos** *a* yordamsiz; tashlab qo'yilgan
- hilfloze Lage** kutib bo'lmaydigan ahvol
- hilfsbedürftig** *a* yordamga muhtoj bo'lgan, yordam zarur bo'lgan
- hilfsbereit** *a* yordamga tayyor
- Hilfskraft** *f =, -kräfte* yordamchi ish kuchi, yordamchi mablag', vosita
- Hilfslinie** *f =, -n mat.* yordamchi chiziq
- Hilfsmittel** *n -s, =* yordamchi vosita
- Hilfsquelle** *f =, -n* resurs, manba',

- boylik manbalari
- Himmel** *m -s, = osmon, koinot, fazo, samo; kenglik*
- die Sterne am Himmel** osmondagi yulduzlar
- in den Himmel ragen** osmonga ko'tarilmoq, boy cho'zmoq
- unter freiem Himmel** ochiq havoda
- himmelblau** *a osmondek ko'm-ko'k (havo rang)*  
*adv* **himmelblau farben** biror materialni osmondek ko'k ranga bo'yamoq
- Himmeldonnerwetter!** Jin ursin!
- himmelhoch** *a* (baland ko'tarilgan) osmono'par
- Himmelfahrt** *f =* meroj (Isoning arshi a'loga ko'tarilish va xristianlarning shunga bag'ishlangan bayrami)
- himmelschreiend** *a* g'azablanti-radigan; chidab bo'lmaydigan
- himmelwelt** *a* uzoq, juda uzoq, bepoyon
- himmlisch** *a* osmondagi
- Himmelsbahn** *f =, -en astr.* fazo, osmon yo'li
- Himmelskörper** *m -s, = astr,* osmon jismi
- Himmelskugel** *f =, -n astr.* globus (oy, yer, osmon shu kabilar modeli)
- Himmelskunde** *f =* astronomiya
- hin** *adv* u yoqqa, ... ga tomon
- geh hin!** U yoqqa bor!
- bis zur Mauer hin** devorgacha
- nach aussen hin** tashqariga, yuzaga
- nach oben hin** yuqoriga
- an der Grenze hin** chegara bo'ylab, ahyon-ahyonda
- bis spät in die Nacht hin** yarim tungacha
- hinab** *adv* pastga
- den Berg hinab** tog'dan pastga
- hinabgehen** *vi (s)* pastga qarab yurmoq, pastga tushmoq
- hinabstürzen** *vi (s)* yiqilmoq, qulamoq
- hinan** *adv* yuqoriga, tepaga
- den Berg hinan** toqqa
- hinangehen** *vi (s)* tepaga (yuqoriga) yurmoq, (bormoq), ko'tarilmoq
- hinarbeiten** *vi (auf +A)* intilmoq, harakat qilmoq
- hinauf** *adv* yuqoriga, tepaga, balandga
- von unten hinauf** pastdan yuqoriga
- hinaufarbeiten**, *sich* qiyinchilik bilan tepaga ko'tarilmoq
- hinaufgehen** *vi (s)* yuqoriga chiqmoq
- hinaufschrauben** *vt* haddan tashqari oshirmoq, ko'tarib yubormoq
- hinaufschwinden**, *sich* ko'tarilmoq, baland bo'lmoq
- hinauftreiben** *vt* tepaga (yuqoriga) haydamoq)
- hinaus** *adv* tashqariga, ... dan, ... uchun
- zum Fenster hinaus** derazadan tashqariga
- zur Tür hinaus** eshik orqasiga
- auf Jahre hinaus** uzoq yilga,

- ko'p yilga
- hinausbegleiten** *vt* haydab yubormoq, quvib chiqarmoq, jo'natmoq
- hinausfahren** *vi (s)* jo'nab ketmoq; tashib chiqarmoq
- hinausgehen** *vi (s)* tashqariga chiqmoq; oshirmoq
- hinauskommen** *vi (s)* chiqmoq, ichkaridan chiqmoq
- hinausmüssen** *vi* tashqariga chiqishga majbur bo'lmoq
- hinauslaufen** *vi (s)* yugurib chiqmoq, chopib chiqmoq
- hinausschaffen** *vt* o'z vaqtida tug'moq, yo'q qilmoq; o'ylab yurmoq, ko'tarib yurmoq; yoq-tirmaslik, toqat qilaolmaslik; chiqarib tashlamoq
- hinaussetzen** *vt* ko'chirib olmoq, chiqarib olmoq; olib chiqmoq
- hinaustragen** *vt* ko'tarib chiqmoq, tashqariga chiqarmoq, tashqariga olib chiqmoq
- hinausstossen** *vt* itarib chiqarmoq, turtib chiqarib tashlamoq
- hinauswerfen** *vt* chiqarib tashlamoq, haydab yubormoq, haydamoq
- hinauswollen** *vi* chiqishni istamoq
- ich will aus dem Zimmer hinaus** men xonadan tashqariga chiqishni xohlayman
- hinbefördern** *vt* o'tkazmoq, olib o'tmoq
- hinbegeben**, *sich* jo'namoq, ketmoq; jo'nab ketmoq (biror yoqqa)
- hinbringen** *vt* olib bormoq, olib borib bermoq, eltib qo'ymoq; o'tkazmoq (vaqtini)
- sein Leben sorgenvoll hinbringen** hayotni g'am bilan o'tkazmoq
- hinderlich** *a* qiyin, og'ir, mashaqqatli; to'sqinlik qiluvchi
- Hinderlichkeit** *f* =, -en xalaqit, to'sqinlik, qiyinlik; noqo'laylik
- hinder** *vt* halal bermoq, qarshilik qilmoq
- Hindernis** *n* -ses, -se to'siq, go'v, to'sqinlik, xalaqit
- auf Hindernisse stossen** qarshilikka duch kelmoq
- Hindernisse in den Weg legen** to'sqinlik qilmoq
- ich schrecke vor keinen Hindernissen zurück** meni hech qanday to'sqinlik to'xtata olmaydi
- hindernisreich** *a* qiyin, og'ir, to'liq monelik
- Hinderung** *f* =, -en to'xtab qolish, to'xtash
- hindeuten** *vi* (auf A) ko'rsatmoq, ko'rsatib qo'ymoq; shama qilmoq, ishora qilmoq, sezmoq
- Hindi** *n* = hind tili
- hindurch** *adv* orqali, o'ta; bir tomondan ikkinchi tomonga o'tgan; -dan, -gacha
- sein ganzes Leben hindurch** umr bo'yi, butun umr davomida
- Hindustan** *n* = Hindiston
- hineilen** *vi* shoshilmoq (biror yoqqa)
- hinein** *a* ichkariga
- ins Haus hinein** uyga

- bis in die Nacht hinein** arbei-  
ten yarim tungacha ishlamoq
- hinein** – *harakatning ichkariga*  
*yo‘nalishini ko‘rsatadigan fe‘l-*  
*ning ajraladigan old qo‘shim-*  
*chasi*
- hineinarbeiten**, *sich* ishga kirish-  
moq, ishga kirishib ketmoq
- hineinbekommen** *vt* itarib-itarib  
kirgizmoq, niqtab-niqtab tiq-  
moq
- Hineinbeugen** *n –s* kallani pastga  
egish (boks)
- hineinblicken** *vi* qarab qo‘yimoq,  
ko‘z tashlamoq
- hineindenken**, *sich* yaxshilab o‘y-  
lamoq, chuqur mulohaza qilmoq
- hineindrängen**, *sich* tiqilib o‘t-  
moq, tiqilib kirmoq
- hineinfinden**, *sich* ko‘nmoq, taq-  
dirga tan bermoq
- hineingehen** *vi (s)* ichkariga kir-  
moq
- hineinlassen** *vt* kirgizmoq, ichka-  
riga kirgizmoq, ichkariga qo‘y-  
moq
- hineinlegen** *vt* biror narsani ichka-  
riga qo‘yimoq; aldamoq
- hineinlesen**, *sich* qayta-qayta  
o‘qib mazmunini tushunib ol –  
moq, sinchiklab o‘qib olmoq
- hineinmischen**, *sich* aralashmoq,  
aralashib ketmoq
- hineinpassen** *vi* kirmoq, tushmoq,  
mos kelmoq, to‘g‘ri kelmoq
- hineinschmugeln** *vt* molni o‘g‘-  
rincha o‘tkazmoq
- hineinsprechen** *vi (in+ A)* ishon-  
tirmoq, ko‘ndirmoq
- hineinstecken** *vt* aralashmoq, tum-  
shug‘ini tiqmoq
- hineinwerfen** *vt* ichkariga (irg‘it-  
moq) tashlamoq
- hinfahren** *vt* olib borib qo‘yimoq,  
eltib qo‘yimoq; kuzatib qo‘y-  
moq
- Hinfahrt** *f =, -en* safar, sayohat, bi-  
ror joyga borish
- Hinfahrt und Herfahrt** borish  
va qaytish safari
- hinfallen** *vi (s)* yiqilmoq, tush-  
moq, ag‘namoq
- hinfällig** *a* qartaygan, kuchdan  
qolgan
- hinfließen** *vi (s)* oqmoq (biror  
tomonga); o‘tmoq (vaqt)
- hinführen** *vt* olib bormoq, olib  
borib qo‘yimoq, kuzatib qo‘y-  
moq; *vi* chetga olib chiqmoq,  
nariga olib bormoq
- der Weg führt nach rechts hin**  
yo‘l o‘ng tarafga olib boradi
- Hingabe** *f =* zavq, shavq, qiziqish
- Hingang** *m –(e)s* vafot, o‘lim,  
qazo
- j-s Hingang beweinen** biror ki-  
shining o‘limiga motam tutmoq,  
sza tutmoq, o‘lganiga yig‘lamoq
- hingeben** *vt* qaytarib bermoq  
bag‘ishlamoq, fido qilmoq
- Hingebung** *f =* sodiqlik, vafodor-  
lik, zavq, shavq, qiziqish
- hingebungsvoll** *a* fidokor, sado-  
qatli, sodiq; behad, cheksiz
- hingegen** *adv* ro‘parada, narigi  
tomonda; aksincha, qarshisida
- hingehen** *vi (s)* bormoq (ma‘lum  
joyga), ketmoq

- wo geht dieser Weg hin?** bu yo'l qaerga olib boradi?
- hingehören** *vi* qarashli bo'lmoq, taaluqli bo'lmoq
- Hingehörigkelt** *f* = buyum, jihoz, asbob; yig'ilgan joy; qayd qilingan joy
- hingelangen** *vi (s)* kirmoq, bormoq; biror joyda paydo bo'lmoq
- hingeraten** *vi (s)* biror joyda tasodifan paydo bo'lib qolmoq
- hingerissen** *a* berilib ketgan, qiziqib ketgan
- von j-s Worten hingerissen sein** biror kishining so'zidan xursand bo'lib ketmoq
- Hingerichtete** *m, f* qatl (etilgan) etish
- hingleiten** *vi (s)* toymoq, sirpanmoq, sirg'anmoq
- hinhalten** *vt* bermoq, olib bermoq; uzatmoq, topshirmoq
- hinken** *vi* oqsamoq, oqsab yurmoq
- der Vergleich hinkte** taqqoslash (qiyos qilish) muvaffaqiyatsiz chiqdi
- hinkommen** *vi (s)* kelmoq; yo'qolmoq, g'oyib bo'lmoq
- wo soll das noch hinkommen?** Bu hali qanday natija bilan tugar ekan?
- hinkönnen** *vi* kelish holatida bo'lmoq
- hinlänglich** *a* yetarli, kifoya qiladigan, qoniqarli
- hinlänglich zu tun haben** yetarli darajada ishga ega bo'lmoq
- hinlegen** *vt* qo'yimoq, yotmoq
- hinmüssen** *vi* biror tomonga bo'lishga (jo'nashga) majbur bo'lmoq
- hinnehmen** *vt* olmoq (o'ziga); qabul qilmoq; chidamoq; toqat qilmoq; boshidan kechirmoq; ko'chirmoq, o'tkazmoq
- hinreichen** *vt* bermoq, uzatmoq; yetarli bo'lmoq
- hinreichend** *a* yetarli, yetarli darajada
- hinreichend lange tragen** biror narsani uzoq vaqt kiyib yurmoq
- Hinreise** *f* =, *-n* safar, ketish, yo'l
- hinreissen** *vt* tortmoq, qiziqtirib qoymoq, zavqlantirib qo'yimoq, havasini keltirmoq
- hinreissend** *a* ajoyib, soz, go'zal, juda yaxshi, qiziqtiradigan
- hinrichten** *vt* qatl etmoq, o'ldirmoq, azobga solmoq, qiynamoq
- Hinrichtung** *f* =, *-en* o'lim jazosi, qatl qilish
- hinschaffen** *vt* yetkazib bermoq, eltib bermoq
- hinscheiden** *vi (s)* o'lmoq, vafot qilmoq, qazo qilmoq
- hinsein** *vi (s)* yo'qolmoq, yo'q bo'lmoq, halok bo'lmoq
- Hinsicht** *f* =, *-en* munosabat, tushuncha, fikr, mulohaza; nuqtai nazar; biror narsani nazarga olib, e'tiborda tutish
- in dieser Hinsicht** bu masalada, bu o'rinda
- hinsichtlich präp (Gen)** yetkazib berish, ... masalasida
- hinstrecken** *vt* cho'zmoq, uzatmoq; oyog'idan yiqitmoq

- hinten** *adv* orqada, orqasida  
**von hinten** orqadan  
**hinten und vorn** orqa va oldida  
**hinten hinaus wohnen** ochiq havoda (hovlida) yashamoq  
**hintenherum** *adv* aylanma yoʻllar bilan; yashirin, maxfiy  
**hinter** *präp* orqasida, orqasiga  
**hinter dem Haus** uy orqasida  
**hinterbleiben** *vi (s)* qoldirmoq oʻlimidan keyin biror narsa)  
**Hinterbliebene** *m, f* yaqin qarindosh, oila (vafot etgan kishining)  
**hinterbringen** *vt* koʻtarib bormoq; chaqimchilik qilmoq, yashirin maʼlumot bermoq, xabar bermoq  
**hinterdrein** *adv* ketma-ket, izma-iz, buning orqasidan  
**hinterdrein gehen** biror kishining ketidan izma-iz bormoq  
**hinterdrücken** *vt* itarib tashlamoq, orqaga itarib yubormoq  
**hintereinander** *pron* ketma-ket, birin-ketin  
**Hintereinanderschaltung** *f =, -n* ketma-ket ulanish (elektr)  
**hinteressen** *vt* istar-istamas oʻqatlanish  
**Hintergaumenlaut** *m -(e)s, -e* orqa tanglay tovushi  
**Hintergebäude** *n -s, =* orqa korpus, bino  
**hintergehen** *vi (s)* orqasida bormoq; orqaga yurmoq; adash-tirmoq, ishonchni suʼistemol qilmoq; aldamoq  
**Hintergrund** *m -(e)s, -gründe* orqa qism, ikkinchi darajali  
**im Hintergrund liegen** pistirmada boʻlmoq  
**in einen Hintergrund geraten** pistirmaga (qoʻlga) tushmoq  
**hinterhaltig** *a* makkor, ayyor, hiylakor; quv  
**hinterher** *adv* orqasida, ketida; ortida, keyingi sana bilan  
**hinterhergehen** orqada bormoq  
**ich komme hinterher** men sizning izingizdan (orqangizdan) kelaman  
**Hinterkopf** *m -(e)s, -köpfe* gardan, boʻyin, ensa  
**hinterherlaufen** *vi (s)* ketidan yugurmoq  
**Hinterhof** *m -(e)s* tomorqa  
- sowie** *conj* hamda, shuningdek
- sowohl** *conj* ... ham, ...ham
- soziabel** *a* jamoatga, jamoatchilikka oid, ijtimoiy; ulfat, dilkash; xushmuomala
- sozial** *a* sotzial, ijtimoiy
- Sozialamt** *n -(e)s* sotsial (ijtimoiy) ta'minot bo'limi
- Sozialdirektor** *m -s* ijtimoiy ta'minot bo'lim boshlig'i
- Sozialheim** *n -(e)s, -e* nogironlar uyi, qariyalar uchun uy
- Sozialökonomie** *f* = siyosiy iqtisod
- Sozialversicherungsanstalt** *m -en* sotzial ta'minot tashkiloti
- Sotzialversorgung** *f =, -en* sotzial (ijtimoiy) ta'minot
- spähen** *vi* (nach +D, auf+ A) mo'ralamoq, mo'ralab qaramoq; kuzatmoq
- spaltbar** *a* yoriladigan, ushatiladigan, ajratiladigan, bo'linadigan
- Spalte** *f =, -n* ustun, kolonka; bet, sahifa (gazetada)
- spalten** *vt* yormoq, maydalamoq; chopib tashlamoq, kesib bo'laklamoq; tilmoq, uzunasiga tilmoq, tilib ajratmoq; ustunlarga ajratmoq
- Spalterregierung** *f =, -en* bo'linish siyosatini olib botayotgan davlat (hukumat)
- Span** *n -(e)s* mayda tarasha, payraxa; tutantiriq
- spanisch** *a* ispancha
- spanabhebend** *a* kesadigan, qirqadigan
- spannbar** *a* cho'ziladigan, uzayadigan, cho'ziluvchan, kengayadigan
- spannen** *vt* tarang qilib tortmoq
- spannend** *a* qiziq, qiziqtiradigan, o'ziga tortadigan, jozibali
- Spannung** *f =, -en* butun diqqat e'tiborning bir yerga (narsaga) to'planishi; kuchlanish bosimi, qisish
- sparen** *vi, vt* jamg'armoq, yig'moq; asramoq, ayamoq; tejamoq
- Geld sparen** pul jamg'armoq
- Mühe sparen** mehnatni ayamoq
- die Zeit sparen** vaqtni tejamoq
- weder Mühe noch Geld sparen** na mehnatni na pulni ayamoq

- Spargelder** *pl* to‘plangan (jamg‘arilgan) pul, mablag‘ sarmoya
- Spargroschen** *m -s*, = qora kunga jamg‘arilgan pul
- Sparkasse** *f =, -n* omonat kassa
- Sparkassenbuch** *n -(e)s, -bücher* omonat kassa daftarchasi
- Sparkasseneinlage** *f =, -n* omonat kassaga pul qo‘yish
- sparsam** *a* tejamli, isrof qilinmaydigan
- Sparte** *f =, -n* fanlar bo‘limi; qism, bo‘lim; sport turi, sport sektsiyasi
- Spass** *m -es, Spässe* hazil, mu-toiba; xavq  
**er versteht keinen Spass** u hazilni tushunmaydi  
**Spass muss sein** hazilsiz mumkin emas  
**Spass machen** hazil qilmoq; zavq bermoq  
**im Spass gesagt** hazil qilib (hazil uchun) aytilgan
- spassen** *vi* hazillashmoq  
**mit ihm ist nicht zu spassen** u bilan hazillasib bo‘lmaydi
- spasshaft** *a* qiziq, kulgili; xursand, shod
- Spassmacher** *m -s*, = hazilkash
- spät** *a* kech; bevaqt  
**zu später Zeit** kechki payt  
**in später Nacht** yarim tunda  
**im späten Sommer** kech yozda (yozning oxirida)  
**wie spät ist es ?** soat necha?  
**es ist schon spät** kech bo‘ldi  
**zu spät kommen** kech kelmoq  
**spät im Jahr** yilning oxirida
- Spätapfel** *m -s* kechki (qishki) olma
- Spaten** *m -s*, = belkurak
- später** *a* kechroq
- Spätfrost** *m -es* kechki ayoz
- Spätherbst** *m -es, -e* kech kuz
- Spätjahr** *n -(e)s* yil oxiri
- Spätling** *m -s, -e* kechki hosil; kechikkan
- Spatz** *m -en, -en* chumchuq; ko‘pni ko‘rgan odam  
**die Spatzen pfeifen es (schon) von allen Dächern** buni hamma biladi (hammaning og‘zida)
- spazieren, spaziergehen** *vi (s)* sayr qilmoq, tomosha qilmoq; aylanib yurmoq
- Spaziergang** *m -(e)s, -gänge* sayr, tomosha
- Speck** *m -(e)s, -e* cho‘chqa yog‘i
- speckfett** *a* juda yog‘li
- spedieren** *vt* jo‘natmoq, yubormoq
- Speicher** *m -s*, = ombor  
**das Getreide (die Ware) lagert im Speicher** don (mol) omborda saqlanadi
- speichern** *vt* omborga taxlamoq, omborda saqlamoq; yig‘moq, termoq
- Speise** *f =, -n* ovqat, taom, oziq, yemak  
**leichte Speise** yengil taom  
**Speise kosten** ovqatni tatib ko‘rmoq  
**geniessbare Speise** yesa bo‘ladigan taom  
**geistige Speise** ruhiy ozuqa  
**Speise und Trank zu sich**

- nehmen** yemoq va ichmoq  
**j-n mit Speise und Trank**  
**verstehen** bironvi ovqat bilan to'yg'izmoq va ichirmoq  
**Speisehalle** *f* =, -*n* restoran, oshxona; yemakxona  
**Speisekammer** *f* =, -*n* ombor  
**Speisekarte** *f* =, -*n* menyu (taomlar ro'yxati)  
**das Gericht steht nicht auf der Speisekarte** ovqat menyuda ko'rsatilmagan  
**nach der Speisekarte essen** kartochka yoki talon bilan ovqatlanmoq  
**speisen** *vi* ovqatlanmoq, yemoq; boqmoq, ovqatlantirmoq  
**zu Mittag speisen** tushlik qilmoq  
**zu Abend speisen** kechki ovqatni yemoq  
**die Kinder speisen** bolalarni boqmoq (ovqatlantirmoq)  
**Speiseröhre** *f* =, -*n* qizilo'ngach  
**Speisewagen** *m* -*s*, = vagondagi restoran  
**spektakeln** *vi* majora, janjal qilmoq  
**spektral** *a* *fiz.* spektrga oid  
**Spektralanalyse** *f* =, -*n* *fiz.* spektral tahlil (analiz)  
**Spektroskop** *n* -*s*, -*e* *fiz.* spektroskop (optik spektorlarni kuzatish asbobi)  
**Spektrum** *n* -*s* *fiz.* spektr  
**Spekulant** *m* -*en*, -*en* olib-sotar, chayqovchi, savdogar  
**Spende** *f* =, -*n* xayr-ehson, hadya, iona; sadaqa; nazr; qurbonlik;  
 jonini fido qilish  
**spendieren** *vt* mehmon qilmoq, ziyofat bermoq; siylamoq; pul sarflamoq  
**heute spendiere ich jedem eine Portion Eis** bugun men hammalaringizni muzqaymoq bilan mehmon qilaman  
**er hat für diesen Zweck hundert sum spendiert** u bu maqsad uchun yuz so'm sarf qildi  
**Sperling** *m* -*s*, -*e* chumchuq, qarg'a  
**Sperre** *f* =, -*n* panjara; to'siq  
**sperrern** *vt* devor aylantirib olmoq; o'rab olmoq; to'sib qo'yimoq, pana qilmoq  
**Sperrzone** *f* =, -*n* taqiqlangan zona; man qilingan hudud  
**Spezialarbeiter** *m* -*s*, = malakali xodim (ishchi)  
**spezialisieren** *vt* taqsimlamoq; qismlarga ajratmoq; aniqlamoq  
**Spezialist** *m* -*en*, -*en* mutaxassis  
**Spezialfach n, Spezialität** *f* =, -*en* mutaxassislik, kasb, ixtisos  
**Spezialresolution** *f* =, -*en* maxsus qaror; shaxsiy qaror  
**speziell** *a* maxsus, alohida; shaxsan, bevosita  
**spezielle Terminologie** maxsus terminalogiya  
**spezielle Kleidung** maxsus kiyim  
**spezielles Werkzeug** maxsus asbob  
**spezielle Meinung** alohida fikr  
**adv du sollst das nicht speziell sagen** shaxsan sen bu gapni

- aytmasliging kerak  
**wir wollen speziell diesen Standpunkt betrachten** bizlar bu fikrni shaxsan muhokama qilmoqchimiz
- spezifisch** *a* o'ziga xos; *fiz.* solishtirma og'irlik, hajm, massa
- Sphäre** *f* =, *-n mat.* shar, sfera; *astr.* sfera, osmon gumbazi; yer shari; soha
- Spiegel** *m* -s, = oyna, ko'zgu; reflektor; tasvir  
**ein blinder Spiegel** xira oyna  
**sich im Spiegel besehen** o'zini oynada ko'rmoq  
**j-n den Spiegel vorhalten** birovga uning kimligini oynaday ravshan qilib ko'rsatmoq
- spiegelartig** *a* oynasimon, ko'zguga o'zshash
- spiegelglatt** *a* oynaday silliq
- spiegeln** *vi* yaltiramoq, chaq nab turmoq; yarqiramoq; yoritmoq; tasvirlamoq  
**im Hause spiegelt alles** uydagi hamma narsa yaltirab ko'rinadi  
**der Artikel spiegelt die historische Situation** maqola tarixiy sharoitni tasvirlaydi  
**sich spiegeln** ko'rinmoq, aks etmoq  
**der Mond spiegelt sich im Wasser** suvda oying aks ko'rinadi  
**in seinen Werken spiegelt sich der Geist der Zeit** uning asarlarida zamon (davr) ruhi aks ettiriladi
- Spiel** *n* -(e)s, -e o'yin; bir partiya o'yin; karta o'yini; o'yin san'ati; ijro etish
- Spielart** *f* =, -en o'yin usuli; *biol.* tur xili
- spielen** *vt, vi* o'ynamoq; ijro etmoq; hazil qilmoq; bosib o'tmoq; hazillashmoq  
**Ball spielen** koptok o'ynamoq  
**Billard spielen** bilyard o'ynamoq  
**Karten spielen** karta o'ynamoq  
**sich müde spielen** charchaguncha o'ynamoq  
**falsch spielen** xato o'ynamoq  
**den Helden spielen** qahramon rolini ijro etmoq  
**er lasst nicht mit sich spielen** u bilan hazillashib bo'lmaydi
- Spielfeld** *n* -(e)s, -er o'yin maydoni; kort (tennis); erkin harakat
- Spielfilm** *m* -(e)s, -e badiiy film
- Spielführer** *m* -s *sport* jamoa kapitani
- Spielkamerad** *m* -en, -en yoshlikdagi do'st (o'rtoq)
- Spielleiter** *m* -s, = rejissyor; hakam (sport)
- Spielsache** *f* =, -n o'yinchoq
- Spieluhr** *f* =, -en o'yin soati
- Spielzeit** *f* =, -en teatr mavsumi
- Spielzeug** *m* -es, -e o'yinchoq
- Spielverlängerung** *f* =, -en qo'shimcha vaqt
- Spiessglanz** *m* -es *xim.* surma
- spinnen** *vi* yigirmoq
- spintisieren** *vi* donolik qilmoq o'ylamoq; orzu qilmoq
- Spion** *m* -s, -e josus, shpion  
**den Spion entlarven** josusni

- qo'lga tushirmoq
- Spionageabwehr** *f* = kontrrazvedka (qarshi ish olib boruvchi maxsus tashkilot)
- spionieren** *vi* josuslik qilmoq
- spiral** *a* spiral, burama chiziq
- spiralförmig** *a* spiralsimon
- Spirituosen** *pl* spirtli ichimlik; aroq mahsuloti
- Spiritus** *m* =, =*se* spirt
- gereinigter Spiritus** tozalan-gan spirt
- Spital** *n* -*s*, -*e* -täler kasalxona, hospital; g'aribxona
- spitz** *a* o'tkir, keskir; o'tkir uchli
- ein spitzer Messer** o'tkir pichoq
- eine spitze Nadel** uchi o'tkir nina, igna
- die spitze Ecke** tor burchak
- spitzer Winkel** o'tkir burchak
- er hat eine spitze Zunge** uning tili achchiq (tili zahar)
- spitze Bemerkungen** qattiq tanbeh
- Spitze** *f* =, -*n* uch; tig'; cho'qqi; boshqarish; biror narsaning uchi
- Spitze des Bleistiftes** qalam uchi
- Spitze des Berges** tog' cho'q-qisi
- an der Spitze der Delegation stehen** delegatsiyaga boshchilik qilmoq
- an der Spitze des Staates stehen** davlat boshida turmoq
- j-n an die Spitze stellen** birovni boshliq qilib tayinlamoq
- sich an die Spitze des Kampfes stellen** kurashni boshqarmoq
- spitzen** *vt* o'tkirlamoq; charx-lamoq; o'tkir qilmoq; uchini chiqarmoq; umid bog'lamoq
- den Bleistift spitzen** qalamning uchini chiqarib qo'yamoq
- auf ein Buch spitzen** kitobga umid bog'lamoq
- Spitzenarbeiter** *m* -*s* = ilg'or (ishchi)
- die Spitzenarbeiter der Landwirtschaft** qishloq xo'jalik ilg'orlari
- Spitzenzeugnis** *n*, -*nisse* oliy sifatli mahsulot
- Spitzenfahrer** *m* -*s*, = lider, musobaqa g'olibi
- Spitzenfrist** *f* =, -*en* rekord davri; eng qisqa vaqt
- Spitzenkönner** *m* -*s*, - rekordsmen, rekordchi; o'z ishining ustasi
- Spitzenqualität** *f* =, -*en* yuqori (a'lo) nav
- spitzig** *a* o'tkir, uchli
- Spitzname** *m* -*ns*, -*n* laqab
- spitzwinkelig** *a* o'tkir burchakli
- splitternackt** *a* butunlay yalongoch
- spoliieren** *vt* talamoq; tolon-taroj qilmoq; bosqinchilik qilmoq
- sponsieren** *vi* (mit+ D) g'amxo'rlik qilmoq; ko'nglini olmoq
- spontan** *a* tabiiy; tayyorgarliksiz
- Sport** *m* -(*e*)*s*, -*e* sport; jismoniy tarbiya
- einen Sportpflegen** sportning biror turi bilan shug'ullanmoq
- Sportabzeichen** *n* -*s*, = sport zna-



chogi (belgisi)  
**Sportleistung** *f* =, - *en* sport yutuqlari, natijalari  
**Sportmannschaft** *f* =, - *en* sport komandasi (jamoasi)  
**Sportplatz** *m* -*es*, -*plätze* sport maydoni  
**das Neueste aus der Sportwelt** sport olamidani yangiliklar  
**sporttreibend** *a* sport bilan shug'ullanadigan  
**Spott** *m* -(*e*)*s* birovning ustidan kulish, masxara (mazax, kulgi) qilish; kinoya, piching, xo'rlash  
**spottbillig** *a* juda arzon, suv tekin  
**Spottgedicht** *n* -(*e*)*s*, - *e* satirik she'r, satira  
**Sprachapparat** *m* -(*e*)*s*, -*e* nutq organlari  
**Sprachatlas** *m* =, -*ses*, -*lanten* nemis shevalari atlas  
**Sprachbau** *m* -(*e*)*s* nutq (qurulishi) tuzulishi; til tizimi; sintaksis  
**Sprachbereichung** *f* = tilning boyib borishi  
**Sprachdenkmal** *n* -(*e*)*s*, - *mäler* yozma til yodgorliklari  
**Sprache** *f* =, - *n* til; stil (uslub); nutq  
**die alten Sprachen** eski, qadimgi tillar  
**die lebende Sprache** jonli til  
**gemeinsame Sprache** umumiy til  
**er kann vier Sprachen** u to'rt tilni biladi  
**er spricht zwei Sprachen** u ikki tilda gaplashadi (gapiradi)

**aus einer Sprache in die andere übersetzen** bir tildan ikkinchi tilga tarjima qilmoq  
**literarische Sprache** adabiy til  
**die Sprache der Presse** matbuot (gazeta) tili  
**die Sprache des täglichen Lebens, des Umgangs** jonli so'zlashuv tili  
**er ist ein Meister der Sprache** u so'z ustasi  
**Sprachforscher** *m* -*s*, = lingvist, Filolog, tilshunos  
**Sprachkunde** *f* = tilshunoslik  
**sprachkundig** *a* til biladigan  
**Sprachlehre** *f* =, -*n* grammatika  
**Sprachlehrer** *m* -*s*, = til o'qituvchisi  
**Sprachpflege** *f* = nutq madaniyati  
**Sprachschatz** *m* -*es*, -*schätze* so'z boyligi  
**Sprachwissenschaft** *f* =, -*en* tilshunoslik fani; filologiya  
**sprechen** *vi* gapirmoq, so'zlashmoq; gaplashmoq; *vt* hukm chiqarmoq, qaror chiqarmoq  
**gut (fliessend) deutsch sprechen** nemischa yaxshi (erkin) gaplashmoq  
**durch (über) den Rundfunk sprechen** radio orqali gapirmoq  
**durch (über) das Fernsehnetz sprechen** televideniya orqali gapirmoq  
**wir sprechen uns noch!** Hali gaplashamiz!  
**ich habe mit dir zu sprechen** men sen bilan gaplashishim kerak

**das spricht sich herum** bu haqda hamma joyda gapirmoqda  
**auf j-n gut zu sprechen sein** birov haqida yaxshi fikr bildirmoq  
**auf j-n schlecht zu sprechen sein** birov haqida yomon fikrda bo'lmoq  
**ein Urteil sprechen** hukm chiqarmoq  
**Recht sprechen** qaror chiqarmoq  
**j-n schuldig sprechen** birovni aybdor deb bilmoq  
**kein Wort sprechen** bir ogiz ham so'z aytmay (aytmasdan)  
**darf ich Genossen B. sprechen?** o'rtoq B. bilan gaplashishim mumkinmi?  
**ich bin heute für ihn nicht zu sprechen** men bugun uni qabul qila olmayman  
**Sprecher** *m -s,* = notiq, orator, dokladchi; vakil; diktör; artist  
**geübter Sprecher** tajribali notiq  
**Sprecher einer Partei** partiya vakili  
**Sprecher einer Botschaft** elchixonasi vakili  
**als Sprecher wirkten ... mit** dublyajda artistlardan ... ijro etishdi  
**Sprechfilm** *m -(e)s, -e* ovozli film  
**Sprechstunde** *f =, -n* qabul soatlari  
**Sprechzimmer** *n -s,* = qabulxona, qabul qilish xonasi  
**Sprechtage** *m -(e)s, -e* qabul kuni  
**Spree** *f* Shpre (daryo)  
**Sprenge** *m -s,* = tuman, viloyat,

okrug  
**sprenge** *vt* portlatmoq, buzmoq, sindirmoq; sug'ormoq, suv sepmoq, suv bermoq; hakklamamoq; sakrab yurmoq  
**den Felsen sprenge** qoyani portlatmoq  
**die Brücke sprenge** ko'priknini portlatmoq  
**eine Versammlung sprenge** majlisni buzmoq  
**die Politik sprenge** siyosatga putur yetkazmoq  
**das Wasser sprenge die Eisdecke** suv muz qatlamini buzdi  
**die Aufregung sprenge ihm fast die Brust** uning yuragi hayojondan yorilay dedi  
**die Blumen sprenge** gullarni sug'ormoq  
**die Strasse sprenge** ko'chaga suv sepmoq  
**Sprenge** *m -(e)s, -e* portlovchi modda  
**Sprechwort** *n -(e)s, -wörter* maqol, matal  
**Springbrunnen** *m -s,* = fontan, favvora  
**springen** *vi (s)* sakramoq, irg'imoq; yorilib ketmoq, sinib ketmoq; uzulib ketmoq  
**das Kind springt** bola sakrayapti  
**ans Ufer springen** qirg'oqqa sakramoq  
**aufs Pferd springen** otga sakrab minmoq  
**von Stein zu Stein springen**

- toshdan toshga sakramoq  
**Sprint** *m* -(e)s, -e *sport.* sprint  
 (qisqa masofaga yugurish)  
**Sprit** *m* -(e)s, -e tozalangan spirt  
**Spritze** *f* =, -n shpritz  
**j-n eine Spritze geben** birovga  
 ukol qilish (tomirga yoki teri  
 ostiga dori yuborish)  
**spritzen** *vt* purkamoq, sachratmoq  
**die Blumen spritzen** gullarga  
 suv purkamoq  
**spröde** *a* moʻrt, sinuvchan, zaif;  
 nimjon  
**Spruch** *m* -(e)s chuqur maʼnoli  
 gap, hikmatli soʻz; hukm; qaror  
**spruchreif** *a* qaror uchun tayyor-  
 langan  
**Sprudel** *m* -s, = kalit; mineral  
 buloq; gazlangan suv; oqim  
**Sprühregen** *m* -s, = mayda  
 yomgʻir  
**Sprung** *m* -(e)s, Sprünge sakrash,  
 irgʻish; yorilish, darz ketish  
**eine Sprung mit Anlauf** yug-  
 urib kelib sakrash  
**ein Sprung über ein Hindernis**  
 toʻsiqdan sakrash  
**zum Sprung ansetzen** toʻsiq-  
 dan sakrab oʻtish  
**bis zum Bahnhof ist es nur ein**  
**Sprung** vokzalgacha bir qadam  
**sprungweise** *adv* irgʻishlab, sak-  
 rab  
**spucken** *vi* tupurmoq, tuflamoq  
**Spucke nicht!** Tupurma!  
**Spuk** *m* -(e)s, -e xayoliy sharpa,  
 kulanka, arvoh; koʻzga koʻri-  
 nish; shovqin-suron  
**spukhaft** *a* xayolda (tasavvurda)  
 koʻrinadigan; xayoliy; xira, no-  
 aniq; oʻzgarib turadigan  
**spülen** *vt* chayqamoq, yuvmoq  
**den Mund spülen** ogʻizni chay-  
 qamoq  
**Spülung** *f* =, -en chayqash, yuvish,  
 tozalash  
**Spülung des Magens** oshqo-  
 zonni yuvish, tozalash  
**Spülung des Motors** motorni  
 tozalash  
**Spülwasser** *n* -s, -wässer yuvindi,  
 magʻzava; tashlandiq suv  
**Spund** *m* -(e)s tiqin, vtulka  
**Spur** *f* =, -en iz, qoldiq; yoʻl  
**spürbar** *a* sezuvchan, sezilarli  
**frische Spur** yangi iz  
**Spur eines Hasen** quyon izi  
**Spur verlieren** izni yoʻqotib  
 qoʻymoq  
**Spur entdecken** izni topmoq  
**einer Spur folgen, eine Spur**  
**verfolgen** iziga tushmoq, izidan  
 bormoq  
**breite Spur** keng iz  
**schmale Spur** tor iz  
**die Spuren uralter Kultur** qa-  
 dimiy madaniyat yodgorliklari  
**spüren** *vt* sezmoq, his qilmoq  
**Schmerz spüren** ogʻriq sezmoq  
**am eigenen Leibe spüren** oʻz  
 boshidan kechirmoq  
**nach einem Wilde spüren** iziga  
 tushmoq, izlamoq  
**nach einer Handschrift spüren**  
 qoʻlyozmani izlamoq  
**spürlos** *a* izsiz, benomu-nishon;  
 sezilmaydigan, koʻrinmaydigan  
**Staat** *m* -(e)s, -en davlat, mam-

- lakat, o'lka; shtat (AQSh); kiyim-bosh, libos
- selbständiger Staat** mustaqil davlat
- unabhängiger Staat** tobe bo'lmagan (qaramsiz, mustaqil) davlat
- demokratischer Staat** demokratik davlat
- neutraler Staat** betaraf davlat
- sie hatte ihren besten Staaten** u yaxshi kiyimda edi
- Staatenbund** *m* -(e)s davlatlar ittifoqi
- staatenlos** *a* fuqoraligi bo'lmagan
- staatlich** *a* davlat, davlatga oid
- Staatliche Zentralverwaltung für Statistik** davlat markaziy statistika boshqarmasi
- Staatsaktion** *f* =, -en davlat ahamiyatiga ega bo'lgan ish; davlat tadbiri
- Staatsangehörige** *m, f* davlat fuqorasi
- Staatsanwalt** *m* -(e) davlat prokurori, prokuror
- Staatsaufbau** *m* -(e)s davlat tuzumi
- Staatsbesuch** *m* -(e)s, -e visit, davlat boshlig'ining rasmiy tashrifi
- Staatsbewusstsein** *n* -s siyosiy onglilik
- Staatsbudget** *n* -s, -s davlat byudjeti
- Staatsbürgerrecht** *n* -(e)s fuqoralik huquqi
- Staatseinkommen** *n* -s, = davlat daromadi
- Staatsgewalt** *f* = davlat hokimiyati
- Staatsgrundgesetz** *n* -es, -e konstitutsiya, davlatning asosiy qonuni (qomusi)
- Staatshaushalt** *m* -(e)s, -e davlat byudjeti
- Staatskasse** *f* =, -n xazina, bank
- Staatskörper** *m* -s, = davlat apparati
- Staatskosten** *pl* davlat xarajatlari
- Staatsmann** *m* -(e)s davlat arbobi, siyosiy arbob
- Staatsprüfung** *f* =, -en davlat imtihoni
- Staatsicherheit** *f* = davlat xavfsizligi
- Staatsstreich** *m* -(e)s, -e davlat to'ntarilishi
- Staatsverbrechen** *n* -s, = davlatga qarshi jinoyat, davlatga qilingan xiyonat
- Staatsvertrag** *m* -(e)s davlat shartnomasi (kelishuvi), bitimi
- Staatsverwaltung** *f* = davlat boshqarma organi; davlat boshqaruvi
- Staatswirtschaft** *f* =, -en davlat xo'jaligi, mamlakat iqtisodiyoti
- Staatswirtschaftslehre** *f* = siyosiy Iqtisod (fan)
- Staatswissenschaften** *pl* siyosiy-ijtimoiy fanlar
- Stab** *m* -(e)s kaltak, tayoq; hasa; temir xivchin; shtab
- Stabchef** *m* -s, -s shtab boshlig'i
- Stabhochsprung** *m* -(e)s balandlikka sakrash
- stabil** *a* mustahkam, bir darajaga keltirilgan; turg'un; barqaror
- stabilisieren** *vt* barqaror qilmoq,

birdek (bir xil) tutib turmoq  
**Stacheldraht** *m* -(e)s tikonli sim  
**stachelförmig** *a* namataksimon  
**Stadion** *n* -s stadion, maydon  
**Stadium** *n* -s stadiya, davr; daraja, faza  
**Stadt** *f* = shahar  
**grosse Stadt** katta shahar  
**Stadt und Land** shahar va qishloq  
**im Zentrum der Stadt** shahar markazida  
**im Weichbild der Stadt wohnen** shahar atrofiga yashamoq  
**in die Stadt ziehen** shaharga ko'chmoq  
**Stadtauswahl** *f* =, -en shahar terma komandasi  
**stadtauswärts** *adv* shahar cheti, tashqarisi  
**Stadtbezirk** *m* -(e)s, -e shahar tumani; kvartali  
**Städtchen** *n* -s, = shaharcha  
**Stadtvergleichskampf** *m* -(e)s shaharlararo sport musabobasi  
**Stadtkern** *m* -(e)s, -e shahar markazi  
**Stadtparteikomitee** *n* -s, -s shahar partiya komiteti  
**Stadtteil** *m* -(e)s, -e shaharning bir qismi; mahalla  
**Stadtvolkshochschule** *f* =, -n kechki shahar universiteti  
**Staffel** *f* =, -n pog'ona, zinapoya, pillapoya; bosqich, daraja; estafeta; komanda  
**staffeln** *vi* tartibga solmoq; termoq, joylashtirmoq; tizmoq; o'ziga og'dirmoq

**Stahl** *m* -(e)s po'lat  
**rostfreier (nichtrostender)**  
**Stahl** zanglamaydigan po'lat  
**ein Mann von Stahl (und Eisen)** temir irodali kishi  
**Stahlarbeiter** *m* -s, = po'lat quyuvchi  
**stählen** *vt* toblanmoq, chiniqtirmoq  
**den Körper stählen** badanni chiniqtirmoq  
**den Stahl stählen** po'latni toblamoq  
**sich stählen** chiniqmoq  
**stählern** *a* po'latga oid, po'latdek  
**ein stähleres Werkzeug** po'lat asbob  
**Stahlfeder** *f* =, -n po'latdan yasalgan pero; po'latdan qilingan prujina  
**Stahlgiesser** *m* -s, = po'lat quyuvchi  
**Stahlgiesserei** *f* =, -en po'lat quyadigan tsex (zavod)  
**stahlhart** *a* po'latday qattiq  
**Stahlhütte** *f* =, -n po'lat quyish zavodi  
**Stahlkammer** *f* =, -n seyf  
**staken** *vi* biron narsaga tirilib itarilmoq; *fiz.* bir-birini itarmoq; katta qadam tashlamoq  
**Stall** *m* -(e)s molxonona, otxona  
**Vieh in den Stall einstellen** mollarni molxonaga qamamoq (kiritmoq)  
**einen Stall ausmisten** molxononani tozalamoq  
**Stamm** *m* -(e)s, -stämme *biol.* tana, poya, o'zak; tur; to'p; zam-

- barak; ustunning o'rta qismi, beli; *gramm.* o'zak, negiz, urug', qabila; asos; oila; asosiy tarkib
- Stamm des Baumes** daraxt tanasi
- er war der letzte seines Stammes** u o'z avlodining (urug'ining) oxirgisi edi
- der Stamm der Besucher** mehmonlarning doimiy tarkibi
- Stamm des Wortes** so'z o'zagi
- stammeln** *vi* duduqlanmoq, soqovlanmoq; tutilib gapirmoq
- stammen** *vi (s)(aus +D)* sodir bo'lmoq; kelib chiqmoq; qarashli bo'lmoq, xos bo'lmoq; vujudga kelmoq; kirib kelmoq
- er stammt aus einer Arbeiterfamilie** u ishchi oilasida tug'ilgan
- er stammt aus Samarkand** u asli Samarqandlik
- das Wort stammt aus dem Lateinischen** bu so'z lotin tilidan olingan (o'zlashgan)
- das Gedicht stammt von Goethe** bu she'r Gyote qalamiga mansub (qarashli)
- stämmig** *a* girdig'um, kaltabaqay, miqti (odam), yo'gon, norg'il; ildizi baquvvat (daraxt), zich
- ein stämmiger Baum** yo'g'on daraxt
- ein stämmiger Mann** norg'ul odam
- Stammkunde** *m -n, -n* doimiy xaridor
- Stammorganisation** *f =, -en* markaziy tashkilot
- Stammutter** *f =* urug' boshlig'i, urug' oqsoqoli; asos soluvchi, asos qurgan kishi
- stammverwandt** *a* qabiladosh, bir qabiladan tarqagan
- Stammwort** *n -(e)s* tub so'z, so'z o'zagi
- Stand** *m -(e)s*, Stände o'rin, joy; hol, ahvol; tutgan o'rni; daraja; kurs; kiosk; do'kon; og'il; molxona
- Stand des Beobachters** kuzatuvchining joyi
- gut im Stande sein** yaxshi ahvolda bo'lmoq
- fester Stand** zo'r mavqe
- Stand der Pferde** otxona
- Stand der Händler** savdo do'koni
- Standarte** *f =, -n* bayroq; tug'
- Standbild** *n -(e)s, -er* haykal, yodgorlik
- standhaft** *a* chidamli, pishiq, puxta, mahkam; sabotli; matonatli; mustahkam; yengilmas; qattiq
- ständig** *a* doimiy, davomli, uzoq chidaydigan; cheksiz, qat'iy
- ende ständige Anschrift** doimiy adres (manzil)
- ein ständiger Ausschuss** doimiy komitet
- das ständige Einkommen** qat'iy maosh
- ein ständiger Lehrer** shtatdagi o'qituvchi
- ein ständiger Ärger** doimiy xafalik, xafaqonlik
- Standort** *m -(e)s, -e* avtomobillar turadigan joy; joylashish; gar-

- nizon
- standortgebunden** *a* ma'lum hudud bilan bog'liq bo'lgan
- Standpunkt** *m* *-(e)s, -e* nuqtai nazar, fikr, qarash, mulohaza; joy
- einen Standpunkt darlegen** fikr bayon qilmoq
- vom Standpunkt der Wissenschaft aus** fan nuqtai nazaridan
- Standwaage** *f* = gorizontal muvozanat
- Stange** *f* =, *-n* xoda, uzun yog'och; langar cho'p; poya, tayoq; shtanga
- stänkern** *vi* sasimoq, aynimoq; havoni buzmoq
- stanzen** *vt* zarb qilmoq, tamg'alamoq
- Stapelware** *f* =, *-n* ommaviy ishlab-chiqarish mahsuloti
- Stapfe** *f* =, *-n* iz (oyoq izi), asorat
- Star** *m* *-(e)s, -e* chug'urchuq, mayna; katarakta (ko'z kasalligi); yulduz, mashhurlik (kino, teatr)
- Star pfeift** chug'urchiq chug'ur-layapti
- Star des Theaters** sahna yulduzi
- stark** *a* kuchli, qudratli; katta; irodali; mustahkam; qalin, yo'g'on, ko'p sonli
- ein starker Wind** kuchli shamol
- starke Nachfrage** katta talab
- die starke Deklination** kuchli turlanish
- starke Verben** kuchli fe'llar;
- kuchli, irodali
- ein starker Mann** kuchli odam
- ein starker Schachspieler** kuchli shaxmatchi
- Stärke** *f* =, *-n* kuch, qudrat; qalindlik; chidamlilik; qattiqlik; ohar; o'tkirlilik
- stärken** *vt* kuchaytirmoq, mustahkamlamoq; oharlamoq
- die Gesundheit stärken** salomatlikni mustahkamlamoq
- Starkstrom** *m* *-(e)s, -ströme* yuqori kuchlanishdagi tok (energiya)
- Stärkung** *f* =, *-en* mustahkamlash, kuch-qudratini oshirish; kuchaytirish
- die Stärkung des Friedens** tinchlikni mustahkamlash
- starr** *a* harakatsiz, diqqat bilan, astoydil; sovigan; o'chgan; qattiq; o'jar, qaysar
- starren** *vi* diqqat bilan qaramoq; tikilib qaramoq; qotib qolmoq
- starrköpfig** *a* o'jar, qaysar
- starrsinnig** *a* o'jar, qaysar, tixir
- Start** *m* *-(e)s, -e* *sport.* start uchun; boshlanishi
- an den Start gehen** startga chiqmoq
- die Boxer werden in diesem Monat an den Start gehen** bokschilar bu oy musobaqada qatnashadilar
- Start des Flugzeuges** samalyotning uchish oldi starti
- der Start des Lebens** hayotning boshlanishi
- startbereit** *a* startga tayyor



**starten** *vi (s)* boshlamoq; uchirib yubormoq  
**Starter** *m -s,* = starter (avtomobil)  
**Startgenehmigung** *f =,-en* musobaqada qatnashishga ruxsat berish  
**startklar** *a* ishni bajarishga tayyorlik  
**Station** *f =,-en* stantsiya; bekat; manzil, turadigan joy; bo'lim  
**der Kranke liegt auf der Station I.** bemor birinchi bo'limda yotibdi  
**Station der Eisenbahn** temir yo'l stantsiyasi  
**der Zug hält auf jeder Station** poezd hamma stantsiyalarda to'xtaydi  
**meteorologische Station** meteorologiya stantsiyasi (byurosi)  
**Station der landwirtschaftlichen Maschinen** qishloq xo'jaligi mashinalari stantsiyasi  
**Stationsschwester** *f =,-n* bo'lim hamshirasi  
**Stationsvorsteher** *m -s,* = stantsiya boshlig'i  
**Statistik** *f =* statistika  
**die statistische Angaben** statistik ma'lumotlar (jadval)  
**Stativ** *n -s,-e* shtativ (birorta asbob o'rnatiladigan taglik)  
**statt** *prp (G)* o'rniga, o'rnida  
**Stätte** *f =,-n* joy, o'rin, yer  
**stattfinden** *vi* bo'lmoq, bo'lib o'tmoq, voqea bo'lmoq, sodir bo'lmoq; joy olmoq  
**heute findet eine Versammlung statt** bugun majlis bo'ladi

**stattgeben** *vi* qoniqtirmoq; bajarimoq, qanoatlantirmoq  
**einer Bitte stattgeben** iltimosni qondirmoq  
**statthaft** *a* maqbul, ma'qul, muvofiq keladigan, yaroqli  
**stattlich** *a* qad-qomati kelishgan, xushbichim; atoqli, ko'rinarli  
**Statue** *f =,-n* haykal, haykalday qotib turish  
**statuieren** *vt* joylashtirmoq, o'rnatmoq, qo'yimoq; belgilamoq, aniqlamoq, joriy qilmoq  
**Status** *m =* ahvol, holat; vaziyat  
**Statut** *n -(e)s, -en* nizom, ustav, tartibot; tavsif, tasvir  
**Statut der Partei** partiya ustavi  
**Statut des Landwirtschaftlichen Artels** qishloq xo'jaligi artelining nizomi  
**gemäss dem Statut** nizomga asosan (ko'ra)  
**Staub** *m -(e)s* chang, gard  
**den Staub schlucken** chang yutmoq  
**den Staub wischen** changni artmoq  
**mir ist Staub in die Augen geflogen** ko'zimga chang kirdi  
**Staubbecken** *n -s,* = suv ombori  
**staubbedeckt** *a* chang bilan qoplangan, changli  
**staubdicht** *a* chang o'tmaydigan  
**stauben** *vi* changitmoq, changitmoq, chang bosmoq  
**dieser Weg staubt** bu yo'l changiydi  
**die Bücher auf dem Regal stauben** etajerkadagi kitoblarni

- chang bosadi  
**Staubgänger** *m-s*, = chang yut-  
kich  
**staubfrei** *a* changsiz, changi yo‘q  
**staubig** *a* chang(li)  
**ein staubiger Weg** changli yo‘l  
**stauchen** *vt* itarib yubormoq;  
turtmoq, urmoq; urib olmoq;  
parchinlamoq  
**stauen** *vt* bug‘moq, bog‘lamoq,  
to‘xtatmoq  
**staunen** *vi* (über+ *A*) ajablanmoq,  
hayron qolmoq  
**Staurohr** *n* -(e)s, -e *fiz.* pito  
trubasi, bosim trubasi  
**stechen** *vt* teshmoq, suqmoq; san-  
chmoq; o‘ymoq  
**Löcher in die Ohrläppchen ste-  
chen** quloqni (zirak taqish  
uchun) teshmoq  
**eine Biene hat ihn den Finger  
gestochen** asalari uning bar-  
mog‘ini chaqdi  
**ein Bild in Kupfer stechen**  
misga rasm o‘yib solmoq; *vi*  
**die Sonne sticht** quyosh qiz-  
dirmoqda (kuydirmoqda)  
**in die Augen stechen** ko‘zga  
tashlanmoq  
**stecken** *vt* tiqmoq, suqmoq; o‘t-  
kazmoq  
**beide Hände in die Taschen ste-  
cken** ikkala qo‘lini cho‘ntakka  
tiqmoq  
**den Rest steckte er sich in die  
Tasche** u qaytimini cho‘ntakka  
soldi  
**eine Blume stecken** gul qada-  
moq  
**den Ring an den Finger steck-  
en** uzukni barmoqqa taqmoq  
**j-n ins Gefängnis stecken** bi-  
rovni qamoqqa tiqmoq  
**sich (D) ein Ziel stecken** maq-  
sad qilib olmoq  
**wo steckst du (wieder)?** sen  
qayerda yuribsan?  
**dahinter steckt etwas** buning  
orqasida bir gap bor  
**steckenbleiben** *vi* (*s*) tiqilib qol-  
moq, botib qolmoq  
**im Schlamm steckenbleiben**  
loyga tiqilib (botib) qolmoq  
**im Sand steckenbleiben** qumga  
botib qolmoq  
**steckenlassen** *vt* qoldirmoq (ka-  
litni qulfdi)  
**Stecker** *m* -s, = shtepsel (elektr  
asbobi), rozetka  
**Stecknadel** *f* =, -n igna tugma  
**Steg** *m* -(e)s, -e so‘qmoq yo‘l  
**ein Steg durch die Schlucht**  
tog‘ oralig‘idagi so‘qmoq yo‘l  
**ich kenne hier Weg und Steg**  
men bu yerdagi har bir so‘q-  
moqni bilaman  
**stehen** *vi* (*h*) turmoq (tik holatda);  
holatda bo‘lmoq  
**j-m im Wege stehen** yo‘lida  
ko‘ndalang bo‘lib turmoq  
**Tränen standen ihr in den Aug-  
en** uning ko‘zlarida yosh ko‘-  
rindi  
**das Getreide steht gut** hosil  
yaxshi bo‘ladi  
**Schlange stehen** navbatda tur-  
moq  
**mit j-m im Briefwechsel steh-**

**en** birov bilan xat yozishib turmoq  
**mit j-m in Verbindung stehen** biror kishi bilan aloqada bo'lmoq  
**sein Sinn steht nach anderen** u boshqa narsani orzu qiladi  
**ich stehe zu ihren Diensten** men sizning xizmatigingizga tayyorman  
**die Frage steht zur Debatte** masala muhokamaga qo'yiladi  
**zur Wahl stehen** saylov (ovoz) ga qo'ymoq  
**das wird ihm teuer zu stehen-kommen** bu unga qimmatga tushadi  
**in der Zeitung stehen** gazetada bo'lmoq (bosilmoq)  
**wie stehst du mit ihm?** Sening u bilan munosabating qanday?  
**die Arbeit steht noch so, wie war** ish qanday bo'lsa, shundayligicha turibdi  
**es steht zu hoffen** kutish mumkin (kutsa bo'ladi)  
**stehenbleiben** *vi (s)* to'xtamoq, turib qolmoq; to'xtab qolmoq; qo'nmoq  
**stehenlassen** *vt* qoldirmoq (joyida), tashlab ketmoq  
**stehlen** *vt* o'g'irlamoq, o'g'irlab ketmoq, olib qochmoq  
**Stehler** *m -s,* = o'g'ri, firibgar, qallob; muttahaam  
**steif** *a* qattiq, berch; dag'al, qo'pol; kuchli  
**steifen** *vt* ohorlamoq; mustahkamlamoq

**Steig** *m -(e)s, -e* so'qmoq, yolg'iz oyoq yo'l  
**steigen** *vi (s)* ko'tarilmoq, chiqmoq  
**auf den Berg steigen** toqqa ko'tarilmoq (chiqmoq)  
**das Flugzeug steigt in die Luft** samolyot havoga ko'tarilayapti  
**der Nebel steigt** tuman ko'tarilayapti  
**die Preise steigen** narxlar ko'tarilayapti  
**die Arbeitsproduktivität steigt** mehnat unumdorligi oshmoqda  
**das Wasser steigt** suv ko'tarilmoqda  
**auf den Stuhl steigen** stul ustiga chiqmoq  
**aufs Pferd steigen** otga minmoq  
**über die Mauer steigen** devordan oshib tushmoq  
**steigern** *vt* oshirmoq, kuchaytirmoq; qiyosiy va orttirma daraja yasamoq; yuksaltirmoq; ko'tarilmoq  
**die Preise steigern** narxni ko'tarmoq  
**die Miete steigern** ijara haqini oshirmoq (ko'tarmoq)  
**den Schmerz steigern** og'riqni kuchaytirmoq  
**den Widerspruch steigern** qarama-qarshilikni kuchaytirmoq  
**die Adjektive werden gesteigert** sifatlar qiyosiy va orttirma darajaga ega  
**Steigerung** *f =, -en* oshirish, yuksalish, ko'payish, ko'tarilish

**Steigerungsstufe** *f* =, -*n* sifat darajalari  
**Steigflug** *m* -(*e*)*s* tikka parvoz qilish  
**Steigung** *f* =, -*en* ko'tarilish, ko'payish, oshirish  
**Steigwinkel** *m* -*s*, = chiqish burchagi  
**steil** *a* tik, tikka  
**steilen** *vi* yuqoriga, tikka ko'tarilmoq  
**Steilküste** *f* =, -*n* tik qirg'oq  
**Stein** *m* -(*e*)*s*, -*e* tosh; donak; figura (shaxm.)  
**blitzender Stein** yaltiroq tosh  
**echter Stein** qimmatbaho tosh  
**Häuser aus Stein** tosh uylar  
**mit Steinen werfen** tosh otmoq  
**er leidet an Steinen in der Niere** uning buyragida tosh bor  
**er schläft wie ein Stein** u toshday qotib uxlayapti  
**Stein einer Pflaume** olxo'ri donagi  
**über Stock und Stein** juda shoshib  
**es friert heute Stein und Bein** bugun juda qattiq sovuq  
**steinalt** *a* qadimgi, juda eski; juda qari  
**ein steinalter Greis** juda qari chol (qariya)  
**Steinarbeiter** *m* -*s*, = tosh yoki g'isht teruvchi usta  
**Steinbock** *m* -(*e*)*s* *astr.* tog' echkisi  
**Steindruck** *m* -(*e*)*s*, -*e* litografiya, toshbosma  
**steinern** *a* tosh yoki g'ishtdan qilingan

**steinhart** *a* toshday qattiq  
**Steinhauer** *m* -*s*, = tosh yo'nuvchi, sangtarosh, toshlarosh  
**steinig** *a* toshli, toshloq  
**ein steiniges Ufer** toshli qirg'oq  
**Steinkohle** *f* =, -*n* toshko'mir  
**Steinkohlenlager** *n* -*s*, = toshko'mir qatlami, koni  
**Steinöl** *n* -(*e*)*s* neft  
**steinreich** *a* toshli, toshi ko'p; juda boy  
**ein steinreicher Mann** juda boy kishi  
**Steinschrift** *f* = tosh bosma harf  
**Steinzeichner** *m* -(*e*)*s* toshga rasm chizuvchi, naqqosh  
**Steinzeichnung** *f* =, -*en* toshdagi rasm, surat, tasvir; toshrasm  
**Steinzeit** *f* = tosh davri; tosh asri  
**stellbar** *a* yuradigan, harakat qiladigan, qimirlaydigan, suruldigan, ko'chma; chaqqon, serharakat, epchil  
**Steldichein** *n* = uchrashuv  
**Stelle** *f* =, - joy, o'rin; qism, yer, parcha; mansab, ish, xizmat  
**an Ort und Stelle sein** ko'zlangan joyda bo'lmoq  
**etw. an die richtige Stelle stellen** biron narsani o'z o'rniga qo'ymoq  
**an j-s Stelle einrücken** birovning o'rnini egallamoq  
**an die oberste Stelle setzen** biron narsani asosiy deb hisoblamoq  
**auf der Stelle sagst du es** sen buni hozirning o'zidayoq aytasan

- nicht von der Stelle kommen** oʻrindan qimirlamaslik
- zur Stelle sein** oʻrnida boʻlmoq
- sich um eine Stelle bewerben** lavozimga etishmoq
- verantwortungsvolle Stelle** maʼsul lavozim
- eine Stelle einsparen** shtatdagi oʻrinni qisqartirmoq
- stellen** *vt* qoʻymoq; oʻrnatmoq; yetkazib bermoq; ushlab turmoq
- das Glas auf den Tisch stellen** stakanni stol ustiga qoʻymoq
- den Stuhl in die Ecke stellen** stulni burchakka qoʻymoq
- einen Antrag stellen** taklif kiritmoq
- eine Aufgabe stellen** vazifa qilib qoʻymoq
- eine Bedingung stellen** shart qoʻymoq
- j-n an die Spitze stellen** birovni boshliq qilib tayinlamoq
- zur Verfügung stellen** ixtiyoriga bermoq (qoʻymoq)
- einen Verbrecher stellen** jinoyatchini qoʻlga tushirmoq
- sich stellen** turmoq, uchrashmoq; kelmoq; qatnashmoq
- die Fussballmannschaft N stellte sich der Mannschaft D** N futbol komandasi D futboll komandasi bilan uchrashdi
- sich j-m in den Weg stellen** bironing yoʻliga gʻov boʻlmoq
- sich in den Dienst einer Sache stellen** oʻzini biron ishga bagʻ- ishlamoq
- sich als Zeuge vor Gericht stellen** sudda guvoh sifatida qatnashmoq
- sich krank (taub) stellen** oʻzini kasal (kar) qilib koʻrsatmoq
- Stellenangebot** *n* -(e)s, -e ishga taklif qilish
- stellenlos** *a* ishsiz, bekor
- Stellennachweis** *m* -es, -e mehnat birjasi
- Stellensuche** *f* = ish qidirish, ish izlash
- stellenweise** *adv* qisman; baʼzan; baʼzi joylarda
- Stellung** *f* =, -en vaziyat, holat; oʻrin, martaba, mavqe; kontseptsiya; nuqtai-nazar; pozitsiya
- hohe Stellung** yuqori, oliy mavqe
- freigewordene Stellung** boʻshalgan oʻrin; vaqti, oʻrni
- eine Stellung bekleiden** biror lavozimni egallamoq
- sich nach einer Stellung umsehen** oʻrin (joy) izlamoq
- gegen etw. (A) Stellung nehmen** birovga qarshi chiqmoq
- befestigte Stellung** mustahkam pozitsiya
- feindliche Stellung** dushman pozitsiyasi
- Stellungsname** *f* = munosabat; oʻz-munosabatini bildirish
- Stellungsbezirk** *m* -(e)s, -e chaqriq okrugi
- Stellvertreter** *m* -s, = oʻrinbosar
- stellvertretender Minister** vazir oʻrinbosari
- Stemmeisen** *n* -s, = iskana

**Stempel** *m -s,* = shtempel, pechat, muhr

**den Stempel der Behörde unter ein Schriftstück setzen**

xujjatga muhr bosmoq

**stempeln** *vt* muhrlamoq, pechat qo'ymoq

**Steppe** *f =, -n* cho'l, dasht

**eine Wasserlose Steppe bewässern, berieseln** suvsiz cho'lga

suv chiqarmoq

**sterben** *vi (s)* o'lmoq, vafot etmoq, qazo qilmoq

**plötzlich sterben** to'satdan o'lmoq, bevaqt o'lmoq

**jung sterben** yosh vafot etmoq

**an Altersschwäche sterben** qarilikdan o'lmoq

**an einer Krankheit sterben** kasallikdan o'lmoq

**auf dem Schlachtfeld sterben** jang maydonida halok bo'lmoq

**für die Heimat sterben** Vatan uchun halok bo'lmoq

**über die Arbeit sterben** umrining oxirgi kunigacha ishlab o'lmoq

**Siegen oder sterben!** G'alaba yoki o'lim!

**sterbenkrank** *a* o'lar holatda kasal (og'ir betob)

**sterbenslangweilig** *a* ulgiday zerikish

**sterblich** *a* o'limga oid, o'lar holatda, o'lar darajada

**Sterblichkeit** *f =* o'lim soni, miqdori

**Stereometrie** *f = mat.* stereometriya (geometriyaning fazodagi

jism xususiyatlarini o'rganadigan bo'limi)

**Stern** *m -(e)s, -e* yulduz, sayyora

**Sterne stehen im Himmel** osmonda yulduzlar bor

**Sternbild** *n -(e)s, -er astr.* yulduzlar turkumi

**sternförmig** *a* yulduzga o'xshash, yulduzsimon

**Sterngucker** *m -s,* = astrolog, astronom

**Sternhaufen** *m -s,* = *astr.* yulduzlar to'plami

**Sternkunde** *f =* astronomiya

**Sternwarte** *f =, -n* observatoriya

**stet** *a* doim, uzluksiz; muntazam

**stetig** *a* doimiy, to'xtovsiz, surunkali; *mat.* uzluksiz

**Stetigkeit** *f = mat.* doimiylik, o'zgarimaslik

**stets** *adv* doimo; tez-tez; hamma vaqt

**Steuer** *f =, -n* soliq; rul

**Steuer führen, regieren** rulni boshqarmoq

**am Steuer stehen** rulda o'tirmoq (bo'lmoq)

**am Steuer ans Staates stehen** davlatni boshqarmoq

**am Steuer ergreifen** hokimiyatni idora qilishni qo'lga olmoq

**Steueramt** *n -(e)s* soliq boshqarmasi, moliya bo'limi

**steuerbar** *a* boshqariladigan

**Steuermann** *m -(e)s, -männer* shturman, rul boshqaruvchi kishi

**der Steuermann lenkt das**

- Steuerruder** boshqaruvchi rulni boshqaryapti
- steuern** *vi* soliq to'lamoq
- steuern** *vt* boshqarmoq, to'g'irlamoq; qarshilik qilmoq; yurgizmoq, haydamoq; o'ramoq
- ein Schiff steuern** kemani boshqarmoq
- einen Kraftwagen steuern** avtomobilni boshqarmoq
- das Schiff steuert nach Odessa** kema Odessaga yo'l olayapti
- wohin steuert diese Politik?** bu siyosat qaerga olib boradi?
- die Notlage (die Unordnung) steuern** qarshilik qilmoq, qiyin ahvolga qarshi kurashmoq
- Stich** *m* -(e)s, -e ukol; sanchish, chaqish
- Stich einer Nadel** igna sanchish
- Stich der Schlange** ilon chaqishi
- ein Stich mit dem Bajonett** nayza sanchish
- einen Stich versetzen** zarba bermoq
- stichdunkel** *a* qop-qora, tim qora
- stichhaltig** *a* asoslangan, asosli
- sticken** *vt* kashta tikmoq
- Stickerei** *f* =, -en gul tikish, kashta tikish; kashtachilik, kashta do'zlik
- Stickgas** *n* -es, -e bug'uvchi gaz
- Stickstoff** *m* -(e)s azot
- stickstoffhaltig** *a* tarkibida azot bor, azotli
- Stickstoffoxyd** *n* -(e)s *xim.* azot okisi
- Stiefel** *m* -s, = etik; botinka, oyoq kiyimi
- Stiefeltern** *pl* o'gay ota (ona)
- Stiefgeschwister** *pl* o'gay aka (uka), o'gay opa (singil)
- Stiefmutter** *f* =, - o'gay ona
- stier** *a* harakatsiz, surilmaydigan
- Stier** *m* -(e)s, -e buqa, ho'kiz; *astr.* yulduzning bir turkumi
- stieren** *vi* (auf+ A) joylanmoq, joylashmoq; sig'moq; tikilib qaramoq
- stiften** *vt* ta'sis qilmoq, tuzmoq, o'rnatmoq; joriy qilmoq, amalga oshirmoq; mustahkamlamoq
- Stifter** *m* -s, = asoschi, ta'sis etyuvchi, tuzuvchi; aybdor
- Stiftsfräulein** *n* -s, = aslzoda oilasida turmushga chiqmagan ayyol
- Stiftung** *f* =, -en tuzish, ta'sis etish; tuzulish; muassasa, idora, tashilot
- Stigma** *n* -s belgi, nishon; pechat
- Stil** *m* -(e)s, -e stil, uslub; bug'in; yil hisobi
- dichterischer Stil** poetik stil
- literarischer Stil** adabiy uslub, stil
- einen guten Stil schreiben** yaxshi uslubda yozmoq
- der Stil in den bildenden und darstellenden Künsten** tasviriy san'at stili, uslubi
- still** *a* yuvosh, muloyim, beozor; tinch, asoyishta; jim; sekin, asta
- ein stilles Kind** yuvosh bola
- ein stilles Leben** tinch hayot
- eine stille See** tinch dengiz
- eine stille Zeit** osoyishta vaqt
- eine stille Stadt** osoyishta



shahar  
**ein stiller Mann** kamgap odam  
**ein stiller Vorwort** so‘zsiz imo-  
 ishora  
**stillweinen** sekin yig‘lamoq  
**stillseufzen** asta xo‘rsinmoq  
**stillsetzen** jim o‘tirmoq  
**im stillen** yashirincha  
**stillbleiben** *vi (s)* tinch bo‘lmoq;  
 jim qolib qolmoq  
**Stille** *f* = jimlik, sukunat  
**Stilleben** *n -s*, = natyurmort  
**stillen** *vi* tinchitmoq, yupatmoq,  
 ovutmoq; yengillashtirmoq;  
 qondirmoq (chanqoqni)  
**den Schmerz stillen** og‘riqni  
 yengillashtirmoq  
**das Blut stillen** qon ketishini  
 to‘xtatmoq  
**den Durst stillen** chanqoqni  
 bostirmoq  
**ein Bedürfnis stillen** talabni  
 qondirmoq  
**Stillgeld** *n -(e)s, -er* (ko‘p bolali  
 onalarga beriladigan) nafaqa  
**stillhalten** *vi* to‘xtatib qo‘ymoq,  
 jim bo‘lmoq; o‘zini xotirjam  
 tutmoq, bemalol o‘tirmoq  
**stillschweigen** *vi* jim (tek) turmoq  
**Stillstand** *m -(e)s* kasodlik, tur-  
 g‘un, bekor turish  
**Stimmabgabe** *f* = ovoz berish,  
 nido  
**offene Stimmabgabe** ochiq  
 ovoz berish  
**geheime Stimmabgabe** yopiq  
 ovoz berish  
**stimmberechtigt** *a* ovoz berish  
 huquqiga ega bo‘lish

**Stimme** *f* =, *-n* ovoz, sado, sas; mu-  
 siqiy tovush  
**angenehme Stimme** yoqimli  
 ovoz  
**unangenehme Stimme** yoqim-  
 siz ovoz  
**er hat eine feine Stimme** uning  
 yaxshi ovozi bor  
**j-n an der Stimme erkennen**  
 birovni ovozidan tanimoq  
**Stimme des Herzens** yurak  
 nidosi  
**beschliessende Stimme** hal  
 qiluvchi ovoz  
**beratende Stimme** maslahat  
 ovozi  
**eine Stimme haben** ovozga ega  
 bo‘lmoq  
**Sitz und Stimme haben** ovoz  
 berish huquqidan foydalanmoq  
**der Vorschlag wurde mit 20  
 Stimmen angenommen** taklif  
 20 ovoz bilan qabul qilindi  
**sich der Stimme enthalten**  
 betaraf qolmoq  
**stimmen** *vi* (für, gegen+ A ) ovoz  
 bermoq; musiqa asbobini sozla-  
 moq; haqiqatga mos kelmoq,  
 ishonchli bo‘lmoq  
**einstimmig** *a* yakdillik bilan ovoz  
 bermoq  
**Stimmliste** *f* =, *-n* saylovchilar  
 ro‘yxati  
**Stimmenmehrheit** *f* =, *-en* ko‘p-  
 chilik ovoz  
**Stimmenminderheit** *f* =, *-en* kam-  
 chilik ovoz  
**Stimmführer** *m -s* = xor dirijori  
**stimmhaft** *a* jarangli (undosh)

tovush haqida)

**Stimmliste** *f* =, -*n* saylovchilar  
ro'uxati

**stimmlos** *a* jarangsiz

**Stimmung** *f* =, -*en* kayfiyat, ruh,  
dimog'

**frohe, heitere Stimmung** yax-  
shi kayfiyat

**in gehobener Stimmung** kayfi  
chog', bo'lib

**die öffentliche Stimmung**  
jamoatchilik fikri

**die Stimmung des Klaviers ist  
zu hoch** royal ancha baland  
sozlangan

**Stimmzettel** *m* -*s*, = saylov byul-  
leteni

**stimulieren** *vt* undamoq, majbur  
qilmoq; rag'batlantirmoq; qi-  
ziqtirmoq

**stinken** *vi* sasimoq

**stinkig** *a* sasiydigan

**Stippe** *f* =, -*n* qayla, maxarra; nuqta

**stippen** *vt* botirmoq, botirib olmoq

**Stipendium** *n* -*s*, -*dien* stipendiya

**ein Stipendium geniessen** sti-  
pendiya olmoq

**j-m das Stipendium streichen**  
birovni stipendiyadan o'chir-  
moq

**Stirn** *f* =, -*en* peshona, manglay

**freie, offene Stirn** ochiq pe-  
shona

**hohe Stirn** do'ng peshona

**die Stirn wischen** peschonani  
artmoq

**die Haare fallen ihm über die  
Stirn** sochi peshonasiga tush-  
hibdi

**sich vor die Stirn schlagen** pe-  
shonasiga urmoq (biror narsa  
to'satdan esiga tushganda)

**Stock** *m* -(*e*)*s* tayoq, kaltak; has-  
sa; o'zak; buta; ahmoq; asalari  
qutisi; qavat

**ein Stock Rosen** atirgul butasi

**im zweiten Stock wohnen** uch-  
inchi qavatda yashamoq

**das Haus ist acht Stock hoch**  
uy to'qqiz qavatli

**stocken** *vi* to'xtamoq, to'xtab qol-  
moq, tiqilib qolmoq, qadalib  
(botib) qolmoq; qoqilib ketmoq;  
turtilib qolmoq; turib qolmoq,  
ayunimoq; mog'or bosib qolmoq

**stockfinster** *a* mutloqa qora

**Stockschnupfen** *m* -*s* surunkali  
tumov

**stocksteif** *a* tayoqday to'g'ri

**stocktaub** *a* umunan, mutlaqo ga-  
rang

**Stockzahn** *m* -(*e*)*s*, -*e* oziq tish

**Stoff** *m* -(*e*)*s*, -*e* modda; materiya;  
gazlama; mato; tarkib, hay'at

**Geist und Stoff** ruh va materiya  
**chemischer Stoff** kimyoviy  
modda

**mineralischer Stoff** mineral  
modda

**ein kunstseidener Stoff** sun'iy  
gazlama

**organischer Stoff** organik mod-  
da

**baumwollener Stoff** ip gazlama  
**den Stoff machen** material  
yig' moq

**den Stoff gliedern** materialni  
tartibga solmoq

- Stoff zum Lesen** o'qish uchun material
- stoffelig** *a* ahmoqlik, tushunarsiz
- stoffhaltig** *a* mazmunli, ma'noli
- Stoffname** *m – n* ot (turdosh), (narsa, buyum nomlari)
- Stoffwechsel** *m – s* modda almashtirishuvi
- stöhnen** *vi* ingramoq, nola qilmoq, oh-voh qilmoq
- stolpern** *vi (s)* qoqilmoq, qoqilib ketmoq
- über die Schwelle stolpern** os-tonaga qoqilmoq
- mit der Zunge stolpern** to'xtalib qolmoq, duduqlanib qolmoq
- stolz** *a, adv* mag'rur
- ein stolzer Mann** mag'rur odam
- mit stolzer Freude** mag'rurlik bilan, mag'rurona, kibr-havoli
- stolz sein** (auf+A) biror narsa bilan faxrlanmoq
- stolzschauen** mag'rur qaramoq
- stolzaussehen** mag'rur ko'rinmoq
- Stolz** *m – es* iftixor, faxr, faxrlanish; g'urur
- nationaler Stolz** milliy iftixor
- stopfen** *vt* yamamoq, to'qimoq (to'r); to'ldirmoq; tiqmoq
- Strümpfe stopfen** paypoqni to'rlab yamamoq
- Wäsche stopfen** ich kiyimni to'rlab yamamoq
- Stopfen** *m – s*, = probka, tiqin; to'rlab yamash
- Stopfmittel** *n – s*, = ich ketishni to'xtatadigan dori
- stoppen** *vt* to'xtatmoq, to'xtatib qo'ymoq; vaqtni qayd qilib qo'ymoq
- Stopper** *m – s*, = markaziy himoyachi
- Stopplicht** *n – (e)s, –er* qizil chiroq (svetofor)
- Stopppreis** *m – es, –e* qat'iy baho
- Stoppuhr** *f* =, –*en* sekundomer
- Stöpsel** *m – s*, – probka, tiqin, po'kak; shtepsel
- eine Flasche mit dem Stöpsel verschliessen** shishani probka bilan mahkamlamoq
- Stör** *m – (e)s, –e* osyotr (baliq)
- Storch** *m – (e)s*, Störche laylak
- storchbeinig** *a* uzun oyoqli
- stören** *vt* xalaqit (xalal) bermoq, tashvishga qo'ymoq; buzmoq
- Störe mich nicht!** Menga xalaqit berma!
- Ich störe dich nicht** men senga xalal bermayapman
- den Frieden stören** tinchlikni buzmoq
- die Verdauung stören** oshqozon buzilmoq
- den Rundfunk stören** radio eshittirishni o'chirib qo'ymoq
- j-n aus dem Schlaf stören** birovning uyqusini buzmoq
- j-n in (bei) der Arbeit stören** birovning ishiga xalaqit bermoq
- darf ich stören?** Xalaqit bermaymanmi?
- Störenfried** *m – (e)s, –e* tinchlikni buzuvchi
- Störer** *m – s*, = xalaqit beruvchi
- Störung** *f* =, –*en* buzish, xalaqit

- Störung der Ruhe** tinchlikni buzish
- Störung eines Organs** biron organ ish faoliyatini buzilishi
- eine Störung in der elektrischen Leitung** elektr simining uzilishi
- Stoss** *m -es* zarba, turtki; siltash, itarish; tepki
- j-m einen Stoss geben** birovni turtmoq
- die Stöße des Wagens** mashina yurganida bo‘ladigan siltanish
- kräftiger Stoss** kuchli tepki
- einen Stoss führen** zarba bermoq
- j-m einen Stoss mit der Faust, mit der Füsse, mit den Kopf geben** birovni musht (oyoq, bosh) bilan urmoq
- Stossarbeit** *f =, -en* zarbdor ish
- Stossarbeiter** *m -s,* = zarbdor
- Stossdämpfer** *m -s,* = amortizator
- stossen** *vt* itarmoq, urmoq, zarba bermoq; tuymoq, yanchmoq; urilmoq; qo‘shilmoq; tepmoq
- mit dem Ellbogen stossen** tirsak bilan itarmoq
- j-n von sich stossen** birovni o‘zidan nari itarmoq
- j-n aus dem Haus stossen** birovni uydan haydamoq
- Pfeffer zu Pulver stossen** qalampirni yanchib maydalamoq
- der Wagen stösst** vagon (mashina) siltayapti
- auf eine Frage stossen** biron masalani ko‘rsatib o‘tmoq
- ein Zimmer stösst ans andere** bir xona ikkinchi xona bilan qo‘shilgan
- diese Truppen stiessen wieder zur Armee** bu qo‘shinlar armiyaga yana qo‘shildi
- ins Horn stossen** karnay chalmoq
- sich stossen** itarishmoq, turtishmoq
- Stosskraft** *f = fiz.* zarba kuchi
- stottern** *vi* duduqlanmoq
- stracks** *a* to‘g‘ridan-to‘g‘ri, tezlik bilan; hoziroq, darhol
- Strafanstalt** *f =, -en* axloq tuzatish qamoqxonasi; qamoqxona
- Strafausmass** *n -es, -e* jazo chorasi
- strafbar** *a* jazoga loyiq, jazolanadigan
- Strafe** *f =, -n* jazo; jarima; qarzni undirish; ta’sir
- gerichtliche Strafe** sud jazosi
- milde, gelinde Strafe** yengil jazo
- einen Strafe über j-n verhängen** birovni jazoga hukm qilmoq
- etw. unter Strafe stellen** qonun bo‘yicha jazolamoq
- strafen** *vt* jazolamoq; jarima solmoq; chiqimdor qilmoq; tushirmoq; nasihat qilmoq
- für (um) ein Vergehen (wegen eines Vergehens) mit Gefängnis strafen** birovni jinoyati uchun qamoq jazosiga hukm qilmoq
- straff** *a* tarang, tarang tortilgan
- straffrei** *a* jazolanmagan, jazoga tortilmagan

- Strafffreiheit** *f* = jazosiz qolish
- Strafgefangene** *m, f* = mahbus
- Strafgeld** *n* -(*e*)*s, -er* jazo puli, jarima to‘lash
- Strafgericht** *n* -(*e*)*s, -e* jinoiy ishni ko‘ruvchi sud
**zurückweisen** *vt* rad qilmoq, e'tiroz bildirmoq, qaytarmoq  
**zurückwenden** *vt* orqaga qayrilm oq (burilmoq)  
**zurückwerfen** *vt* otib yubormoq; aks etmoq, tasvirlamoq; ifodalamoq  
**zurückwollen** *vi* orqaga qaytishni istamoq (xohlamoq)  
**zurückwünschen** *vt* qaytmoqchi bo'lmoq  
**zurückzahlen** *vt* to'lamoq, (qarzni) qaytarmoq  
**zurückziehen** *vt* birma-bir (itarib, surib) tortib olib borib qo'yimoq;

orqaga tortmoq;; chetga (biror tomonga) surmoq; qaytarib olmoq (shikoyat); iziga qaytmoq; o'yinni rad qilmoq; chetlashing tirmoq  
**zurückzucken** *vi (s)* birdan tishlanmoq  
**Zuruf** *m -(e)s, -e* chaqiriq ovozi (nidosi), chaqiriq  
**zurufen** *vt (j-m)* baqirmoq, qichqirmoq, chaqirmoq  
**Zurüstung** *f =, -en* qurol-yarog', anjom-aslaha; asbob-uskuna  
**Zusage** *f =, -n* va'da, rozilik, majburiyat  
**zusagen** *vt* va'da bermoq, kelishmoq, rozilik bermoq  
**zusammen** *adv* birga, birgalashib; jami  
**Zusammenarbeit** *f =, -en* birga ishlash, hamkorlik qilish  
**Zusammenbau** *m -(e)s, -e* yig'ish; birlashtirish  
**zusammenberufen** *vt* chaqirmoq, chorlamoq; chaqirib to'plamoq  
**zusammenbetteln** *vt* xayrlashishda yig'ilmoq  
**zusammembilden** *vt* birgalikda vujudga keltirmoq  
**zusammenbinden** *vt* bog'lamoq, ulamoq  
**zusammenbleiben** *vi (s)* birga qolmoq  
**zusammenborgen** *vt* qarz bermoq, qarz berib turmoq  
**zusammenbrechen** *vi (s)* qulamoq, ag'namoq, yemirilmoq, o'pirilmoq; kuchsizlanmoq  
**zusammenbringen** *vt* yig'imoq,

termoq; bir joyga to'plamoq  
**zusammendrängen** *vt* qismoq, siqmoq; zichlamoq, jipslamoq  
**zusammendrehen** *vt* o'ramoq, o'rab qo'yimoq  
**zusammendrücken** *vt* qismoq, siqmoq  
**zusammenfahren** *vi (s)* to'qnashmoq, uchrashib qolmoq; seskanmoq, cho'chib ketmoq  
**zusammenfallen** *vi (s)* mos (to'g'ri) kelmoq; qulamoq, ag'darilmoq, o'pirilib tushmoq  
**zusammenfassen** *vt* umumlashtirmoq, xulosa qilmoq; to'plamoq, qo'shmoq, birlashtirmoq  
**Zusammenfassung** *f =, -en* xulosa, yakun, yakunlash; qamrash, o'z ichiga olish; birikish; umumlashtirish  
**zusammenfinden** *vt* yig'moq, bo'lib turmoq; topmoq  
**zusammenflechten** *vt* to'qimoq, to'qib yasamoq, o'rmoq  
**Zusammenfluss** *m -ses* daryolarning qo'shilishi (bir-biriga quyilishi); oqim; tutashgan joy  
**zusammenfügen** *vt* birlashtirmoq, qo'shmoq, bog'lamoq  
**zusammenführen** *vt* olib borib kelmoq; olib kelmoq; tashib keltirmoq  
**zusammengeben** *vi (s)* to'g'ri kelmoq, mos kelmoq; o'xshamoq; yopilmoq  
**Zusammengehen** *n -s* birgalikdagi harakat, hamkorlikdagi ish (faoliyat)  
**zusammengehören** *vi* bir-biriga

tegishli (qarashli) bo'lmoq; bir-biriga bog'liq bo'lmoq  
**Zusammengehörigkeit** *f* = birlik, jipslik, birdamlik  
**zusammengepfercht** *adv* tor, mahkam; torlik, tig'izlik, zichlik  
**zusammengeraten** *vi(s)* bir joyga tushib qolmoq  
**zusammengesetzt** *a* murakkab, qo'shma; turli bo'laklardan tuzilgan, tarkibiy  
**zusammengiessen** *vt* bir joyga quymoq, aralashtirmoq  
**Zusammenhalt** *m -(e)s* mahkamlik, mustahkamlik, pishiqlik; yaqin aloqa; *fiz.* ulash, tirkash, matashtirish; tishlashish; *tech.* ulovchi mexanizm; birlik, birdamlik, birlasish  
**zusammenhalten** *vt* birga ushlab turmoq; bir-birining orqasida turmoq  
**Zusammenhang** *m -(e)s, -hänge* aloqa; bog'liqlik  
**zusammenhängen** *vi* (mit+ D) aloqada bo'lmoq  
**zusammenhangslos** *a* aloqasiz, aloqasi yo'q, bog'liq bo'lmagan  
**zusammenhauen** *vt* chopib tashlamoq (o'ldirmoq), qilichdan o'tkazmoq  
**zusammenholen** *vt* turli joylardan yig'moq (bir joyga)  
**zusammenketten** *vt* bir zanjirga bolg'alab ulamoq (biriktirmoq)  
**Zusammenklang** *m -(e)s, -klänge* hamohanglik, ohangdosh, uyg'unlik; garmoniya; mutonosiblik; mos kelish

- zusammenklappen** *vt* qattiq (ta-  
raqlatib) yopmoq; taxlamoq
- zusammenklauben** *vt* yigʻmoq
- zusammenklingen** *vi (s)* ham-  
ohang boʻlmoq
- zusammenknupfen** *vt* qadamoq;  
bogʻlamoq
- zusammenkommen** *vi (s)* uch-  
rashmoq, duch kelmoq
- Zusammenkunft** *f* =, -künfte uch-  
rashuv; yigʻilish
- zusammenlappern**, *sich* mayda-  
mayda toʻplanmoq (yigʻilmoq)
- zusammenlassen** *vt* birga qoldir-  
moq
- zusammenlaufen** *vi (s)* hamma  
yerdan kelib bir yerda qoʻshil-  
moq
- zusammenleben**, *sich* chiqishib  
ketmoq, el boʻlib qolmoq, bir-  
biriga oʻrganmoq
- Zusammenleben** *n -s* birgalikdagi  
hayot (turmush)
- zusammenlegbar** *a* buklama, bu-  
kiladigan; yopiladigan, yigʻi-  
ladigan
- zusammenlesen** *vt* yigʻmoq; tar-  
tibsiz oʻqimoq
- zusammenliegende** *a pl* yaqinida  
(yonida) joylashgan
- zusammennageln** *vt* mix bilan qo-  
qishtirmoq, mixlamoq; tuzat-  
moq; yasamoq
- zusammennähen** *vt* qoʻshib tik-  
moq, ulamoq
- zusammennehmen** *vt* yigʻmoq,  
toʻplamoq; chiqarib olmoq
- zusammenpassen** *vi* bir-biriga  
yaqinlashmoq
- zusammenraffen** *vt* shoshilinch  
toʻplanmoq
- zusammenrauben** *vt* talab (bosib)  
bir miqdor narsa olmoq; bos-  
qinchilik qilib narsa olmoq
- zusammenrechnen** *vt* solishtirib  
tekshirmoq; qoʻshmoq, jamla-  
moq; yigʻindisini chiqarmoq
- zusammenreimen** *vt* qofiyalamoq,  
qofiyaga solmoq; kelishtirmoq
- zusammenreißen** *vt* buzmoq,  
vayron qilmoq
- Zusammenrottung** *f* =, -en odam-  
lar toʻdasi, bir toʻp odam; olo-  
mon
- zusammenrücken** *vt* siljitmoq,  
surmoq; bir-biriga surilmoq,  
yaqinlashmoq
- Zusammenruf** *m -(e)s* chaqiriq;  
toʻplanish
- zusammenrufen** *vt* chaqirmoq,  
xabar berib toʻplamoq
- zusammenscharen**, *sich* toʻda  
boʻlib yigʻilmoq
- zusammenscharen** *vt* toʻplamoq,  
toʻdalamoq, toʻplab qoʻymoq;  
yigʻib olmoq (pul)
- zusammenschaufeln** *vt* kurak bi-  
lan uymoq, toʻplamoq
- zusammenschichten** *vt* taxlamoq,  
termoq, joylamoq
- zusammenschiessen** *vt* otib ol-  
moq; otib tashlamoq
- zusammenschlagen** *vt* bir-biriga  
urishtirmoq; urmoq; zarba ber-  
moq, mushtlashtirmoq; urib sin-  
dirib tashlamoq; taxlamoq (ga-  
zeta); toʻqnashmoq
- zusammenschliessen** *vt* birlash-

- tirmoq, qo'shmoq; bir xonada bekinmoq
- Zusammenschluss** *m -ses* bir-lashish, uyushish, qo'shilish; birdamlik
- zusammenschmeisen** *vt* tashlamoq; to'kmoq; buzmoq (ishni)
- zusammenschmelzen** *vt* qorish-tiribmoq, eritib qotishma hosil qilmoq; eritmoq
- zusammenschreiben** *vt* qo'shib yozmoq (bir so'zga); bo'lmag'ur so'zni yozmoq, iflos yozmoq; yozib pul ishlamoq
- zusammenstrumpfen** *vi (s)* jun-jaymoq, g'ujanak bo'lmoq, tirishmoq; qisqarmoq
- zusammenschütten** *vt* solmoq, to'kmoq, solib to'ldirmoq; aralash-tirmoq
- zusammenschweissen** *vt* payvandlamoq, ulamoq; biriktirib mahkamlamoq
- Zusammensein** *n -s* birgalikda kelish; birgalikdagi hayot; ham-jihatlik, inoqlik
- zusammensetzbar** *a* terma, yig'ma
- zusammensetzen** *vt* tuzmoq, yozmoq; tashkil etmoq; to'plamoq, yig'moq (maxanizm)
- Zusammensetzung** *f =, -en* tarkib, tuzish; murakkab gap (so'z)
- zusammensparen** *vt* yig'moq, to'plamoq
- Zusammenspiel** *n -(e)s* ansambl; birga ijro etish, birga o'ynash; fuqoralarning o'zaro ta'siri
- zusammenstellbar** *a* ulama, yasama, tarkibiy; qo'shma; yig'ishtirish
- zusammenstellen** *vt* tuzmoq; qi-yoslamoq; bir-biriga yaqin qo'y-moq; (dastur) tuzmoq
- zusammenstimmen** *vi* bir xil balandlikdagi ovozga moslash-tirmoq, uyg'unlashtirmoq
- zusammenstossen** *vt* to'qnash-moq, yonma-yon, bir-biriga ta-qab ulamoq; tegib ketmoq
- Zusammensturz** *m -es* qulash, yiqilish, o'pirilish
- zusammentragen** *vt* bir joyga to'plamoq, uymoq
- zusammentreffen** *vi (s)* uchrasib qolmoq; to'g'ri (mos) kelmoq; uchrashmoq
- Zusammentritt** *m -(e)s* yig'ilish, kengash
- zusammenwerfen** *vt* bir joyga tashlamoq; aralash-tirmoq
- zusammenwirken** *vi* o'zaro ta'sir etmoq (bir vaqtda)
- Zusammenwirkung** *f =, -en* o'zaro ta'sir, birdamlikdagi harakat
- zusammenzählen** *vt* qo'shib hisoblamoq, hisoblab chiqmoq; tuzmoq
- zusamt** *prp (D)* .... bilan birga
- Zusatz** *m -es, -sätze* to'ldiruvchi, qo'shimcha
- zusätzlich** *a* qo'shimcha, oshiqcha
- zuschancen** *vt (j-m)* berib, uzatib yubormoq (yashirincha)
- zuscharren** *vt* dudlamoq
- zuschauen** *vi (D)* qaramoq, nazar solmoq; kuzatmoq
- Zuschauer** *m -s, =* tomoshabin;

- omma
- zuscitaufeln** *vt* ko'mmoq (kurak bilan), ko'mib tashlamoq; yopmoq; kavlay boshlamoq
- zuscitaicken** *vt* jo'natmoq; uyga yetkazmoq
- zuscitaiessen** *vt* tashlanmoq; qo'shmoq, to'ldirmoq
- zuscitalagen** *vt* mahkamlamoq, qoqib qo'ymoq; yopmoq; itarmoq, zarba bermoq
- Zuscitaläger** *m* –s bolg'a uruvchi; temirchi
- zuscita-liessen** *vt* mahkamlamoq, bekitmoq; yopib qo'ymoq
- Zuscita-lupf** *m* –(e)s, –schlupfe boshpana, panoh, manzil, makon
- zuscita-nallen** *vt* qadamoq, to'g'namoq (to'qa)
- zuscita-schneiden** *vt* bichmoq; qo'laylashtirmoq, moslashtirmoq
- Zuscita-schneider** *m* –s bichuvchi
- Zuscita-schnitt** *m* –(e)s, –e bichim, andaza
- zuscita-schnüren** *vt* tasmalamoq, tasma bilan bog'lab qo'ymoq; shnurlamoq
- zuscita-schrauben** *vt* vintlamoq, burab qo'ymoq, mahkamlamoq
- zuscita-schreiben** *vt* qo'shimcha ravishda yozmoq, yozib qo'shmoq
- Zuscita-schrift** *f* =, –en qo'shimcha yozish; yozib qoshish; ro'yxatga olish, qayd qilish
- Zuscita-schub** *m* –(e)s, –e tashish, tashib keltirish
- zuscita-schauen** *vi* (D) qaramoq, nazar tashlamoq; kuzatmoq; chora ko'rmoq
- zuscita-schends** *adv* sezilarli darajada, ancha, xiyla; chamasi, shekilli, aftidan
- zuscita-ein** *vi* (s) berk bo'lmoq
- zuscita-setzen** *vt* qo'shmoq, qo'shimcha qilmoq
- zuscita-spielen** *vt* (j-m) uzatmoq, bermoq (to'pni)
- zuscita-spitzen** *vt* uchini chiqarmoq, o'tkirlamoq, qayramoq; keskinlashtirmoq, jiddiylashtirmoq
- Zuscita-spitzung** *f* =, –en keskinlashish, kuchayish, jiddiylashish
- zuscita-sprechen** *vt* bermoq, berishga qaror qilmoq; telefon orqali bermoq
- Zuscita-sprechung** *f* =, –en berish, belgilash, qaror qilish; taqtim qilish
- Zuscita-spruch** *m* –(e)s murojaatnoma; kengash; qo'llash
- dieser Arzt hat viel Zuspruch** bu vrachning tajribasi katta
- Zuscita-stand** *m* –(e)s, –stände hol, holat, vaziyat, ahvol
- zuscita-ständig** *a* taaluqli bo'lgan, qarashli bo'lgan
- zuscita-stecken** *vt* toblamoq, chidamli qilmoq
- zuscita-stehen** *vi* (D) izidan (orqasidan, ketidan) bormoq, ergashmoq
- zuscita-steigen** *vi* (s) kelmoq, yaqinlashmoq
- zuscita-stellen** *vt* majbur qilmoq; yetkazib bermoq; topshirmoq, qo'liga bermoq
- Zuscita-stellung** *f* =, –en olib borib (yetkazib) berish
- Zuscita-stellungsgebühr** *f* =, –en yetka-

- zib berish to'lovi
- zusteuern** *vt* o'z hissasini qo'shmoq
- zustimmen** *vi* (D) kelishmoq, ma'qullamoq; ko'nmoq, rozi bo'lmoq
- Zustimmung** *f* =, -*en* rozilik, kelishish
- zustossen** *vt* taraqlatib yopmoq (eshikni); bo'lib o'tmoq; urmoq, zarba bermoq
- Zustrom** *m* -(e)s oqib kelish, quyilib kelish; irmoq, jilg'a
- zuströmen** *vi* (s) oqib kelmoq, oqib o'tmoq
- zustürmen** *vi* (s) tashlanmoq, qarshi tashlanmoq
- Zutat** *f* =, -*en* aralashma, aralash
- zuteilen** *vt* (D) bermoq, topshirmoq; yengib o'tmoq; tayinlamoq; mustahkamlamoq
- zutiefst** *adv* chuqur, oliy darajada
- zutragen** *vt* olib kelmoq; bermoq; uzatmoq, berib yubormoq; xabar bermoq; bo'lib o'tmoq
- Zuträger** *m* -s, =, -*nen* g'iybatchi odam, gap tashuvchi
- zutraglich** *a* foydali; manfaatdor, qo'lay; samara, natija beradigan
- Zutrauen** *n* -s ishonch
- zutrauen** *vt* ishonmoq
- das hätte ich ihm nicht zuge-  
traut** men buni undan kutmagan edim
- zutraulich** *a* ishonuvchan
- zutreffen** *vi* (s) amalga oshmoq, ro'yobga chiqmoq, ushalmoq; mos kelmoq
- zutreffend** *a* to'g'ri, aniq; mos keladigan; munosib holda
- zutreiben** *vt* joyiga moslab tushishirmoq, to'g'irlab o'rnashtirmoq
- zutrinken** *vi* (D) sog'lik uchun ichmoq
- Zutritt** *m* -(e)s kirish, kirish huquqi
- zutun** *vt* qo'shmoq, yana qo'shmoq, qo'shib qo'ymoq; yopmoq; yopmoq (ko'zni)
- Zutun** *n* -s ko'mak, yordam; yordamlashish, ishtirok etish;
- zutunlich** *a* muloyim, yumshoq; ishonuvchan
- zuungunsten** *adv* foydasiga emas
- zuunterst** *adv* eng pastga
- zuverlässig** *a* ishonchli, sodiq; ishonchni his qiladigan
- Zuversicht** *f* = ishonch, dalillik; qat'iy e'tiqod, imon
- zuviel** *adv* juda ham (ko'p)
- zuvor** *adv* bu vaqtgacha, ilgari, avval; avvalo
- zuvorderst** *adv* birinchi o'rinda; birinchi rejada; eng birinchi
- zuvorkommen** *vi* (s) quvib o'tmoq, o'zib ketmoq, orqada qoldirmoq; ogohlantirmoq
- Zuwachs** *m* -es o'sish, parvarish; bo'y; ko'paytirish
- Zuwahlen** *pl* qo'shimcha saylov
- zuwälzen** *vt* yumalatmoq; ag'darmoq
- j-m eine Schuld zuwälzen** aybni boshqa birovga qo'ymoq
- zuwandern** *vi* (s) (D, auf+ A) jo'namoq, bormoq (biror yerga)
- Zuwarten** *n* -s (harakatsiz) kutish,



- kutib turish (bir joyda)
- zuwehen** *vt* esmoq; shamol bilan olib kelmoq
- zuweilen** *adv* ba'zan, vaqti-vaqti bilan; goho
- zuweisen** *vt* ko'rsatmoq, jo'natmoq, belgilamoq; tayinlamoq
- zuwenden** *vt* burilmoq, qayrilmoq; murojaat qilmoq; e'tibor bermoq
- Zuwendung** *f* =, -*en* yordam, ko'mak; chetlashtirish
- zuwenig** *a* juda ham kam (oz)
- zuwerfen** *vt* (D) tashlab yubormoq, otib yubormoq; jo'natmoq
- zuwiderhandeln** *vi* (D) qarshi harakat qilmoq
- Zuwiderhandelnde** *m, f* buzg'unchi, jinoyatchi
- Zuwiderhandlung** *f* =, -*en* buzish, jinoyat qilish
- zuwiderlaufen** *vi* (*s*) (D) qarshi chiqmoq, e'tiroz bildirmoq
- zuwinken** *vi* (D) bosh irg'amoq, bosh bilan ishora qilmoq
- zuzahlen** *vt* qo'shimcha to'lamoq, ustiga to'lamoq
- Zuzählung** *f* =, -*en* ortiq hisoblash, qo'shib sanash; qo'shib qo'yish
- zuzeiten** *adv* ba'zan, vaqti bilan
- zuziehen** *vt* tortmoq, jalb qilmoq
- Zuziehende** *m, f* keluvchi, kelayotgan
- Zuzügler** *m* -*s*, = kelgindi, ajnabiy; ko'chmanchi
- Zwang** *m* -(*e*)*s*, -**Zwänge** tang, og'ir; jabr, zulm; kamsitish, ezish; azob berish, qiynash
- zwanglos** *a* erkin, ozod, hur; bemalol
- Zwangsarbeit** *f* =, -*en* majburiy ish
- Zwangserziehung** *f* =, -*en* axloq tuzatish uyida tarbiyalash
- Zwangslage** *f* =, -*n* tang ahvol, holat
- zwangsläufig** *a* muqarrar, bo'lishi aniq; majburiy; majburiy ravishda
- Zwangsverfahren** *n* -*s*, = majburiy chora
- zwangsverschleppt** *a* zo'rlik bilan olib qochilgan
- zwangsweise** *adv* majburiy holda (ravishda)
- Zwangszug** *m* -(*e*)*s*, -*züge* majburiy yurish (shaxmat)
- zwanzig** *num* yigirma
- Zwanziger** *m* -*s*, = 20 dan 30 yoshgacha bo'lgan erkak kishi; 20 tiyinlik tanga
- zwanzigjährig** *a* yigirma yoshli
- zwanzigste** *num* yigirmanchi
- Zwanzigstel** *n* -*s*, = yigirmanchi qism
- zwar** *adv* to'g'ri, loqal, aqalli
- und zwar** xuddi, naq, ayni; chunkonchi, ya'ni; darhaqiqat
- Zweck** *m* -(*e*)*s*, - maqsad, niyat, muddao
- zu welchem Zweck?** Nima maqsadda? Nimaga?
- das hat keinen Zweck** bu ma'nosiz
- Zweckbau** *m* -(*e*)*s*, -*en* maxsus, ataylab, niyat qilib solingan uy
- zweckbedingt** *a* shart qilib qo'yilgan maqsad
- zweckdienlich** *a* maqsadga mu-

- vofiq (ko'ra)
- Zwecke** *f* =, -*n* mixcha; knopka
- zweckgebunden** *a* aniq maqsadli
- zwecklos** *a* maqsadsiz, befoyda, ma'nosiz; mazmunsiz
- zweckmässig** *a* maqsadga muvofiq, ma'qul
- zwecks** *prp* (G) maqsadli, maqsad bilan; uchun
- zweckwurdig, zweckwidrig** *a* maqsadga muvofiq (mos) kelmaydigan (bo'lmaydigan)
- Zweiachser** *m* -*s*, = ikki o'qli mashina
- zweibeinig** *a* ikki oyoqli
- zweideutig** *a* ikki ma'noli
- zweidrittel** *a* uchdan ikki qism, bo'lak
- Zweierabkommen** *n* -*s*, = ikki tomonlama kelishuv, bitim
- Zweiergruppe** *f* =, -*n* ikki kishidan iborat brigada
- zweifach** *a* ikki karra, ikki hissa
- ein zweifacher Held der Arbeit** ikki marta mehnat qahramoni
- zweifartig** *a* ikki xil rangli
- Zweifel** *m* -*s*, = shubha, gumon
- ich bin im Zweifel darüber** men bundan shubhalanaman
- zweifelhaft** *a* shubhali, gumonli
- zweifellos** *a* shubhasiz
- zweifeln** *vi* (an+ D) shubha qilmoq, gumonsiramoq, hadiksiramoq
- Zweifellsfall** *m* -(e)*s*, -fälle shubhali voqea (hodisa)
- Zweifelsfrage** *f* =, -*n* noaniq (mujmal) masala
- Zweifrontenkrieg** *m* -(e)*s*, -*e* ikki frontdagi jang (urush)
- Zweig** *m* -(e)*s*, -*e* shox, buta, novda; soha; yo'nalish
- er kommt auf keinen grünen Zweig** u hayotda muvaffaqiyatga erishmagan, ishi yurishmagan
- zweigeleisig** *a* ikki izli
- Zweigespann** *n* -(e)*s*, -*e* ikki ot qo'shilgan ekipaj (arava)
- zweigeteilt** *a* ikki qismga bo'lingan
- zweigliedrig** *a* mat. ikki hadli
- Zweigpostamt** *n* -(e)*s*, -ämter pochta bo'limi
- zweijährig** *a* ikki yillik, ikki yoshli
- zweihundert** *num* ikki yuz
- Zweikampf** *m* -(e)*s*, -kämpfe yakkama-yakka kurash (olishuv); duel
- zweikantig** *a* ikki tomonli, ikki qirrali
- zweimal** *a, adv* ikki marta, ikki karra
- zweimalig** *a* ikki martalik
- Zweimaster** *m* -*s*, = ikki machtali kema
- zweimonatig** *a* ikki oylik
- ein zweimonatiges Kind** ikki oylik bola
- Zweiparteinpolitik** *f* =, -*en* ikki partiyali siyosat
- Zweiphasenstrom** *m* -(e) *el.* ikki fazali tok
- zweipolig** *a* *el.* ikki kutbli
- Zweirad** *n* -(e)*s*, -räder velosiped; mototsikl
- zweirädrig** *a* ikki g'ildirakli
- zweirundig** *a* ikki aylanada

- Zweischichtenbetrieb** *m* -(e)s, -e  
 ikki smenada ishlaydigan korxonona
- zweischläfig** *a* ikki kishi uxlaydigan
- zweischneidig** *a* ikki tomoni o'tkir (kesadigan); dudama
- zweiseitig** *a* ikki tomonli
- Zweisitzer** *m* -s, = ikki kishilik avtomobil
- zweisprachig** *a* ikki tilli
- zweistundlich** *a*, *adv* har ikki soatda
- Zweitbeste** *m* musobaqada ikkinchi o'rinni egallagan sportchi
- zwerch** *a* qiyshiq, egri
- Zwetsche** *f* =, -n uy olchasi
- Zwiebel** *f* =, -n piyoz
- Zwiegespräch** *n* -(e)s, -e diolog
- zweiichtig** *a* juft chiroqli
- Zwielaut** *n* -(e)s, -e *ling.* diftong
- Zwiespältigkeit** *f* =, -en ichki qarama-qarshilik (kelishmovchilik)
- Zwilling** *m* -s, -e egizak
- Zwinge** *f* =, -n paynol, uchlik (nakonechnik)
- zwingen** *vt* majbur qilmoq
- Zwinger** *m* -s, = turma; qafas (hayvonlar uchun)
- zwischen** *prp* o'rtasida, orasida  
**man stellte den Schrank zwischen die Fenster** shkafni derazalar o'rtasiga qo'ydilar  
**zwischen vier und fünf (Uhr)** soat beshlarda
- Zwischenakt** *m* -(e)s, -e antrakt
- Zwischenbemerkung** *f* =, -en ogohlantirish; replika
- zwischenbetrieblich** *a* korxonalar o'rtasidagi
- Zwischenfrucht** *f* = oraliq ekini
- Zwischenhandel** *m* -s olib sotish, olib sotarlik
- zwischenhineinlegen** *vt* biron narsaning orasiga (o'rtasiga) qo'ymoq
- zwischenlanden** *vi* (s) oraliqda tushib (qo'nib) o'tmoq
- Zwischenmusik** *f* = ikki radio eshittirishlar oralig'idagi musiqa
- Zwischenprodukt** *n* -(e)s, -e *xim.* yarim tayyor mahsulot
- Zwischenraum** *m* -(e)s, -räume oraliq; masofa
- Zwischenspiel** *n* -(e)s, -e intermediya
- zwischenstaatlich** *a* davlatlar o'rtasida
- Zwitterwesen** *n* -s, = ikki jinsli mavjudot
- zwitterig** *a bot.* ikki jinsli
- zwölf** *num* o'n ikki
- Zwölffingerdarm** *m* -(e)s, -därme o'n ikki barmoqli ichak
- zwölfjährig** *a* o'n ikki yillik
- zwölfte** *num* o'n ikkinchi  
**er kam in zwölfter Stunde** u eng oxirgi lahzada (paytda) keldi
- zyklisch** *a* davriy  
**zyklischer Arbeitsablauf** ish-dagi davriylik
- Zyklon** *m* -s, -e tsiklon, shamol, bo'ron, dovul; atmosfera girdobi
- zyklopisch** *a* ulkan, katta, bahaybat
- Zyklotron** *n* -s, -trone *fiz.* tsiklotron (yadro tadqiqotida zar-

yadlangan og'ir mikrozarra-  
chalarni tezlatadigan qurilma)  
**Zyklus** *m* = , -klen tsikl, davriy  
**Zyklusarbeit** *f* =, -*en* davriy ish  
**Zylinder** *m* -*s*, = tsilindr; ballon;  
shisha (chiroq)  
**Zypresse** *f* =, -*n* kiparis, sarv  
**Zytologie** *f* = tsitalogiya  
**Zytoplasmamembran** *f* =, -*en* tsi-  
taplazma membranasi ( uning  
qobig'i, pardasi, devori)  
**z.Z.** = **zur Zeit** hozirgi vaqtda;  
hech qachon, qachonlardir

#### GEOGRAPHISCHE NAMEN (GEOGRAFIK NOMLAR)

**Australien** *n* Avstraliya  
**Addis Abeba** *n* Addis-Abeba  
**Afganisten** *n* Afg'oniston  
**Afrika** *n* Afrika  
**Ägypten** *n* Misr  
**Alaska** *n* Alyaska  
**Albanien** *n* Albaniya  
**Alexandria** Aleksandriya (Iskan-  
dariya)  
**Algerien** *n* Jazoir  
**Alma-Ata** *n* Olmaota  
**Alpen** *pl* Alp tog'lari  
**Altai** *m* Oltoy tog'lari  
**Amazonas** *m* Amazonka  
**Amerika** *n* Amerika  
**Amsterdam** *n* Amsterdam  
**Amu – Darja** *m* Amudaryo  
**Amur** *m* Amur  
**Andishan** *n* Andijon  
**Ankara** *n* Anqara

**Antarktis** *f* Antarktika  
**Antwerpen** *m* Antverpen  
**Arabien** *n* Arabiston  
**Aralsee** *m* Orol dengizi  
**Argentinien** *n* Argentina  
**Arktis** *f* Arktika  
**Armenien** *f* Armaniston  
**Aschhabad** *n* Ashxobod  
**Aserbaidshan** *m* Ozarbayjon  
**Asien** *n* Osiyo  
**Asowisches Meer** Azov dengizi  
**Athen** *n* Afina  
**Äthiopien** *n* Efiopiya  
**Atlantik** *m* Atlantika okeani  
**Australien** *n* Avstraliya  
**Bagdad** *n* Bag'dod  
**Baikalsee** *m* Baykal (ko'l)  
**Baku** *n* Boku  
**Balkan** *m* Bolqon tog'lari  
**Bandung** *n* Bandung  
**Bangkok** *n* Bangkok  
**Bayern** *n* Bavariya  
**Beirut** *n* Bayrut  
**Belgrad** *n* Belgrad  
**Belorussija** *f* Belorussiya  
**Berinmeer** *n* Bering dengizi  
**Belgien** *n* Belgiya  
**Berlin** *n* Berlin  
**Bern** *n* Bern  
**Birma** *n* Birma  
**Bolivien** *n* Boliviya  
**Bonn** *n* Bonn  
**Brandenburg** *n* Brandenburg  
**Brasilien** *n* Braziliya  
**Bremen** *n* Bremen  
**Brüssel** *n* Bryussel  
**Budapescht** *n* Budapesht  
**Buens Aires** *n* Buenos Ayres  
**Buchara** *n* Buxora

- Bukarest** *n* Buxarest  
**Bulgarien** *n* Bolgariya  
**Bundesrepublik Deutschland**  
 Germaniya Federativ Respublikasi  
**Ceylon** *n* Tseylon  
**Charkow** *n* Xarkov  
**Chicago** *n* Chikago  
**Chile** *n* Chili  
**China** *n* Xitoy  
**Damaskus** *n* Damshq  
**Dänemark** *n* Daniya  
**Deutschland** *n* Germaniya  
**Djakarta** *n* Jakarta  
**Dnepr** *n* Dnepr (daryo)  
**Don** *m* Don (daryo)  
**Donau** *f* Dunay (daryo)  
**Dresden** *n* Drezden  
**Dublin** *n* Dublin  
**Düsseldorf** *n* Dyusseldorf  
**Ekuador** *n* Ekvador  
**Elbe** *f* Elba (daryo)  
**Elbrus** *m* Elbrus (togʻ)  
**England** *n* Angliya  
**Erfurt** *n* Erfurt  
**Essen** *n* Essen  
**Estland** *n* Estoniya  
**Europa** *n* Evropa  
**Finnland** *n* Finlandiya  
**Florenz** *n* Florentsiya  
**Frankreich** *n* Frantsiya  
**Frunse** *n* Frunze  
**Genf** *n* Jeneva  
**Genua** *n* Genuya  
**Ghana** *n* Gana  
**Gibraltar** *n* Gibraltar  
**Golfstrom** *m* Golfstrim  
**Griechenland** *n* Gretsiya  
**Grönland** *n* Grelandiya  
**Grossbritannien** *n* Buyuk  
 Britaniya  
**Grusien** *n* Gruziya  
**Guatemala** *n* Gvatemala  
**Guinea** *m* Gviniya  
**Hawana** *n* Gavana  
**Halle** *n* Galle  
**Hamburg** *n* Gamburg  
**Hannover** *n* Gannover  
**Hanoi** *n* Xanoy  
**Harz** *n* Garts (togʻ)  
**Helsinki** *n* Xelsinki  
**Himalaja** *m* Himolay togʻlari  
**Holland** *n* Gollandiya  
**Honduras** *n* Gonduras  
**Indien** *n* Hindiston  
**Indischer Ozean** Hind okeani  
**Indonesien** *n* Indoneziya  
**Iran** *n* Eron  
**Irak** *n* Iroq  
**Irland** *n* Irlandiya  
**Israel** *n* Isroil  
**Italien** *n* Italiya  
**Jamaika** *n* Yamayka  
**Japan** *n* Yaponiya  
**Jemen** *m* Yaman  
**Jenissei** *m* Enisey  
**Jerewan** *n* Erevan  
**Jerusalem** *n* Ierusalim  
**Jordanien** *pl* Yordaniya  
**Jütland** *n* Yutlandiya  
**Kabul** *n* Qobul  
**Kairo** *n* Qohira  
**Kalifornien** *n* Kaliforniya  
**Kalkutta** *n* Kalkutta  
**Kamerun** *n* Kamerun  
**Kanada** *n* Kanada  
**Kanarische Insel** *pl* Kanar orollari  
**Karibisches Meer** *n* Karib dengizi  
**Karpaten** *f* Karpat togʻlari

- Kasachstan** *n* Qozog'iston  
**Kaspisches Meer** *n* Kaspiy dengizi  
**Kaukasus** *m* Kavkaz  
**Kiew** *n* Kiev  
**Kirgisien** *n* Qirg'iziston  
**Kischinjow** *n* Kishinyov  
**Kleinasien** *f* Kichik Osiyo  
**Köln** *n* Kyoln  
**Kolombo** *n* Kolombo  
**Kolumbien** *f* Kolumbiya  
**Kongo** *m* Kongo  
**Kopenhagen** *n* Kopengagen  
**Kordilleren** *f* Kordilera tog'lari  
**Korea** *n* Koreya  
**Krim** *f* Qrim  
**Kuba** *n* Kuba  
**Ladogasee** *m* Lodoga ko'li  
**Laos** *n* Laos  
**Lateiamerika** *n* Lotin Amerika  
**Leipzig** *n* Leyptsig  
**Lettland** *n* Larviya  
**Lena** *f* Lena (daryo)  
**London** *n* London  
**Lissabon** *n* Lissabon  
**Litave** *n* Litva  
**Los – Angeles** *n* Los - Anjelos  
**Lothringen** *n* Lotaringiya  
**Lübeck** *n* Lyubek  
**Luxemburg** *n* Lyuksemburg  
**Madakaskar** *n* Madagaskar  
**Madrid** *n* Madrid  
**Magdeburg** *n* Magdeburg  
**Mailand** *n* Milan  
**Malaya** *f* Malaya  
**Mali** *n* Mali  
**Malta** *n* Malta  
**Manila** *n* Manila  
**Marokko** *n* Marokash  
**Marseille** *n* Marsel  
**Mecklenburg** *n* Meklenburg  
**Melbourne** *n* Melburn  
**Mexiko** *n* Meksika  
**Minsk** *n* Minsk  
**Mississippi** *m* Mississipi (daryo)  
**Mitteleuropa** *n* O'rta Evropa  
**Mittelländisches Meer** *n* O'rta  
     yer dengizi  
**Mittelasion** *f* O'rta Osiyo  
**Moldau** *f* Moldaviya  
**Monako** *n* Monako  
**Mongolei** *f* Mongoliya  
**Moskau** *n* Moskva  
**München** *n* Myunxen  
**Naher Osten** *m* Yaqin Sharq  
**Neapel** *n* Neapol  
**Neva** *f* Neva  
**Neman** *m* Neman  
**Nepal** *n* Nepal  
**Neuquinea** *n* Yangi Gvineya  
     (orol)  
**Neuseeland** *n* Yangi Zelandiya  
     (orol)  
**New York** *n* Nyu York  
**Nicaragua** *f* Nikatagua  
**Niederlande** *f* Niderlandiya  
**Nigerien** *n* Nigeriya  
**Nil** *m* Nil (daryo)  
**Nordamerika** *n* Shimoliy  
     Amerika  
**Nördliches Eismeer** *n* Shimoliy  
     muz okeani  
**Nordsee** *m* Shimoliy dengiz  
**Norwegen** *n* Norvegiya  
**Nürnberg** *n* Nyurnberg  
**Ob** *f* Ob (daryo)  
**Oder** *f* Oder (daryo)  
**Odessa** *n* Odessa  
**Onegasee** *m* Onega ko'li

- Oslo** *n* Oslo  
**Österreich** *n* Avstriya  
**Ostsee** *n* Boltiq dengizi  
**Ottawa** *n* Ottawa  
**Pakistan** *n* Pokiston  
**Pamir** *m* Pomir (togʻ)  
**Panama** *m* Panama  
**Panamakanal** *m* Panama kanali  
**Paraguay** *n* Paraguay  
**Paris** *n* Parij  
**Pekin** *m* Pekin  
**Peru** *n* Peru  
**Philippinen** *pl* Filippin orollari  
**Pjongjang** *n* Pxenyan  
**Polen** *n* Polsha  
**Port Said** *n* Port-Said  
**Portugal** *n* Portugaliya  
**Prag** *n* Praga  
**Pyrenäen** *f* Pireney togʻlari  
**Rhein** *m* Reyn (daryo)  
**Riga** *n* Riga  
**Rom** *n* Rim  
**Rostock** *n* Postok  
**Roter Meer** *n* Qizil daryo  
**Rumänien** *n* Ruminiya  
**Russland** *n* Rossiya  
**Sachsen** *n* Saksoniya  
**Sächsische Schweiz** *f* Saksoniya  
     Shweytsariyasi  
**Sahara** *f* Sahroyi Kabir  
**Saigon** *n* Saygon  
**Santiago** *n* Santyago  
**Schottland** *n* Shotlandiya  
**Schwarzes Meer** *n* Qora dengiz  
**Schweden** *n* Shwetsiya  
**Senegal** *n* Senegal  
**Sizilien** *n* Sitsiliya  
**Skandinavien** *f* Skandinaviya  
**Sofia** *n* Sofiya  
**Spanien** *n* Ispaniya  
**Stiller Ozean** *m* Tinch Okean  
**Stokholm** *n* Stokgolm  
**Sudan** *n* Sudan  
**Suezkanal** *m* Suvaysh kanali  
**Syr-darja** *f* Sirdaryo  
**Syrien** *n* Suriya  
**Tadjikistan** *n* Tojikiston  
**Taiwan** *n* Tayvan  
**Tallin** *n* Tallin  
**Taschkent** *n* Toshkent  
**Tbilissi** *n* Tbilisi  
**Teheran** *n* Tehron  
**Tel-Aviv** *n* Tel-Aviv  
**Tailand** *n* Tayland  
**Thüringen** *n* Tyuringen  
**Tirana** *n* Tirana  
**Tirol** *n* Tirol  
**Togo** *n* Togo  
**Tokio** *n* Tokio  
**Tunis** *n* Tunis  
**Turkey** *f* Turkiya  
**Turkmenien** *f* Turkmaniston  
**Ukraine** *f* Ukraina  
**Ulan-Bator** *n* Ulan-Bator  
**Ungarn** *n* Vengriya  
**Ural** *m* Ural  
**Urugwai** *n* Urugvay  
**Usbekistan** *n* Oʻzbekiston  
**Venedig** *n* Venetsiya  
**Venezuela** *n* Venesiyela  
**Vereinigte Staaten von Amerika**  
     Amerika Qoʻshma Shtatlari  
**Vietnam** *n* Vetnam  
**Warschau** *n* Varshava  
**Waschington** *n* Vashington  
**Weimar** *n* Veymar  
**Weisses Meer** *n* Oq dengiz  
**Weser** *f* Vesper (daryo)



**Westfalen** *n* Vestfaliya  
**Wien** *n* Vena  
**Wilnius** *n* Vilnyus  
**Wladiwostok** *n* Vladivostok  
**Wolga** *f* Volga  
**Wolgograd** *m* Volgograd  
**Zürich** *n* Tsyurix  
**Zypern** *n* Kipr

## NEMIS TILIDAGI UNLI VA UNDOSH TOVUSHLAR HAQIDA QISQACHA MA'LUMOT

Harflar. Harflar nutqdagi tovushlarni yozuvda ifodalashga xizmat qiladigan shartli belgilardir.

Har bir harf asosan bir mustaqil tovushning yozuvdagi mustaqil belgisidir. Ammo nemis tilidagi ba'zi harflar bir necha tovushni ifodalay oladi. Masalan, *lesen* so'zidagi „s“ harfi unli harfdan oldin kelgani uchun „z“ deb talaffuz etiladi. Yopik; bo'g'inli „das“, „was, kabi so'zlarda esa „s“ harfi „s“ deb o'qiladi.

„s“ harfi „t, p“ undoshlaridan oldin kelsa, „sh“ dek o'qiladi. Masalan: *Stunde, Sport, spielen u. a.*

Ba'zi harflar birikmasi bir tovushnigina bildiradi. Masalan, *sch* harflar birikmasi „sh“ kabi o'qiladi. Masalan: *Schule, Mischa, schnell.*

„tsch“ harflar birikmasi „ch“ o'qiladi. Masalan: *Tschechow, Deutsch, Tschapajew, Tschilonsor*

„ch“ harflar birikmasi „x“ dek o'qiladi. Masalan: *machen, Buch, lachen.*

Nemis tilida 26 harf bor. Bulardan 6 tasi unli va 20 tasi undoshdir. Unli harflar qisqa va cho'ziq talaffuz qilinishi bilan o'zbek tilidagi unli larning talaffuz etilishidan farq qiladi.

Nemis tilida har bir unli tovushning qisqa yoki cho'ziq talaffuz etilishi so'zning ma'nosini o'zgartiradi.

Masalan, „*Saat*“ so'zida „a“ unlisi cho'zib aytilishi sababli bu so'z „*ekin*“ ma'nosini bildiradi. „*satt*“ so'zida, „a“ unlisi qisqa bo'lgani uchun bu so'z „*to'q*“ degan ma'noni anglatadi.

Taqqoslang:

*Bett*—(karavot)      *Beet* — (ariq pushtasi)

*bitte* — (marhamat) *bieten* — (taklif qilmoq)

Unli tovushlarning cho'ziq va qisqaligi bo'g'inning ochiq yoki yopiqligiga bo'g'liqdir. Unli tovush so'zning ochiq bo'ginida odatda cho'zib o'qiladi, masalan: *sa:gen, le:gen, le:sen.*

Unli tovush bilan tugagan bo'g'in *ochiq bo'g'in* deyiladi.

Bir yoki bir necha undosh bilan tugagan bo'g'in *yopiq bo'g'in* deyiladi. Yopiq bo'g'inda unli tovush qisqa o'qiladi. Masalan: **den** — *ken*, **ler** — *nen*, **Kar**—*te*, **Nan** — *na*.

Yozuvda unli larning cho'ziqligi „h“ harfi orqali ko'rsatiladi. Masalan: **der** *Lehrer*, **die** *Fahne*, **das** *Jahr*, *ihm*.

Bundan tashqari, „i“ unlisidan keyin kelgan *e* unlisi ham *i* ning cho‘zib o‘qilishini bildiradi va o‘zi o‘qilmaydi. Masalan: *hier, liegen, Lied, Papier, der Brief, lieben, das Tier*.

*aa, ee, oo* kabi qo‘sh unli tovushlar hamma vaqt bir tovushdek cho‘zib o‘qiladi. Masalan: **das Boot, der Saal, das Meer, das Beef, der Tee**.

Unli tovushlar yo‘zuvda quyidagicha beriladi:

a) cho‘ziq yopiq [e:] tovushi *e* harfi bilan belgilanadi. Masalan: *geben (ge:bən), leben (le:bən), nehmen (ne:mən), das Meer (me:r), mehr (me:r)*.

b) cho‘ziq ochiq [ɛ:] tovushi *ä* harfi orqali belgilanadi. Masalan: **der Bär (be:r), die Väter (fɛ:tər), fährt(fɛ:rt)**. (fɛ:rt).

v) Qisqa ochiq [ɛ] tovushi *e* harfi bilan belgilanadi, so‘z o‘zgarganda ham bu tovush qisqa ochiqligicha qoladi. Masalan: **das Werk (verk) —die Werke (verke), das Bett (bet) —die Betten (betən)**.

Cho‘ziq yopiq [o:] tovushi va qisqa-ochiq [o] tovushi yozuvda *o* harfi bilan belgilanadi:

Cho‘ziq-yopiq [o:]	Qisqa-ochiq [o]
<b>das Boot</b>	<i>dort</i>
<b>der Hof</b>	<b>das Dorf</b>
<i>groß</i>	<b>der Sommer</b>
<b>der Ofen</b>	<i>oft</i>

Nemis tilida o‘zbek tilida bo‘lmagan, tor lablangan maxsus old qator *ö* tovushi bor. Bu tovush nemis tilida „*O-Umlaut*“ deb ataladi.

*ö* tovushi ifodalanishiga qarab cho‘ziq-yopiq yoki qisqa-ochiq [ǎ] bo‘lib, *ö* harfi bilan belgilanadi.

Cho‘ziq-yopiq [o:]	Qisqa-ochiq [ǎ]
<i>lösen</i>	<i>zwölf</i>
<i>hören</i>	<b>der Löffel</b>
<b>der Löwe</b>	<i>können</i>

Nemis tilida o‘zbek tilida bo‘lmagan, tor lablangan maxsus *ü* tovushi bor. Bu tovush nemis tilida „*U-Umlaut*“ deb ataladi. *ü* tovushi cho‘zis-yopiq [y:] yoki qisqa-ochiq [y] bo‘lib, *ü* harfi bilan belgilanadi, masalan:

Cho‘ziq-yopiq [y:]	Qisqa-ochiq [y]
<i>grün</i>	<i>fünf</i>
<b>die Übung</b>	<b>das Glück</b>
<i>führen</i>	<i>zurück</i>
<i>fühlen</i>	<i>füllen</i>

Qorishib kelgai „*ei*“ va „*ai*“ tovushlari o‘zbek tilidagi „*ay*“ kabi o‘qiladi. Masalan:

<i>eins</i>	<b>der</b> <i>Mai</i>
<i>mein</i>	<b>die</b> <i>Taiga</i>
<i>dein</i>	<b>die</b> <i>Waise</i>

Qorishib kelgan *au* tovushlari o‘zbek tilidagi *av* singari o‘qiladi. Masalan:

<b>das</b> <i>Haus</i>	<i>Moskau</i>
<i>laufen</i>	<b>der</b> <i>Autobuss</i>
<b>das</b> <i>Auto</i>	<b>die</b> <i>Maus</i>

### Undosh tovushlarning o‘qilishi

Nemis tilidagi undoshlarning muhim xususiyatlari quyidagilardan iborat:

• *ff, ll, mm, nn, pp, ss, ss, tt* kabi juft undoshlari o‘zidan oldin kelgan unilarning qisqa o‘qilishini bildiradi. Masalan: *offen, die Wolle, kommen, nennen, der Lappen, die Klasse, die Mutter, das Wasser, der Himmel.*

• *ck* harflar birikmasi ikki *k* tovushi singari talaffuz qilinadi, masalan: **die** *Ecke, die Decke, der Zucker.*

• *tz* harflar birikmasi bitta *z* (ruscha :ц) dek o‘qilib, o‘zidan oldin kelgan unilarning qisqa o‘qilishini bildiradi, masalan: **die** *Katze, sitzen, benutzen.*

• *chs* harflar birikmasi o‘zbek tilidagi *ks* harflaridek o‘qilib, undan oldin kelgan unli harflar hamma vaqt qisqa o‘qiladi: *sechs, der Fuchs, wachsen, der Ochs.*

• *h* harfi so‘z yoki o‘zak boshida kelsa, o‘zbek tilidagi *h* harfigidek talaffuz qilinadi, masalan: *haben, hell, hier, hoch, Hut.* Ammo boshqa hollarda o‘zidan oldin kelgan unli tovushlarning cho‘ziq o‘qilishini bildiradi, masalan: *mehr, fahren, froh, nehmen, Lehrer, sehen, fehlen, Fehler.*

• Jarangsiz *s* tovushi yo‘zuvda *s, ss,* yoki *ß* harfi bilan ifodalanadi: **das** *Haus, die Maus, das Glas, das Gras, die Klasse, die Masse, messen, die StraÙe, groß, er liest* u. a. Shuningdek, *s* harfi o‘zbekcha *s* kabi talaffuz qilinadi: *fast, fest, die Lust, das Fenster, die Brust.*

• *s* harfi ikki unli o‘rtasida doim *ss* harf birikmasi kelib, o‘zbekcha *s* dek o‘qiladi; biroq, *ss* dan oldingi unli tovush yopiq bo‘g‘inda bo‘lgani sababli hamma vaqt qisqa o‘qiladi, masalan: **die** *Klasse, die Masse, das Wasser, müssen, lassen, messen, die Tasse.*

• *ß* harfi qo‘sh *ss* dek va unililar o‘rtasida kelib, ularning birinchisi ochiq bo‘g‘in bo‘lib, doim cho‘ziq o‘qiladi, masalan: *fließen, gießen, schießen, schließen, stoßen* va b.

• unli harfdan oldin kelgan **s** harfi hamma vaqt jarangli **z** kabi o‘qiladi, masalan: **der Hase, lesen, die Suppe, sagen, sieben, sie, sauber, der Sommer.**

• so‘z yoki negiz boshida **p** yoki **t** undoshidan oldin kelgan **s** o‘zbekcha **sh** kabi talaffuz qilinadi, masalan:

<b>der Student</b>	<i>spielen</i>
<b>die Stunde</b>	<b>der Sport</b>
<i>stehen</i>	<i>springen</i>

• **sch** harflar birikmasi hamma vaqt o‘zbekcha **sh** tarzida o‘qiladi, masalan:

<b>die Schule</b>	<b>die Tasche</b>
<b>der Tisch</b>	<b>die Maschine</b>
<b>der Mensch</b>	<b>das Schaf</b>
<b>die Schüler</b>	<i>Mischa</i>

• **i, l, ei, ö, ä** yoki **ü** dan keyin kelgan **ch** harflar birikmasi *hil-hil, behi, mehri* so‘zlaridagi **h** dek yumshoq o‘qiladi, masalan:

<i>ich</i>	<i>Fächer</i>	<i>Bücher</i>
<i>mich</i>	<i>lächeln</i>	<i>Tücher</i>
<i>dich</i>	<i>Mächte</i>	<i>Becher</i>

Yumshoq **ch** tovushi **ich-Laut** deb ataladi.

• **a, o, u** yoki yoki **au** tovushidan keyin kelgan harflar birikmasi o‘zbek tilidagi qattiq **x** dek o‘siladi. Bu tovush **ach-Laut** deb ataladi, masalan: *machen, lachen, kochen, Buch, suchen, acht, rauchen, Kuchen.*

• **tsch** harflar birikmasi o‘zbekcha **ch** dek o‘qiladi. Masalan: *deutsch, Tschkalow, Tschapajew,*

• **f** tovushi **f** yoki **v** harfi bilan belgilanadi:

a) nemis tilidagi ko‘p so‘zlarda **f** harfi o‘zbekcha **f** deb o‘qiladi, masalan:

<i>fragen</i>	<i>für</i>	<b>das Fenster</b>
<i>fahren</i>	<i>fallen</i>	<b>die Front</b>
<b>die Feder</b>	<i>frei</i>	<i>fertig</i>

b) quyidagi nemischa so‘zlarda **v** harfi o‘zbekcha **f** kabi o‘qiladi, masalan: **der Vater, das Volk, vor, der Vogel, von, vier, viel, voll.**

v) Nemis tiliga chet el tillaridan kirgan so‘zlarda **v** harfi o‘zbekcha **v** dek o‘qiladi, masalan: **das Festival, das Klavier, der November, die Revolution.**

• **ng** harflar birikmasi o‘zbek tilidagi *o‘qing, ming, qarang* so‘zlaridagi **ng** kabi ifodalanadi: *singen, bringen, lang, fangen.*

• *pf* harflar birikmasi bir tovushdek ifoda etiladi, masalan: **der Apfel**, **die Pflanze**, **das Pferd**, *der Kopf*.

• soʻz oxirida kelgan jarangli **b**, **d** yoki **g** tovushi oʻzbek tilidagi jarangsiz **p**, **t** yoki **k** tovushidek oʻqiladi, masalan: *hinab*, *Abend*, *Tag*.

• **ph** harflar birikmasi oʻzbekcha **f** dek oʻqiladi, masalan:

<i>das Alphabet</i>	<i>der Paragraph</i>
<i>der Asphalt</i>	<i>die Philosophie</i>
<i>die Geographie</i>	<i>das Photo</i>

• **x** harfi oʻzbekcha **ks** dek oʻqiladi, masalan: *Marx*, **der Text**, **der Boxer**, *Alex*.

• **tion** harflar birikmasidagi **t** oʻzbek tilidagi, rus tilidagi **u** dek oʻqiladi, masalan:

<b>die</b> <i>Revolution</i>	<b>die</b> <i>Nation</i>
<b>die</b> <i>Delegation</i>	<b>die</b> <i>Operation</i>

• **w** harfi oʻzbekcha **v** dek oʻqiladi.

<i>wir</i>	<i>warum</i>
<b>der</b> <i>Winter</i>	<b>das</b> <i>Wetter</i>

**qu** harflar birikmasi oʻzbekcha **kv** dek oʻqiladi, masalan:

*Quadrat*, *Plusquamperfekt*, *quer*, *Quartier*, *bequem*

## MORFOLOGIYADAN QISQACHA MA'LUMOT

### So'z turkumlari

Nemis tilida o'nta so'z turkumi bor:

- I. Ot (das Substantiv)
- II. Articl (der Artikel)
- III. Olmosh (das Pronomen)
- IV. Sifat (das Adjektiv)
- V. Son (das Numerale)
- VI. Fe'l (das Verb)
- VII. Ravish (das Adverb)
- VIII. Predlog (die Präposition)
- IX. Bog'lovchi (die Konjunktion)
- X. Undov (die Interjektion)

### OT (das Substantiv)

Ot biror narsa yoki ish-harakatning nomini bildiradi. Nemis tilidagi otlar uch xil grammatik rodga bo'linib, ularning oldida odatda rodni ko'rsatuvchi **der**, **die** yoki **das** artikli ishlatiladi; masalan: **der** *Tisch*, **die** *Stadt*, **das** *Buch*.

Otlar o'zining tuzilishi jihatidan uch turga bo'linadi:

1. Tub otlar. (Stammwörter): **der** *Sohn*, **die** *Hand*, **das** *Heft*.

2. Yasama otlar (abgeleitete Wörter): **der** *Lehrer*, **der** *Traktorist*, *der Tischler*, **der** *Maler*.

3. Qo'shma otlar (zusammengesetzte Substantive): **das** *Tagebuch*, **das** *Klassenzimmer*, **die** *Mittelschule*.

Otlarning muhim qo'shimchalari:

**-er**, **-ner**, **-ler**, **-ling** qo'shimchalari mujskoy roddagi otlarning qo'shimchalaridir. Bu qo'shimchalarning xususiyatlari quyidagicha: **-er** qo'shimchasi asosan fe'llardan ot yasab, biror kasb egasini bildiradi; **-er** qo'shimchasining ma'nosi ko'pincha o'zbek tilidagi **-chi**, yoki **-lik** qo'shimchasining ma'nosiga mos keladi: *lehren* (o'qitmoq) – **der** *Lehrer* (o'qituvchi); *fliegen* (uchmoq)—**der** *Flieger* (uchuvchi); *Moskau* (Moskva) — **der** *Moskauer* (moskvalik),

**-ling** qo'shimchasi ko'pincha shaxsning belgi-otini bildiradi: **der** *Lehrling* (shogird bola), **der** *Jüngling* (yosh yigit, yosh bola).

**-ner**, **ler** qo'shimchalari shaxsning hunari yoki mashg'ulotini bildiradi. Bu qo'simcha ham o'zbek tilidagi **-chi** qo'shimchasiga mos keladi:

**die** *Eisenbahn*—temir yo'l,

**der** *Eisenbahner*—temir yo'lchi;

**die** *Rede* nutq,

**der** *Redner* notiq



<b>der Sport</b> sport,	<b>der Sportler</b> sportchi
<b>die Kunst</b> san'at,	<b>der Künstler</b> san'atkor
<b>der Tisch</b> stol	<b>der Tischler</b> duradgor

**-e** qo'shimchasi ko'pincha jonli narsalarni, shaxsning biron millatga mansubligini bildiradi:

<b>der Bote</b> — elchi,	<b>der Erbe</b> — merosxur,
<b>der Hase</b> — quyon,	<b>der Deutsche</b> — nemis,
<b>der Usbeke</b> — o'zbek,	

Nemis tilida, yuqoridagi qo'shimchalardan boshqa chet tillardan kirgan mujskoy roddagi otlarning quyidagi qo'shimchalari ham ishlatiladi: **-ist, -ent, -ant, -nom, soph, -log, -graph, -et, -at**, . Bu qo'shimchalarga hamma vaqt urg'u tushadi.

Masalan: **der Kommunist, der Student, der Aspirant, der Agronom, der Philosoph, der Philolog, der Photograph, der Soldat, der Patriot, der Advokat.**

**-in, -heit, -keit, -ung, -e** qo'shimchalari jenskiy roddagi otlar eng muhim qo'shimchalaridir, **-in** qo'shimchasi yordamida mujskoy roddagi otlardan jenskiy roddagi otlar yasaladi, masalan: **der Lehrer** (erkak) o'qituvchi, **die Lehrerin** (ayol) qo'qituvchi, **der Arbeiter** (erkak) ishchi, **die Arbeiterin** (ayol) ishchi, **der Schüler** (o'quvchi), **die Schülerin** (uchuvchi kiz).

**-heit, -keit** qo'shimchasi bilan sifatlardan abstrakt ma'noli otlar yasaladi: *schön* (chiroyli) — **die Schönheit** (chiroylilik); *krank* (kasal)—**die Krankheit** (kasallik); *Tapfer* (botir) — **die Tapferkeit** (botirlik).

**-ing** qo'shimchasi bilan ko'pincha fe'llardan harakat nomini bildiradigan jenskiy roddagi otlar yasaladi *bilden*—(yasamoq) - **die Bildung** (yasalish), *versammeln* —(yig'moq) - **die Versammlung** (yigilish).

**-e** qo'shimchasi bilan sifat yoki fe'llardan mavhum ma'noli otlar yasaladi, masalan: *lehren* (o'qitmoq),- **die Lehre** (ta'limot), *lang* (uzun) - **die Länge** (uzunlik), *tief* (*chuqur*) **die Tiefe** (chuqurlik).

Yuqorida ko'rsatilgan qo'shimchalardan tashqari, nemis tilida chet el tillaridan kirgan jenskiy roddagi otlarning **-tion, -tat, ik** qo'shimchalari ham ishlatiladi. Bu qo'shimchalarga hamma vaqt urg'u tushadi,masalan: **die Revolution, die Organisation, die Fakultät, die Universität, die Fabrik, die Politik.**

**-chen, -lein, -tum, -nis** qo'shimchalari sredniy roddagi otlarning eng muhim qo'shimchalaridir:

**-chen** va **-lein** otga qo'shilib, kichraytirish va erkalash ma'nosini anglatib, o'zbekcha **-cha** qo'shimchasiga o'xshaydi, masalan: **der Tisch** (stol)- **Tischlein** (stolcha). O'zagida **a, o** yoki **u** unlisi bo'lgan otlarga **-chen** yoki **-lein**

qo‘shimchasi qo‘shilganda, umlaut oladi, ya‘ni **a**, **o** yoki **u** unlisi **ä**, **ö** yoki **ü** unlisiga almashadi, masalan:

**das Buch** (kitob) — **das Buchlein** (kitobcha),

**das Haus** (uy) — **das Hauschen** (uycha)

**der Vogel** (qush) — **das Vogelchen** (qushcha)

**-tum** qo‘shimchasi asosan jamlik ma‘nosini bildirgan sredniy roddagi otlarni yasaydi, masalan: **der Bauer** (dehqon), **das Bauertum** (dehqonchilik).

Quyidagi qo‘shimchalar nemis tiliga chet tillaridan kirgan sredniy roddagi otlarning qo‘shimchalaridir:

**-al:** **das Lineal** (chizg‘ich)

**das Signal** (signal)

**-ment:** **das Instrument** (asbob)

**das Dokument** (xujjat)

**-at:** **das Plakat** (plakat)

**das Diktat** (diktant)

**-um:** **das Museum** (muzey)

**-ium:** **das Auditorium**, (auditoriya)

**das Sanatorium** (sanatoriy)

### Qo‘shma otlar (zusammengesetzte Substantive).

Nemis tilida qo‘shma otlar ikki yoki undan ortiq so‘zlardan yasalib, hamma vaqt qo‘shilib yoziladi:

**die Wandzeitung**

**der Klassenlehrer**

Qo‘shma otlar tarkibida qancha so‘z bo‘lishidan qat‘iy nazar, bir artikl bilan ya‘ni eng oxirgi otning artikli bilan qo‘llaniladi, masalan:

**der Schulgarten**

**das Klassenzimmer**

**die Hauptstadt**

Qo‘shma otning rodi so‘ngi aniqlanmish otning rodiga qarab belgilanadi. Urg‘u esa qo‘shma ot tarkibidagi aniqlovchi — birinchi so‘zga tushadi:

**der Großvater**

**die Muttersprache**

**das Vaterland**

### Qo‘shma otlarning yasalishi

Qo‘shma otlar turli so‘z turkumlarining qo‘shilishidan yasaladi:

## 1. Ot + ot:

*die Schule* + *der Direktor* = *der Schuldirektor*

maktab + direktor = maktab direktori

*die Mutter* + *die Sprache* = *die Muttersprache*

ona + til = ona tili

*der Vater* + *das Land* = *das Vaterland*

ota + vatan = Ona-Vatan

*der Tisch* + *die Lampe* = *die Tischlampe*

stol + lampa = stol lampasi

*der Sommer* + *die Ferein* = *die Sommerferien*

yozi + kanikul = yozi kanikul

## 2. Sifat + ot:

*weiß* + *das Brot* = *das Weißbrot*

oq + non = oq non

*groß* + *der Vater* = *der Großvater*

katta + ota = bobo

*mittel* + *die Schule* = *die Mittelschule*

o'rtta + maktab = o'rtta maktab

## 3. Fe'l + ot:

*les* (en) + *das Buch* — *das Lesebuch*

o'qimoq + kitob = o'qish kitobi

*schreib* (en) + *der Tisch* = *der Schreibtisch*

yozi + stol = yozi stoli

*speis* (en) + *das Zimmer* = *das Speisezimmer*

ovqat yemoq + xona = ovqatlanish xonasi v. b.

Nemis tilida har bir so'z turkumi otga aylana oladi. Ot yasashning bu usuli substantivatsiya deyiladi. Otga aylangan so'zlar bosh harf bilan yozilib, tegishli artikl bilan qo'llaniladi:

a) har bir infinitiv sredniy roddagi ot bo'la oladi, masalan: *lesen* (o'qimoq) — **das Lesen** (o'qish); *leben* (yashamoq) — **das Leben** (hayot); *essen* (yemoq) — **das Essen** (ovqat) v. b.

b) otga aylangan sifatlar ma'nosiga ko'ra mujskoy yoki jenskiy rodga tegishli bo'ladi: *krank* (kasal), **der Kranke** (bemor kishi); **die Kranke** (bemor ayol), *lang* (uzun), **die Länge** (uzunlik) va boshqalar.

### Otlarning ko'pligi.

Nemis tilida otlarning ko'pligi asosan **-e**, **-(e)n**, va **-er** qo'shimchalari yordamida yasaladi; ba'zan bunday otlar umlaut oladi. Ba'zi otlar esa ko'plikda

hech qanday qo‘shimcha olmaydi, ularning faqat artikli o‘zgaradi, xolos. Nemis tilida otlarning ko‘plik shakli to‘rt usul bilan yasaladi.

Birinchi usulga ko‘plikda **-e** qo‘shimchasini oladigan quyidagi otlar kiradi:

a) mujskoy roddagi bir bo‘g‘inli otlarning ko‘pchiligi:

**der Brief — die Briefe    der Hund — die Hunde**

**der Tag — die Tag (e)**

ba‘zilari umlaut oladi: **der Tisch — die Tische    der Wolf — die Wölfe**

**der Baum — die Bäume    der Schrank — die Schränke**

**der Stuhl — die Stühle;    der Sohn — die Söhne v. b.**

b) jenskiy roddagi bir bo‘g‘inli otlarning bir gruppasi (o‘zagidagi **a, o** yoki **u** unlisi bo‘lsa doim umlaut oladi):

**die Hand — die Hände    die Maus — die Mäuse**

**die Wand — die Wände    die Stadt — die Städte**

